



GI DE MÖPASSAN

NOVELLALAR



• JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN •

ZAXIRA FOND

GI DE MOPASSAN

NOVELLALAR



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO·K 821.133.1-3

KBK 84(4Fra)

M 74

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad,
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev

ZUMRAD ORIFJONOVA
tarjimasi

Mopassanning hikoyalari o'quvchini o'yashga, fikrlashga undaydi. Kichik bir voqeа orqali insonning ichki dunyosini ochib bergen bu novellalar hanuzgacha kitobxonlarni o'ziga chorlab keladi. „Portda“, „Darbadar“, „Asirlar“ hikoyalari ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Gi de Mopassanning eng sara hikoyalardan saralangan ushbu to'plam sizga manzur bo'lishiga ishonamiz.

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/19-19

ISBN 978-9943-8369-1-4

© Zumrad Orifjonova (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOT DAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrat bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlari rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasiniz izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib, „Ziyo nashr“ nashriyoti xayrli bir ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O. de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarları bilan birga, S. King, U.Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratlari tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlар oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

DO‘NDIQ

Bir necha kundan beri shahardan tor-mor etilgan armiya-ning qolgan-qutganlari tinsiz o‘tmoqda. Endi bular qo‘sish emas, tumtaroq lashkar edi. Soldatlarning soqoli o‘sib paxmoq bo‘lib ketgan, kiyimlari yirtiq; bular tarqoq, bayroq-siz, shalvirab ketishayotgandi. Hammasining ruhi tushkun, tolgin, o‘ylashga, qimirlashga holi qolmagan, faqat beixti-yor qadam tashlab, to‘xtagan joyida yiqilgudek bo‘lib ketishayotgandi. Ayniqsa ko‘ngillilar – miltiq og‘irlilik qilib zo‘rg‘a ketayotgan tinchlikparvar odamlar yumshoqtabiatli sudxo‘rlar va salga qo‘rqib, salga ruhlanadigan, hujumga ham, qochishga ham tayyor bo‘lgan rezervdagilar juda ko‘p edi. Ular orasida zo‘r jangda maydalanib ketgan diviziya qoldig‘i – qizil shimli soldatlar ham ko‘zga chalinardi; turli polklardan qolgan piyoda askarlar qatorida tund yuzli to‘pchilar ham ko‘rinardi va onda-sonda shaxdam piyoda askarlardan qolishmaslikka tirishib, katta-katta qadam tashlab ketayotgan otliq askarlarning yaltiroq kaskasi ham ko‘rinib olardi.

„Mag‘lubiyat qasoschilari“, „O‘lim kishilari“, „O‘lim yo‘ldoshlari“ deb vahimali nom qo‘yilgan erkin o‘qchi drujinalar ham o‘tardi, ammo ular ko‘proq kallakesar qaroqchi-larga o‘xhashardi.

Ularning boshliqlari, yaqindagina movutfurush yoki allof bo‘lganlar, sobiq sovunfurush yoki yog‘furushlar, tasodifan harbiy bo‘lib, pulning kuchi bilan yoki xushmo‘ylovligi uchun ofitserlikka yetishgan, zarhal pogonli harbiy kiyim

kiyib, yarog‘-aslaha osib olgan kishilar endi gerdayishib, shang‘illashib, jang rejalarini muhokama qilishar, bizning kiftimiz halok bo‘layotgan Fransiyaning birdan bir suyan-chig‘i deb maqtanishar, lekin kezi kelganda, qo‘l ostidagi qaroqchi, shaloq o‘tgan o‘ta shafqatsiz soldatlardan cho‘-chishar edi.

Prussaklar Ruanga ana kiradi, mana kiradi, deb turilgan payt.

So‘nggi ikki oy davomida qo‘shni o‘rmonlarni juda ehtiyyotkorlik bilan razvedka qilib, ba’zan esa o‘z soqchilarini ham otib qo‘yib, butazor orasida quyon qimirlab ketsa ham jangga shaylanib turgan milliy gvardiya askarlari endi uy-uylariga qaytishgan. Ularning yaqindagina uch chaqirim atrofidagi katta yo‘llarning simyog‘ochigacha o‘takasini yorib turgan mishiqlari, askariy kiyimlari, halokatli yarog‘-aslahalari to‘satdan g‘oyib bo‘lgan.

Nihoyat, fransuzlarning so‘nggi askarlari Sena nahridan o‘tib, San-Sevar va Bur-Ashar shaharlari orqali Port Ode-merga yo‘l olishdi. Bir-biriga qovushmay, gala-gala bo‘lib ketayotgan odamlar bilan bir ish boshlashdan ojiz qolgan, gangigan general ikki adyutanti bilan hammadan keyinda pi-yoda borardi; g‘oliblikka odatlangan buyuk xalqning afsonaviy qahramonligiga qaramay, batamom tor-mor qilinishidan va uning boshiga kelgan bu dahshatli falokatdan uning o‘zi ham esankirab qolgandi.

Shahar suv quygandek jimjit bo‘lib qoldi, dahshat ichida unsiz kutish boshlandi. Do‘konda o‘tirib semirib, bor g‘ayratini yo‘qotgan ko‘p davlatmandlar qo‘llaridagi six va oshpichoqlarning ham qurol deb hisoblanishidan cho‘chib, qo‘rquv ichida g‘oliblarni kutishardi.

Shaharda hayot so‘ngandek tuyulardi; do‘konlar yopildi, ko‘chalar huvullab qoldi. Onda-sonda bu mudhish jimlikdan vahm olgan birorta yo‘lovchi biqinib devor tagidangina yurardi.

Bu kutish g‘oyat og‘ir bo‘ldi, hamma, „dushman kelsa kela qolmaydimi“ga tushib qolgandi.

Ertasiga kechki payt fransuz askarlari ketgandan keyin, qayerdandir paydo bo‘lgan bir necha otliq askar shahardan chopib o‘tdi. Shundan biroz o‘tgach, Sent-Katrin tog‘ining yonbag‘ridan mo‘r-malaxday yopirilib askarlar tushib kela boshladi; yana ikki tarafdan, Buagiyom va Darnetal yo‘llaridan ham seldek yopirilib askarlar kelaverdi. Uch korpusning avangardlari shahar boshqarmasi yonidagi maydonchaga baravar yetib keldi va butun yon ko‘chalardan ham batalon-batalon bo‘lib, kimsasiz tosh yo‘llarni gursullatib, shaxdam odimlar bilan nemis askarlari kela boshladi.

Erish eshitiladigan dag‘al tovush bilan baqirib berilayotgan komandalar go‘yo tashlab ketilganday, hayot so‘nganday ko‘ringan uylar bo‘ylab o‘tar, lekin bu choq darpardalari yopiq derazalarning tirqishidan odamlar qo‘rqa-pisa mo‘ralab, „urush qonuni“ga ko‘ra shahar va undagi mol-jonga ega bo‘lgan g‘oliblarga qarashardi. Qorong‘i uylarga kirib olgan aholi go‘yo insonning aqli va qudrati ojizlik qilish tabiiy halokat, vayron qiluvchi yerosti o‘zgarishlari oldidan paydo bo‘ladigan bir qo‘rquv changalida edi. Bunday his hamisha odatdagи tartib buzilgandan, xavf-xatardan omon qolish umidi yo‘qolganda, inson yoki tabiat qonunlari saqlab turgan hamma narsa ma’nosiz, qo‘pol va beomon bir kuch qo‘lida qolganda paydo bo‘ladi. Shahar xalqini qulagan binolar tagida halok qiladigan zilzila, g‘arq bo‘lgan dehqonlarni qoramollarning o‘ligi va imorat yog‘ochlari bilan birga oqizib ketadigan suv toshqini nima-yu mudofaa qiluvchilarni qirib, qolganlarini asir olib o‘z qurol kuchi sha’niga xalqni talab, zambaraklar gumburi ostida Xudoga shukur qilib borayotgan armiya nima – bular barchasi insonning ko‘kdan bo‘ladiganadolat va himoyaga e’tiqodini yemiruvchi bir falokat.

Mana, to‘da-to‘da askarlar eshik-eshikni qoqishib, so‘ng ularga ham kira boshladi. Yov bosib kelgandan keyin ok-

kupatsiya boshlandi. Mag'lublar uchun, g'oliblarga yaxshi muomalada bo'lish, degan yangi vazifa tug'ildi.

Biroz vaqt o'tgach, avvalgi qo'rquvlar bosilib, yana osoyishtalik boshlandi. Ko'p oilalarda pruss ofitserlari bir dasturxonda o'tirib ovqat yeydigan ham bo'lishdi. Agar u durustroq tarbiya ko'rgan kishi bo'lsa, qdob yuzasidan Fransiyaning holiga achinar va bu urushda qatnashish men uchun og'ir, der edi. Bundoq odamgarchiligi uchun mezbonlar nemisdan minnatdor bo'lishardi; har choq uning himoyasiغا muhtojlik tug'ilib qolishi ham bor-da. Unga xushomad qilish tufayli uyda bir nechtalab ortiqcha soldat turishidan qutulish mumkin. Zotan, o'zing butunlay mute bo'lgan kishining jig'iga tegishning nima hojati bor? Axir bu botirlik emas, telbalik bo'ladi-ku.

Ruan davlatmandlari esa shu shaharni qahramonlik bilan mudofaa qilib, uning dong'ini chiqargan zamondan beri bu xildagi telbalikni tark etib yuborishgan. Buning ustiga har kim ham fransuzlarga xos nazokat orqasida paydo bo'lgan bir e'tiqodga: uyingda chet mamlakat soldati bilan yaxshi muomalada bo'lishing mumkin-u va lekin uning bilan yaqinligingni boshqalar sezmasa bas, degan e'tiqodga amal qilardi. Ko'chada uni tanimaganday bo'lib o'tsa ham, uyda u bilan jon deb suhbatlashar, nemis ham kundan kunga ular bilan pechka yonida uzoqroq isinib o'tiradigan bo'lib qoladi.

Shahar sekin-asta o'z holiga qaytmoqda. Fransuzlar hali uydan chiqishga botinolmas, ko'chalarda esa pruss soldatlari javlon urib yuradi. Yana shuni aytish kerakki, trotuarlarda kekkayib, uzun-uzun qilichlarini yerga surgab yurgan nemis gusar ofitserlari fuqarolarga bundan bir yil oldin xuddi shu qahvaxonalarda kayf-safo qilib yuradigan nishondor fransuz ofitserlariga qaraganda bir qadar ko'proq nafrat bilan qarashar edi, xolos.

Shunday bo'lsa ham havodan nimaligini bilib bo'lmaydigan na kishi ko'nika olmaydigan qandaydir og'ir va yet bir

hid – bosqinchilarning hidi kelardi. Uylar va jamoat joylari ham o‘sha hidga to‘lgan, ovqatlarga ham o‘shaning mazasi urgan. Kishi o‘zini go‘yo uzoq mamlakatda – qonxo‘r, vahshiy qabilalar yashaydigan joylarda sayohat qilib yurganday his qilardi.

G‘oliblar pul, katta pul talab qilishadi. Aholi tinmay to‘layveradi: boy-da! Shunisi borki, Normandiya savdogari qancha boy bo‘lsa, arzimagan ziyondan shuncha aziyat chekadigan, boyligining kichkinagina zarrasi begona qo‘lga o‘tayotganligini ko‘rsa toqat qilolmaydigan bo‘ladi.

Lekin shu orada, shahardan uch-to‘rt chaqirim nari daryoning quyi tomonidagi Kruass, D‘epdal yoki Vessar qishloqlarining yon-verida kemachi va baliqchilar daryodan ba’zan pichoq yoki musht bilan urib o‘ldirilgan, ba’zan tosh bilan boshi yanchilgan yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘prikan suvga uloqtirib yuborilgan nemislarning shishgan o‘liklari ni sudrab chiqarishardi. Shon-sharafdan mahrum noma’lum qahramonlarning shafqatsizlik bilan maxfiy ravishda oladigan qonuniy o‘chiga, kunduzi betma-bet keladigan jangdan ko‘ra xavfiroq pinhoniy hujumga yo‘liqqanlarga daryo o‘z loyqasini kafan qilardi.

Chunki, chet el kishilariga bo‘lgan nafrat, o‘z maslagi uchun jon berishga tayyor turgan bir qism botirlarning azaladan g‘azabini qo‘zg‘atib keladi.

Garchi, g‘oliblar shaharni o‘zlarining qattiq intizomlari ga bo‘ysundirishgan bo‘lsa-da, bosib kelayotgan chog‘larida ovoza bo‘lgan vahshiyliklaridan birontasini ham qilishmadi. Aholi ham bora-bora jur’at paydo qildi va yerli savdogarlarning yuragida savdo-sotiq ishlariga bo‘lgan hirs yana avj oldi. Bulardan ba’zilari fransuz askarlari qo‘lida bo‘lgan Gavrda ko‘p pullari bo‘lgani uchun D‘eppgacha quruqlik bilan, u yog‘iga paroxod bilan borib Gavrga yetib olishning payiga tushib qolishdi.

Tanish nemis ofitserlarining obro‘yi ishga solinib, yo‘lga chiqish uchun shahar komendantidan ruxsat olindi.

Bunday safarga chiqish uchun o‘n kishi yozilib, to‘rt otliq katta dilijon kira qilishdi va odam yig‘ilishidan qochib, seshanba kuni tong otmasdan yo‘lga chiqadigan bo‘lishdi.

So‘nggi kunlarda yer sovuqdan qotib qolgan, dushanba kuni esa soat uchlarda shimoldan qora bulutlar ko‘tarildi, kechqurun va tun bo‘yi tinmasdan qor yog‘ib chiqdi.

Tong qorong‘usi soat to‘rt yarimlarda yo‘lovchilar dilijon tayin qilingan joyga – „Normand mehmonxonasi“ning hovlisiga yig‘ilishdi.

Hali uyqusi o‘chmagan yo‘lovchilar sovuqdan titrab, junjigan holda, yomg‘irpo‘shlariga o‘ralishardi. Qorong‘ida bir-birlarini zo‘rg‘a ko‘rishar, og‘ir va qo‘pol qish kiyimi ularning hammasini uzun to‘nlik semiz kyurelarga o‘xshatib ko‘rsatardi. Ikki erkak bir-birini tanib qoldi, ularning yoniga uchinchisi keldi va so‘zlasha ketishdi.

– Men xotinim bilan ketayotirman, – dedi ulardan biri.

– Men ham.

– Men ham.

– Endi biz Ruanga qaytib kelmaymiz, agar prussaklar Gavrga ham borishadigan bo‘lsa Angliyaga o‘tib ketamiz, – deb qo‘ydi birinchisi.

Hammasining niyati bir, chunki bular bir xil mayldagi kishilar edi.

Otlar hali aravaga qo‘silmagan. Otboqarning qo‘lidagi fonarchasi bir qorong‘i eshikdan lip etib ko‘rinsa, ikkinchi qorong‘i eshikka kirib yo‘qolar edi. Otxona ichidan otning go‘ngga va xashakka gursullatib bosgani, otlarni dam erkalatib, dam koyiyotgan erkak tovushi eshitilardi. Qo‘ng‘iroq-chalarning jarang-jurunggidan egar-jabduqlar tuzatilayotganga o‘xshardi. Haligi shiqir-shiqirlar tezda otning salmoqli harakatlariga mos tushgan uzluksiz jiringlashga aylandi.

Qo'ng'iroq tovushi ba'zan tinar, ot silkinganda yana jiring-lar, so'ng otning yer tepingani eshitilardi.

To'satdan eshik taq etib yopildi. Hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Sovqotgan yo'lovchilar jim bo'lishdi. Ular qimir etmay, sovuqdan karaxt bo'lgan holda turishardi.

Oq zarralar, tutash pardal singari yerga tushmay, hadeb jimirlab turardi; bu zarralar hamma yoqni ko'z ilg'amas qilib muz momig'iga chulg'amoqda. Qish yopinchig'i ostida qolgan jimjit shaharning og'ir sukunatida yolg'iz birgina, noaniq va tushuntirib bo'lmaydigan qaltiroq so'nik-so'nik bir tovush – yog'ayotgan qorning shitirlashi, tovush emas tovushsimon bir sas, go'yo butun bo'shliqni to'ldirmoqchiday yog'ayotgan, dunyoni o'rabi olayotgan oq zarralarning yengil sharpasi eshitilardi, xolos.

Fonar ko'targan odam yana paydo bo'ldi – horgan va istar-istamas qadam tashlayotgan otning jilovidan yetaklab chiqdi. U otni aravaning yakka shotisi yoniga keltirdi, yon qayishlarini bog'ladi va ot atrofida imillab, bir qo'lida chirrog' bo'lGANI uchun bir qo'llab jabduqlarni tuzata boshladi. U ikkinchi otni olib chiqqani ketaturib, qorda oppoq bo'lib qaqqayib turgan yo'lovchilarga ko'zi tushdi:

– Dilijonga chiqib o'tira tursalaring bo'lmaydimi. Hech bo'lmasa qordan pana bo'lasizlar-ku, – dedi.

Bu narsa yo'lovchilarning esiga kelmagan bo'lsa kerak, hamma birdan aravaga intildi. Uch erkak xotinlarini aravaning to'riga o'tqizib, keyin o'zлari ham chiqib olishdi, qolgan joylarga haligi yo'g'on va yapasqi odamlar jimgina chiqib o'tirib olishdi.

Dilijonga poxol to'shalgan bo'lib, oyoq botib ketar edi. Aravaning to'rida o'tirgan xonimlar kimyoviy ko'mir bilan isitiladigan mis asboblarini ola kelishgan ekan; endi ular shu asbobni yondirishib, uning ko'pdan beri ma'lum bo'lgan xususiyatlarini bir-birlariga pichirlashib tushuntira ketishdi.

Nihoyat, dilijonga odatda qo'shiladigan to'rt ot o'rniga, yo'l og'irligini nazarda tutib olti ot qo'shilgach, tashqaridan birov:

– Hamma chiqdimi? – deb so'radi.

Ichkaridan kimdir:

– Ha, – dedi.

Dilijon jo'nadi.

Dilijon imillab ketayotgandi. G'ildiraklar qorga botib, soyabon g'ijirlab, otlar tiyg'ana-tiyg'ana pishillab va bug' chiqarib borardi; aravakashning uzundan uzun qamchisi tinimsiz qarsillar, ilon singari goh o'ralar, goh har tomon-ga to'lg'anar va orqada qolayotgan otning sag'riga tushar, shunda ot joni boricha tortib ketardi.

Tong ham yorishib kelmoqda. O'sha yo'lovchilardan asli ruanlik bo'lgan biri paxta yomg'iriga o'xshatgan qor o'pqin-lari endi yerga tushmay ham qo'ydi. Katta-katta, qalin va qora bulut parchalaridan sizib o'tayotgan xiragina nur ko'z qamashtiradigan oppoq dalani, undagi qorli qator-qator baland daraxtlarni, qordan qalpoq kiygan kulbalarni yana ham yoritdi.

Bu ko'ngilsiz tong yorug'ida yo'lovchilar maroq bilan bir-birlariga qaray boshlashdi.

Dilijonning to'rida, eng yaxshi joyda Gran-Pon ko'chasi turadigan ulgurji vinofurush er-xotin Luazolar ro'para-ma-ro'para o'tirib olib mudrashmoqda.

Sobiq prikazchik Luazo singan xo'jayinining bor-yo'g'i-ni sotib olib, shuning orqasidan boyib ketgan. U qishloqlardagi chakana savdogarlarga eng yomon vinoni eng arzon narx bilan sotadi. Shunday qilib u – tanish va do'stlari o'r-tasida uchiga chiqqan makkor, shayton, sho'x haqiqiy normandiyaliklardan deb nom chiqargan.

Muttahamlik uning sha'niga shunchalik singib ketgan ediki, hatto bir kun prefekturada bo'lgan o'tirishda o'sha yerda nom chiqargan va laparlar to'quvchi, askiyaboz,

tegishqoq janob Turnel zerikib mudroq bosib o'tirgan xonimlarga „qush uchdi“ o'ynashni taklif qildi. Uning hazili bir zumda prefekturaning butun mehmonxonalariga tarqaldi, undan shahar mehmonxonalarga yetib bordi va butun okrugdagilar bir oygacha kulaverib ichaklari uzilayozdi.

Undan tashqari, Luazo kulgili qiliqlari, ba'zan durust, ba'zan o'rirlata olmaydigan askiyalari bilan ham nom chiqargan edi. Har kim uning haqida so'zlarkan, albatta:

– Nima desang, Lauzodaqasi topilmaydi-da! – deb qo'yari edi.

U, pakana, dum-dumaloq qorin ustiga oqarayotgan chakka soqollari yopishtirilgan qip-qizil bashara qo'ndirilganga o'xshardi.

Uning savdo kontorasidagi butun tartib, hisob-kitob to'ladan kelgan, novcha, shang'i va shaddot xotinining qo'li-da bo'lib, Luazoning o'zi esa bu joyga xushfe'lligi bilan jon kirgizib turardi.

Ularning yonida, o'zining e'tiborli va oliy martabasiga mahliyo bo'lib, gazlama sanoatida katta o'rin tutgan fabrikant, uch fabrikaning egasi, faxriy legion ofitseri, bosh ken-gashning a'zosi Karre-Lamadon janoblari gerdayib o'tirardi. Butun imperiya davrida yaxshi niyatli oppozitsiyaga bosh-chilik qilishdan yagona maqsadi – mabodo oppozitsiya ish boshiga o'tirguday bo'lsa, shunga bosh qo'shganligi uchun undan kattaroq foyda ko'rish bo'lib, o'sha yangi tuzumga qarshi, o'zi aytmoqchi, „xo'ja ko'rsinga“ kurashib kelgan. Karre-Lamadon xonim eridan ancha yosh bo'lganidan, yaxshi oiladan chiqqan va Ruan garnizoniga tayinlangan ofitserlar uchun ovunchoq edi.

U mo'yna po'stinga o'ralib, erining ro'parasida nafis bir suratday bo'lib, dilijonning miskin ko'rinishiga g'amgin nazar tashlab o'tirardi.

Uning yonida o'tirgan graf Yuber de Brevil bilan uning xotini Normandiyaning qadimdan dong chiqargan kishila-

ridan biri. Graf, gavdali, keksayib qolgan dvoryan bo‘lib, kiyinishda o‘zini qiroq Genrix IV ning avlodi ekanligini ko‘rsatishga tirishardi. Maqtanarli oilaviy rivoyatlarga qara-ganda, de Brevil degan xonim shu qiroldan xomilador bo‘lib qolgan emish. Shu sababli uning erini qiroq graflik darajasi-ga ko‘targan va gubernator qilib tayinlagan ekan.

Graf Yuber, Karre-Lamadon janoblari bilan bosh ken-gashda hamkasb bo‘lib, departamentda orleanchilar partiya-sining vakili edi. Uning nantlik mayda kemachining qiziga uylanishi doimiy bir jumboq bo‘lib qoldi. Biroq grafinyaning noz-karashmali qiliqlari, o‘ta mehmondo‘stligi, hatto Lui-Filippning o‘g‘illaridan birining sobiq ma’shuqasi tarzida nom chiqargani uchun kiborlarning hammasi uning ko‘nglini ov-lardi, departamentda uning mehmonxonasi birinchi hisob-lanib, yolg‘iz shundagina qadimgi nazokat saqlangan va u yerga uncha-muncha odam kirolmasdi.

Brevellarning yer-suv, bog‘-rog‘dan iborat mulki ovoza-larga qaraganda, har yili besh yuz ming livr daromad keltirar ekan.

Aravaning to‘rini egallagan bu olti kishi jamiyatning boy, o‘ziga ishongan, qudratli tabaqasidan, nufuzli, obro‘li, dinning mustahkam asoslariga sodiq zotlar tabaqasidan edi.

Ittifoqo, ayollarning hammasi bitta skameykaga o‘tirib qolishipti. Grafinyaning yonida uzun tasbehini o‘girib, pi-chirlab „Pater“ va „Ave“ duosini o‘qiyotgan ikki monax ayol o‘tirardi. Ulardan bittasi yoshi o‘tib qolgan, yuzi ro‘paradan sochma o‘q yegandek cho‘tir edi. Ikkinchisi nimjon, chiroylikkina, kasalmand yuzli, ko‘kragi ichga botgan ayol edi; uni butun sezgilarni mahv etadigan va odamni mayib qiladigan diniy e’tiqod ezib turardi.

Monax xotinlarning ro‘parasida o‘tirgan erkak bilan xo-tin hammaning diqqatini o‘ziga tortdi.

Erkak – hammaga ma’lum, mo‘tabar a’yonlar hayiqadi-gan demokrat Kornyude edi. U uzun, sariq soqolini silkitib,

yigirma yillab demokratlarning pivoxonalarini obod qildi. U konditerlik qiluvchi otasidan meros qolgan ko‘p dunyolarni o‘z hamkasblari va do‘satlari bilan barbod bergen va endi respublika tiklanishini va nihoyat, revolyutsiya yo‘lida shuncha yil qilgan xizmatlarining evaziga tegadigan o‘ringa o‘tirishni sabrsizlik bilan kutib yurgan edi. To‘rtinchi sentyabr kuni (biroz hazil qilgan bo‘lsa kerak) u o‘zini prefekt mansabiga tayinlandim deb hisoblaydi; ammo o‘z vazifasini ado etishga borganida, prefekturaga yagona xo‘jayin bo‘lib olgan kotiblar uni tan olishmaydi, shuning uchun qo‘ya qolishga majbur bo‘ladi. Umuman, o‘zi kamtar, beozor, durust yigit bo‘lib, favqulodda bir harakat bilan mudofaa tashkil qilishga kirishi. Uning buyrug‘i bilan dalalarda o‘ralar qazildi, yaqin o‘rtadagi o‘rmonlarning yosh daraxtlari kesildi, hamma yo‘llar chox bilan to‘ldirib tashlandi; ko‘rgan choralaridan qanoatlangan Kornyude, dushman yaqinlashishi bilan darhol shaharga chekindi. Endi Gavrda ham chuqurlar qazish, g‘ovlar qurish ehtimoli bor, u yerda ko‘proq ish bersam kerak degan xayol bilan o‘sha yerga ketayotgandi.

Xotin „yengil oyoq“ deb ataladigan kimsalardan bo‘lib, haddan tashqari to‘laligi bilan ko‘zga tashlangani uchun unga „Do‘ndiq“ deb laqab qo‘yilgandi. U jajjigina, dum-dumaloqqina, semiz, terisi silliq va yaltiroq, barmoqlari bo‘g‘ib-bo‘g‘ib qo‘yilgan sosiska singari, katta-katta ko‘kraklari ko‘ylagini turtib turgan, kishi sevsal sevguday, ko‘plarni o‘ziga giriftor qiladigan xotin bo‘lib, uning beg‘ubor sog‘lomligiga qarab kishining bahri ochilar edi. Yuzlari qip-qizil olmaga, endi ochilay deb turgan pion g‘unchasiga o‘xshaydi; qop-qora chiroyli ko‘zlarini o‘sinq va quyuq kipriklari yana ham qoraroq ko‘rsatadi. Mayda sadafdek oq tishlar, namlanib turadigan bejirim lablari bo‘saga tayyor turgandek ko‘rinadi.

Odamlarning aytishicha uning bulardan boshqa yana ko‘p bebafo fazilatlari ham bor ekani.

Uni tanib qolishlari bilan haligi nomusli xotinlar orasida shivir-shivir boshlandi: „ahloqsiz qiz“, „ayb-ku“ degan gaplar barala aytildiki, Do‘ndiq boshini ko‘tardi. U hamrohlari ga g‘azab bilan chaqchayib nazar tashlagan edi, kulimsirab unga qarab turgan Luazodan boshqa hammaning nafasi ichiga tushib, bo‘zrayib qoldi.

Shunday bo‘lsa ham, haligi uch xotin yana gap boshladi. Oralarida bunday axloqsiz qizning bo‘lishi kutilmagan yerda ularni bir-biriga yaqinlashtirib, hatto do‘stlashtirib qo‘ydi. Nomusli xotinlar bu behayo sotqin oldida birlashib olish zarurligini his etishdi, axir qonuniy muhabbat o‘zining erkin hamshirasiga doimo nafrat nazar bilan qaraydi-da.

Kornyuden ko‘rgach, konservatorlik hissi do‘stlashtirgan uch kishi pul haqida gap ochishdi, ularning gaplaridan kambag‘allarga nafrat bilan qarashlari sezilib turadi. Graf Yuber prussaklar tufayli ko‘rgan zararlari, qoramol o‘g‘irlanishi, hosilning nobud bo‘lishi orqasidan kelgan katta ziyonlar haqida so‘zlardi-ku, lekin uning so‘zlarida a’yonlar, millionerlarcha o‘ziga ishonganlik, go‘yo bu xildagi ziyon-zahmatlar meni bir yilgina kamxarjlikka soladi, degan ohang bor edi. Chit sanoatining ahvolini yaxshi biladigan Karre-Lamadon janoblari, qora kuniga atab yig‘gan olti yuz ming frankini vaqt g‘animatida Angliya bankasiga o‘tkazib qo‘ygan. Luazo bo‘lsa, o‘z yerto‘lalarida yotgan arzon vinalarining hammasini bir iloj qilib fransuz armiyasining ta’mi-not bo‘limiga sotib olgan, endi podshohlik undan ko‘p pul qarzdor, shu pulni Gavrga borib olish umidida edi.

Uchalovi ham bir-biriga do‘stona nazar tashlab qo‘yishardi. Bular, jamiyatda tutgan o‘rinnlari bilan bir-birlaridan farq qilishlariga qaramay, boylik – davlat jihatidan do‘stlik sezishar va o‘zlarini barcha xususiy mol-mulk egalari, cho‘ntagida tilla jaranglovchilarni birlashtiruvchi keng frankmason jamiyatining a’zosi deb his qilishardi.

Dilijon shunday imillab yurardiki, soat o'nga borib qarashsa, to'rt le ham yo'l bosishmapti. Erkaklar balandlik kelganda uch marta aravadan tushib, tepalikka piyoda chiqishi di. Yo'lovchilar betoqat bo'la boshlashdi, chunki nonushtani Toteda qilishmoqchi edi, endi u yerga qorong'i tushmasdan yetib borishlariga ko'zлari yetmay qoldi. Yo'l bo'yida biron ta mayxonacha ko'rinish qolmasmikin deb, hamma derazadan boshini chiqarib qarab qo'yardi. Dilijon birdan qorga tiqilib qoldi. Uni chiqarib olish uchun ikki soat ovora bo'lishdi.

Qorinlar ochlikdan tirishib, kallalar g'ovlay boshladи. Aksiga olib, yo'lda na birorta mayxona uchrar edi va na oshxona, chunki prussaklarning yaqinlashib qolgani va och fransuz armiyasining chekinishi savdo-sotiq qiluvchilarni cho'chitib qo'ygan edi.

Erkaklar ovqat topib kelish umidida yo'l bo'yida uchragan fermalarga yugurishar, lekin non ham topisha olmasdi, negaki, hech kimga ishonmay qo'ygan dehqonlar ko'zlariga ko'ringan narsani talab ketayotgan och soldatlardan qo'rqiб, saqlab qo'ygan oziq-ovqatlarini yashirishardi.

Soat birlarda Luazo qorni piyozning po'stiday bo'lib ketganini aytди. Boshqalar ham undan battar qiynalayotgan edi. Tobora avj olayotgan berahm ochlik suhbatga bo'lган hafsalaga ham xotima bergandi.

Goh-goh yo'lovchilardan biri esnay boshlaydi; uning ketidan darhol boshqasi esnaydi, o'zining xulqi, tarbiyasi va jamiyatda tutgan o'rniga qarab birov tovush chiqarib, birov tovushsiz, navbatli bilan og'iz ochar va bug' chiqarib turgan bu kavakni tezda qo'li bilan berkitardi.

Do'ndiq go'yo yubkasi tagida turgan nimanidir qidirgandek bo'lib bir necha marta engashadi. Lekin bir nafas dudmollanib yonidagilarga qarab, yana qomatini rostlab o'tiradi. Hamma yo'lovchilarning rangi bo'zargan, so'lg'in tortgandi. Luazo, bir parchagina lahm go'sht bo'lsa ming frank berishga fozi edim, dedi. Xotini esa, quти o'chib bir qimirlab qo'y viloyat AKM

INV № 2023/19-19

di-yu, yana o‘zini bosdi. U o‘rinsiz sarf qilinadigan pul haqidagi gaplarni eshitsa jon-poni chiqay der, hatto bu to‘g‘rida qilingan hazilni ham ko‘tarolmasdi.

– Rostdan ham men juda behuzur bo‘layotirman, – dedi graf. – Yo‘lga oziq olishni o‘ylamaganimni qarang-a!

Oziq olmagani uchun har kim ichida o‘z-o‘zini koyirdi.

Ammo Kornyudening bir shisha to‘la romi bor ekan, istovchilarga o‘shani manzirat qildi, hamma sovuqqina qilib „yo‘q“ dedi. Luazogina bir qultum ichdi-yu, idishini egasiga uzatarkan, rahmat aytdi.

– Chakki emas! Ham isitadi, ham ochlikni sezdirmaydi, – dedi.

Ichkilik uning kayfini ancha chog‘ qildi, u paroxodda bo‘lib o‘tgan, qo‘shiq bo‘lib aytiladigan bir voqeani eslatdi; sayohatchilardan eng semizini yeyish kerak degan taklifni qildi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan zotlar Do‘ndiqqa tekkizib aytilgan bu gapdan qattiq xijolat tortishdi. Luazo janoblarining haziliga hech kim javob qaytarmadi, Kornyudegina iljayib qo‘ydi. Monax xotinlar pichirlab o‘qishayotgan duolarini to‘xtatishdi va qo‘llarini keng yenglari ichiga olib, yerga qaraganlaricha qimirlamay o‘tirib, boshlariga ko‘kdan tushgan bu musibatni azob-uqubat ichida toqat qilib kechirishdi.

Nihoyat, soat uchlarga borib, hech qanday qishloq asari bo‘limgan bepoyon sahroga chiqishganlarida Do‘ndiq tezungina engashib, skameyka tagidan oq sochiq yopug‘lik katta savatni tortib oldi.

Do‘ndiq avval uning ichidan chinni tarelka bilan kumush stakan oldi, keyin ikkita jo‘jani burdalab, yaxna qilib jelega solingen katta kastryulni oldi: savatda qog‘ozga o‘rog‘liq yana boshqa nozi ne‘matlar, piroqlar, tarmevalar, shirinlikdan ham ko‘rinib turardi; bu uch kungacha oshxonaga muhtoj bo‘lmay yeyishga yetarli ovqat edi. O‘rog‘liq ovqatlar orasidan to‘rtta shishaning bo‘yni ham chiqib turardi. Do‘n-

diq jo‘janing qanotini olib, Normandiyada „rejans“ deb atlaladigan nonga qo‘shib noz bilan yeya boshladi.

Hammaning ko‘zi o‘shanda bo‘ldi. Hademay butun dilijonga burun kataklarini kengaytirib, ishtahani qitiqlaydigan, og‘izdan so‘lak oqizib, chakka tomirlarini tortishtiradigan hid tarqaldi. Xonimlarning haligi „ahloqsiz qiz“ga bo‘lgan nafratlari g‘azabga aylandi, uni o‘ldirguday yoki savati, stakani, ovqatlari bilan dilijondan yerga, qorga uloqtirib yuborguday bo‘lishdi.

Lekin Luazoning ko‘zlarini jo‘ja solingan kastryulni teshib yuborguday edi.

– Mana buni aqlilik deydilar! Xonim bizga qaraganda ancha tadbirdor ekanlar. Dunyoda hamma narsaning g‘amini yeb yuradigan shunaqa odamlar ham bor! – dedi u axir.

Do‘ndiq o‘girilib unga qaradi-da:

– Olmaydilarmi, taqsir? Ertalabdan beri och-nahor o‘tirish oson emas-ku, – dedi.

Luazo ta’zim qildi.

– Ha... rostini aytasam, yo‘q deya olmayman. Urush-da, urush, shunday emasmi, xonim? – dedi.

Hamrohlariga bir ko‘z tashlab oldi-da:

– Bunday vaqtida shunaqangi iltifotli xonim bilan uchrashib qolish qanday yaxshi-ya, – dedi.

Luazo shimini iflos qilmaslik uchun tizzasiga gazeta yoydi; doimo cho‘ntagida olib yuradigan pichoqchasining uchi bilan tovuqning oyog‘ini ilib oldi va tishlab-tishlab shunday huzur qilib yediki, dilijondagilarning hammasi og‘ir „uh“ tortib yuborishdi.

Shunda Do‘ndiq monax xotinlarni ham latif va muloyim tovush bilan ovqatga taklif qildi. Ikkalasi jon deb ko‘ndi va ovqatdan ko‘zlarini uzmay, pichirlab rahmat aytishganlaricha, shoshib-pishib yeyishga tushishdi. Kornyude ham Do‘ndiqning taklifini qaytarmadi va monax ayollar bilan ular ham tizzalariga gazeta yoyib, stolga o‘xshash joy qilishdi.

Og‘izlar tinmay ochilib-yopilar, jon-jahdi bilan chaynar, yamlab yutardi. Luazo ham o‘tirgan joyida burchakda zo‘r berib tushirmoqda va o‘zidan ibrat olish uchun xotinini ham sekin-sekin shivirlab yo‘lga solmoqda edi. Xotini xiyla vaqtgacha ko‘nmay o‘tirdi, keyin, yuragi tutday to‘kilayotganini sezib, ko‘ndi. Shunda eri, „ajoyib hamroh“dan Luazo xonimga ham ovqatdan jindek bermaydilarmi, deb nazokat bilan so‘radi.

– Jonim bilan, taqsir, – dedi Do‘ndiq.

Keyin muloyimgina qilib jilmayib, kastryulni uzatdi.

Bordo vinosining birinchi shishasi ochilganda sal tarad-dudga tushib qolishdi: stakan bittagina edi. Stakanning che-tini artib bir-birlariga uzata boshlashdi. Faqat Konyudegina nazokatli jazmandek stakanning Do‘ndiq labi tekkan nam joyidan ichdi.

Ovqatni ochko‘zlik bilan yeayotgan odamlar orasi-da o‘tirib, uning hididan entikayotgan graf va grafinya de-Brevillar bilan er-xotin Karre-Lamadonlar „Tantal ko‘rgili-gi“ deb nom olgan azobni chekishmoqda edi. Fabrikantning yoshgina xotini bexosdan shunday oh tortib yubordiki, hamma o‘girilib unga qaradi, uning rangi daladagi qorday oqarib, ko‘zlarini yumilib, boshi orqaga bo‘lib, hushidan ket-di. Erining kayfi uchib, o‘tirganlardan yalinib yordam so‘ray boshladi. Hammaning esi uchib, keksa monax ayol kasalning boshidan ko‘tarib, Do‘ndiqning stakanini uning lablariga tutib, zo‘rlab bir necha qultum vino ichirdi. Jajjigina juvon o‘ziga kelib ko‘zlarini ochdi, kuldi, behol odamday zo‘rg‘a „tuzukman“ dedi. Lekin yana hushidan ketib qolmasin deb, monax ayol zo‘rlab bir stakan vino ichirdi-da:

– Ochlikdan, – dedi.

Shunda Do‘ndiq qizarib va xijolat bo‘lib, tuz totmay ke-layotgan to‘rtta hamrohiga qarab:

– Voy Xudo, men sizlarni taklif qilishga botinolmaga-nimdan... marhamat qilinglar, olinglar, – deb pichirladi.

Do‘ndiq „yo‘q“ degan javobni eshitishdan qo‘rqib jimib qoldi. Luazo gapga tushdi:

– E, bunday vaqtida hamma ham bir odam – aka-uka, bir-biriga yordam qilishi kerak. Qani, xonimchalar, takallufni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib, ko‘naveringlar, boshqa gapning keragi yo‘q! Balki hali kechasi qo‘nadigan joy ham topa olmasmiz. Bu yurishimizda Totega ertaga tush paytida yetib borsak ham yaxshi edi.

Ular hamon ikkilanishar, hech kim xo‘p deyishga botina olmasdi.

Nihoyat, masalani graf biryoqlik qildi. U xijolat bo‘lib turgan semiz juvonga o‘girildi-da, gerdaiyb o‘tirib:

– Taklifingizni jon deb qabul qilamiz, xonim, – dedi.

Birinchi bo‘lib boshlab berish qiyin edi, xolos. Rubikon-dan o‘tilgandan keyin hech kim uyalib-netib o‘tirmadi. Savat bo‘shatildi. Uning ichida yana jigar somsa, chumchuq somsalar, bir bo‘lak surlangan til. Krassan noklari, Ponlavek pishlog‘i, pecheniy, sirka bilan o‘ldirilgan bir banka to‘la mayda bodring va piyoz ham bor ekan, Do‘ndiq ham ko‘p xotinlar singari achchiq-chuchuk narsalarga o‘ch edi.

Bu juvonning ovqatlari yeylimarkan, uning bilan so‘zlashmay o‘tirib bo‘lmashdi. Asta-asta so‘z qotib, suhbat boshlandi, avval bir qadar tortinibroq, keyin bemalol so‘zlashib ketishdi, chunki Do‘ndiq o‘zini juda yaxshi tutib borardi. Kiborona odob va odatlarni yaxshi biladigan grafinya de Brevil bilan Karre-Lamadon xonimlar nazokat ko‘rsatishdi. Ayniqla grafinya, har qanday odam bilan muomala qilganda ham sha’niga dog‘ tushirmaydigan kibor xonim sifatida ancha shafqat bilan iltifot qildi, ajab lobarlik ko‘rsatdi. Lekin jandarmatabiat semiz Luazo xonim asti pinagini buzmadi: u kam gapirib, ovqatni boplab tushiraverdi.

Turgan gap, suhbat urush haqida edi. Gap prussaklarning zolimligi, fransuzlarning botirligi ustida ketdi; o‘zlar dushmanidan qochib qutulayotgan bu kishilarning hammasi

soldatlarning mardligiga tahsin va ofarinlar o‘qishayotgandi. Birpasdan keyin har kim o‘z boshidan o‘tganini so‘zlay ketdi. Do‘ndiq ham zo‘r hayajon bilan ba’zan fohisha xotinlar o‘z boshidan kechganlarini so‘zlagandagi qizg‘inlik bilan o‘zining nima uchun Ruandan ketayotganini gapirib berdi.

— Boshida qolay degan edim, — deb gap boshladi u. — Uyim to‘la oziq-ovqat edi. Boshim oqqan tomonlarga ketganimdan ko‘ra, soldatlardan bir nechtasini boqib o‘tirganim yaxshiroq, degan edim. Lekin men ana o‘sha prussaklarni ko‘rganimdan keyin o‘zimni sira tutib tura olmadim. Shu qadar alamim kelganidan tutoqib ketdim, nomusga chidolmay kechgacha yotib yig‘ladim. Oh, agar erkak kishi bo‘lganimda ularning adabini bergen bo‘lar edim-a! Men boshiga uchlik kaska kiygan o‘sha semiz to‘ng‘izlarga derazadan qaraganimdayoq, xizmatkor xotin uy anjomlarini ularning bo shiga uloqtirib yuborishimdan qo‘rqib, qo‘limdan mahkam ushlab qoldi. Keyin ular uyimda turgani kelishdi. Birinchi kirganiniyoq bo‘g‘zidan oldim. Nemisni bo‘g‘ib o‘ldirish boshqalarni o‘ldirishdan qiyin emas! Agar sochimdan tortqilab tashlamaganlarida-ku, ishni tamom qilardim-a. Shundan keyin qochib yurdim. Payti kelishi bilan jo‘nab qoldim. Mana endi sizlar bilan ketyapman.

Yo‘lovchilar uni xo‘b maqtashdi. Bunday jasorat ko‘rsata olmagan hamrohlar nazarida Do‘ndiq ancha baland ko‘tarilganday bo‘ldi. Uning so‘zlariga qulq solarkan, Kornyude apostol singari manzur ko‘rib, iltifot bilan kulimsirab turdi; xudojo‘y bandalarning tangriga qilayotgan hamd-u sanolari ga qulq solayotgan ruhoni shu zayilda qulq soladi, chunki, uzun chopon kiyish bilan dinni o‘zlariniki qilib olgan kishilar singari uzun soqol demokratlar ham patriotizmni o‘zlariniki qilib olishgan. Kornyude ham so‘zlarkan, nasihatmuz qilib, har kuni devorlarga yopishtirilayotgan xitobnomalardan o‘rganganlarini shavq bilan bayon etdi, so‘zining

oxirida notiqlik bilan chertib, o'sha „razil Badenge“ dan ko'yib qo'ydi.

Lekin o'sha on Do'ndiqning jahli chiqdi, chunki u Bonapart tarafдори edi. U olchaday qizarib ketib, g'azabiga chida-yolmaganidan utila-utila dedi:

— Uning o'rnida sizga o'xshaganlar bo'lganda ko'rardik! Qoyil qilardinglar, asti qo'yavering! Uni o'zlarining tutib berdilaring-ku! Agar mamlakatni sizlar singari bevosHLAR idora qilganda bormi, Fransiyadan qochishdan boshqa chora qolmasdi!

Kornyude qizishmay, pisand qilmay nafrat bilan kumlimsirab turdi-yu, lekin hozir janjal chiqishi ko'riniq qoldi, shunda bu ishga graf aralashib, har qanday chin e'tiqodni hurmat qilish kerak deb qattiq gapirib, tutaqib ketayotgan Do'ndiqni zo'rg'a bosib qo'ydi. Bu orada, barcha muhtaram zotlar singari respublikani o'ylamay-netmay yomon ko'radian va barcha xotinlar singari saroy sha'n-shavkatini, zolim podshohlarni yaxshi ko'radian grafinya bilan fabrikant xotiniga, ularning ko'ngillaridagidek gapni dadil aytgan xotin beixtiyor yoqib qoldi.

Savat bo'shami. O'n kishilashib uning ichidagi narsalarni bir zumda yeb bo'lishdi, savat kattaroq bo'lmaniga juda achinishdi. Ovqat tamom bo'lgach, garchi avvalgi ruhlik bo'lmasa ham, suhabat yana bir qancha vaqt cho'zildi.

Kech kirib, asta-sekin qorong'i tushmoqda, ovqat hazm bo'layotgan vaqtida sovuq kuchliroq sezilganidan, semizligiga qaramay Do'ndiqning eti uvishib, qaltiray boshladi. Shunda de-Bravil xonim ertadan beri bir necha bor ko'mir solingan grelkasini Do'ndiqqa taklif qildi, u darhol qabul qildi, chunki oyog'i muzlab ketgandi. Karre-Lamadon va Luazo xonimlar grelkalarini monax ayollarga berishdi.

Aravakash fonarlarni yoqdi. Fonarlar o'rtadagi otlaning terlagan sag'ri ustida tebranib ko'tarilayotgan bug'ni

va yo‘lning ikki chetidagi, shu’la ostida qalin parda singari qoplab yotgan qorni yoritib borardi.

Dilijonning ichida hech narsani ko‘rib bo‘lmay qoldi: lekin Do‘ndiq bilan Kornyude birdan qimirlab qolishdi va qorong‘ulikka tikilib qarab ketayotgan Luazo janoblarining nazarida uzun soqol Kornyude sekin-asta bo‘lsa ham qat-tiqqina turtki yeb nariroq o‘tirganday bo‘ldi.

Uzoqda miltillab chiroqlar ko‘rindi. Bu Tot qishlog‘i edi. Bular o‘n bir soatdan beri yo‘l bosib kelishmoqda, bunga yo‘lda otlarga yem, dam berish uchun to‘rt bor to‘xtalganda ketgan ikki soatni qo‘shilsa, raso o‘n uch soat bo‘lardi. Dilijon qishloqqa kirib „savdo mehmonxonasi“ oldida to‘xtadi.

Dilijonning eshigi ochildi. Yo‘lovchilar to‘satdan o‘zlariga tanish tovushni, yerga tegib-tegib kelayotgan qilichning taqirlashini eshitib cho‘chib ketishdi. Shu onda kimdir nemischalab bir narsa deb qattiq baqirdi.

Dilijon to‘xtagan bo‘lsa ham, go‘yo chiqding hozir o‘ldi-rishadi deb qo‘rqqanday hech kim o‘rnidan qo‘zg‘alolmadi. Shu onda fonar ko‘targan aravakash kelib, to‘satdan aravaning ichiga chiroq tutib, quti o‘chib, hayrat ichida og‘zini ochib, ko‘zini baqraytirib ikki qator bo‘lib o‘tirgan bashara-larni yoritdi.

Aravakashning yonida, chiroq shu’lasida baland bo‘yli, sap-sariq, belini tang‘igan qiz singari askariy kiyimni sirib kiygan yoshgina yigit – nemis ofitseri turardi, yassi amerika shapkasini chakkasiga qiyshaytirib kiyganidan xuddi Angliya musofirxonalaridagi xat tashuvchilarga o‘xshardi. Haddan tashqari dag‘al, ikki uchi tobora ingichkalashib, bittagina oq qil bilan tamom bo‘lganidan oxiri ko‘zga ko‘rinmaydigan uzun mo‘ylovi lunjini pastga bosib, labining ikki burchini va yuzini quyi tortib turganday ko‘rinardi.

U Elzas shevasida fransuzchalab do‘q qilib, yo‘lovchi-larga pastga tushishni buyurdi:

– Tushsalaring ham bo‘lar, afandilar?

Boshlab avliyo qizlarcha yuvoshlik bilan, itoatkorlikka o‘rganib qolgan monax ayollar chiqdi. Keyin graf bilan grafinya chiqdi, ularning orqasidan fabrikant bilan xotini, so‘ng, barvasta xotinini yetaklab Luazo ham chiqdi. Yerga tushganlarida Luazo odobdan ko‘ra ehtiyot yuzasidan:

– Salom, taqsir, – dedi.

Ofitser andishasizlik bilan zo‘ravonlarcha bir qarab qo‘ydi-yu, indamadi.

Do‘ndiq bilan Kornyude eshik oldida o‘tirgan bo‘lsalar ham, hammadan keyin, dushman oldiga yuzlariga jiddiy tus berib, takabburlik bilan chiqishdi. Semiz juvon qo‘lidan kelgani qadar o‘z nafratini sezdirmaslikka tirishardi, demokrat bo‘lsa asabiylashib, andak qaltirayotgan qo‘li bilan hadeb uzun sariq soqolini tutamlardi. Bunday holat yuz bergen chog‘da ularning har biri o‘z vatanining vakili ekanini yaxshi anglar va o‘z qadri qimmatini saqlashga tirishardi. Boshqa hamrohlarining bunchalik itoatkorligi ikkalasining ham nafratini qo‘zg‘atmoqda edi. Do‘ndiq hamroh bo‘lib kelayotgan xotinlardan ko‘ra o‘zini baland ko‘rsatishga harakat qilardi. Kornyude bo‘lsa boshqalarga o‘rnak bo‘lish lozimligini o‘ylar va butun vujudi bilan yo‘llarga o‘ralar qazib, ko‘rsatgan qarshiligini davom ettirayotganday bo‘lib ko‘rinishga tirishardi.

Hamma saroyning keng oshxonasiga kirdi, haligi nemis esa yo‘lovchilardan yo‘lga chiqish uchun Ruan shahrining komendanti bergen yo‘lovchilarning ismlari, barcha belgilari, kasb-korlari yozilgan ruxsatnomani talab qildi. U yo‘lovchilarni huijjatga yozilgan belgilariga bitta-bitta solishtirib, uzoq tekshirdi.

Shundan keyin jerkib „yaxshi“ dedi-da, g‘oyib bo‘ldi.

Hamma erkin nafas oldi. Ochlik hali ham sezilib turgandi: ovqat buyurishdi. Ikkita xizmatchi xotin pishirib-kuydirib kelguncha yarim soat o‘tdi. Bu orada yo‘lovchilar binoni

ko‘rib chiqishdi. Ikki tomonida uylar bo‘lgan uzun yo‘lak hojatxonaning oynaband eshigiga borib taqalar ekan.

Nihoyat, stol atrofiga o‘tirayotganlarida saroybonning o‘zi – sobiq aspijallob, doim bo‘g‘zida balg‘ami xirillab, g‘ijillab, hushtak chalib turadigan Folanvi degan familiyani otasidan meros qilib keldi.

– Elizabet Russe degan qiz qaysi birlaring? – deb so‘radi.

Do‘ndiq irg‘ib tushdi-da, o‘girilib unga qaradi.

– Men bo‘laman.

– Qizgina, pruss ofitseri siz bilan gaplashmoqchi.

– Men bilan?

– Ha, Elizabet Russe siz bo‘lganingizdan keyin...

U, xijolat bo‘lib, biroz o‘ylab turdi-da, dangal:

– Bu nimasi!.. Bormayman! – dedi.

Hamma bezovtalanib qoldi: hamma birdan so‘zlab, buning sababini topmoqchi bo‘lishdi. Graf Do‘ndiqning yoniga borib dedi:

– Bundoq qilishingiz yaramaydi, xonim, uning talabini rad qilishingiz o‘zingiz uchungina emas, barcha yo‘ldoshlar ringiz uchun ham ancha dilsiyohlikka sabab bo‘lishi mumkin. Bizdan kuchliroq odamga hech qachon qarshilik ko‘rsatmaslik kerak. Bu taklifning hech qanday xavfli tomoni yo‘q bo‘lsa kerak ehtimol, biron rasmiyatshilikni bajarish lozim bo‘lgandir.

Hamma grafning gapiga qo‘silib, Do‘ndiqqa yalinib-yolvorib, nasihatlar qilib, uni yo‘lga sola boshlashdi va oxiri ko‘ndirishdi, ularning har biri bunday noma‘qulchilikning oqibati xunuk bo‘lishidan qo‘rqardi-da.

– Mayli, sizlarning ko‘ngillaringiz uchun boraman! – dedi Do‘ndiq, nihoyat.

Grafinya uning qo‘lini qisib:

– Hammamiz ham sizdan minnatdormiz! – dedi.

Do‘ndiq chiqib ketdi. Uning kelishini kutib, ovqat qilgani o‘tirishmadi.

Har biri o‘zini tuta olmaydigan shu jizzaki qiz o‘rniga o‘zini chaqirmaganiga xafa bo‘lib, bordi-yu, o‘zini ham chaqirib qolguday bo‘lsa nima deyishini o‘ylab o‘tirardi.

Lekin o‘n daqiqa o‘tar-o‘tmas Do‘ndiq qip-qizarib, bo‘g‘ilib, tutoqqancha qaytib keldi.

– Ablah! Ablahligini qarang-a! – deb g‘udrandi.

Hamma nima voqeа bo‘lganini bilish uchun unga yopirilib so‘ray boshladi, lekin u lom deb og‘iz ochmadi. Graf qistayverganidan keyin esa, Do‘ndiq kerilib javob qildi:

– Yo‘q, sizlarga daxli yo‘q, men buni sizlarga aytolmayman.

Shundan so‘ng hamma karam hidi chiqib turgan katta kastryul atrofiga o‘tdi. Vahimali voqeа yuz bergeniga qaramay, kechki ovqat xushvaqtlik bilan o‘tdi. Luazo xotini bilan va monax xotinlar pullarini ko‘zлari qiymay ichishgan sidr juda soz narsa ekan. Boshqalar vino buyurishdi, Kornyude pivo so‘radi. Kornyudening shishani g‘alati qiliqlar bilan ochish odati bor: u rangini yaxshilab ko‘rish uchun avvalo pivoni ko‘piklatadi, stakanni engashtirib, keyin chiroqqa solib yaxshilab ko‘radi. Ichayotganda esa zamonlar o‘tishi bilan o‘zi sevgan ichimlikning tusiga kirib ketgan soqoli erkalyotganday silkinadi, ko‘zлari g‘ilaylashib, qadahni ko‘zдан yo‘qotmaslikka tirishadi, dunyoga shuning uchun kelgan-u, o‘sha yagona iste’dodini ado etayotganday bo‘ladi. U xayolida, hayotini to‘ldirib turgan ikki buyuk orzusini: och qizil pivo bilan revolyutsiyani birlashtirib qo‘shayotganday bo‘lardi: bir orzusiga erishganda ikkinchisini o‘ylamay iloji yo‘q edi.

Folanvi janoblari xotini bilan stolning u boshida o‘trib ovqat qilar edi. Eri eski parovozdek pishillar, ko‘kragi shunday g‘ijirlardiki, ovqat vaqtida so‘zlasha olmasdi, lekin xotini bir nafas ham tinmasdi. U prussaklar kelgandan beri

olgan barcha taassurotlarini to‘kib soldi, ularning nimalar qilishlarini, qandoq so‘zlashganlarini tasvirlab berdi, prussaklar uni ko‘p chiqimdar qilayotgani uchun ularni juda yomon ko‘rardi, buning ustiga ikkita o‘g‘li askarlikka olingandi. U ko‘proq grafinyaga qarab so‘zlar, chunki kibor xotin bilan suhbatlashishni go‘yo martaba deb bilar edi.

U biror nozikroq masala ustida gapirarkan, tovushini pasaytirar, eri bo‘lsa ba’zi-ba’zida uning so‘zini bo‘lib:

– Jim o‘tirsangiz ham bo‘lardi, Folanvi xonim, – deb qo‘yardi.

Lekin uning so‘zlariga hech parvo qilmay, xotini davom etardi:

– Shunday, xonim, bularning cho‘chqa go‘shti bilan kartoshka-yu, kartoshka bilan cho‘chqa go‘shti yeyishdan boshqa ishlari yo‘q. Ularni ozoda deganlariga aslo ishonmang. Bo‘lman gap! Beodobchilik bo‘lmasin-ku, hamma yoqni bulg‘atib tashlashdi. Siz ularning soatlab, ertadan kechgacha mashq qilishganini ko‘rsangiz, sayhon joyga chiqib, to‘planishib olib: oldinga yur, orqaga yur, u yoqqa aylan, bu yoqqa aylan, deyishaveradi. Undan ko‘ra, o‘z vatanlariga borib yer haydashsa-yu, yo‘l qurishsa-chi! Yo‘q, nega undoq qilishsin, xonim harbiylardan kim naf ko‘ripti! Hamon ular odam o‘ldirishnigina o‘rganishar ekan, bu sho‘rpeshana xalq ularni nega boqayotir? Men o‘qimagan bir kampirman, nimasini aytasiz, lekin kuch-quvvatini ayamay, ertadan kechgacha tap-tup yer tepishganini ko‘rganimda hamisha o‘ylayman: „mana shunday odamlar bor, boshqalarga foyda yetkazish uchun har xil ixtiolar qilishadi, bunaqangi faqat ziyon yetkazish uchun jon otuvchilarning nima keragi bor?“ Axir, prussakmi, inglizmi, polyakmi, fransuzmi – odam o‘ldirish – ablalilik emasmi? Agar seni xafa qilgan odamdan o‘ch olsang – jazolashadi, demak, bu yomon ish ekan, o‘g‘illarimizni parranda otganday qirib tashlashsa bu yaxshishi ekan-da, kimki ko‘p o‘ldirsa, o‘shanga orden berganla-

ridan keyin shunday bo‘ladi-ku! Yo‘q, bilasizmi, men aslo shuning ma’nisiga tushunmayman.

Kornyude baland ovoz bilan:

– Tinch turgan qo‘shniga hujum qilish – vahshiylik, lekin vatanni himoya qilish esa, muqaddas burch, – dedi.

Kampir bosh egdi.

– Ha, himoya qilishning yo‘rig‘i boshqa, shunday bo‘lsa ham o‘z xursandchiligi uchun urush qiladigan podshohlar-ning hammasini o‘ldirib tashlansa yaxshi bo‘lardi, – dedi u.

Kornyudening ko‘zлari chaqnab ketdi va:

– Balli, grajdanka! – dedi baqirib.

Karre-Lamadon janoblari nima deyishini bilmay qoldi. Garchi buyuk sarkardalarga uning ixlosi baland bo‘lsa-da, keksa dehqon xotinning so‘zlaridagi sog‘lom fikr uni o‘ylatib qo‘ydi: shu bekorchi, demakki, ziyon bo‘ladigan shuncha ishchi kuchlari, shu qadar befoyda sarf bo‘layotgan mehnat agar buyuk sanoat ishiga sarflansa mamlakatga naqadar farovonlik keltingan bo‘lardi, yuz yilda bunyodga keladigan ishlarni qilib yuborardi!

Luazo bo‘lsa o‘rnidan turdi, saroybonning yoniga borib o‘tirib, pichirlab so‘zlay ketdi. Semiz saroybon xandon tashlab kular, yo‘talar, balg‘am tashlardi, uning kattakon qorni hamsuhbatining hazilidan silkinardi. Saroybon shu ondayoq ko‘klamda olish sharti bilan Luazodan olti bochka bordo vinosi sotib oldi. Prussaklarning bahorgacha ketib qolishiga ishonardi.

Ovqat tamom bo‘lishi bilan hamma qattiq charchaganini sezib, yotgani ketdi.

Bu orada ba’zi bir narsalarni payqab qolgan Luazo xotinini yotqizib, o‘zi eshikning tirqishiga dam qulog‘ini, dam ko‘zini qo‘yib, o‘zi aytganiday, „yo‘lak sirlaridan“ voqif bo‘lmoqchi edi.

Bir soatcha o‘tgach, sharpa eshitdi. Darhol qaraboq to‘rutilgan havorang kashmiri ko‘ylakda avvalgidan ham lo‘ppi-

roq ko'rinyotgan Do'ndiqni ko'rdi. U shamdon ko'tarib, yo'lakning oxiridagi hojatxonaga ketmoqda edi. Qayerdadir, yaqin uylardan birining eshigi ochildi, bir necha daqiqadan so'ng, Do'ndiq qaytib kelayotganida uning orqasidan shim va ich ko'ylakkina kiygan Kornyude ergashdi. Ikkalasi pi-chirlashib keldi-da, so'ng to'xtashdi. Aftidan, Do'ndiq o'z bo'lmasiga kirgizmaslik uchun qattiq qarshilik ko'rsatardi. Afsuski, Luazo ularning so'zini anglab ololmadi, qattiq-qattiq gaplasha boshlaganlaridan keyingina Luazo bir necha jumlanı eshitib qoldi. Kornyude qo'yarda-qo'ymay:

– Menga qarang, qo'ysangiz-chi, shu gaplarni, nima qiladi? – derdi.

Do'ndiqning jahli chiqib ketdi:

– Yo'q, azizim, har ishning o'z mavridi bor, bu yerda shunday qilish sharmandalik bo'ladi, – dedi.

Kornyude tushunmadi shekilli „nega?“ deb so'radi.

Shunda Do'ndiq tutaqib, o'shqirib berdi:

– Nega? Negaligini tushunmayapsizmi? Prussaklar bor joyda-ya, ehtimol qo'shni uyda ham bordir?

Korniyudening dami ichiga tushib ketdi. Fohishaning vatanparvarlik nomusi, ya'ni prussaklar oldida o'zini erkalat-tirishdan or qilishi Korniyudening ko'nglida zaiflangan hamiyatni qo'zg'atgan bo'lsa kerak u qizni bir o'pdi-yu, keyin asta yurib o'z xonasiga kirib ketdi.

Lovullab ketgan Luazo ko'zini teshikdan oldi, o'yin tushganday oyoqlarini bir-biriga urib irg'idi va tungi qalpog'ini kiydi, qoqsuyak xotini orom olayotgan ko'rpani ochib, uni o'pib uyg'otdi-da:

– Meni sevasanmi, jonim? – deb shivirladi.

Shundan keyin butun uyni sukunat bosdi. Lekin tezda, yerto'ladanmi, boloxonadanmi, qayerdandir bir maromda eshitilayotgan qattiq xurraq tovushi, go'yo katta bug' qozoni titrayotganday bo'g'iq va cho'zinqi gurullah eshitildi. Folanvi janoblari uyquga ketgan edilar.

Ertalab soat sakkizda jo‘nashga qaror qilinganidan hamma o‘sha vaqtda oshxonaga yig‘ildi. Lekin brezent sirilgan, ustiga qor yog‘ib qolgan dilijon hovlining o‘rtasida qo‘qqayib turar, na ot bor edi va na aravakash. Aravakashni saroydan, otxona, somonxononalardan behuda izlandi. Keyin erkaklar u yoq-bu yoqni aylanib kelgani ko‘chaga chiqishdi. Ular bir boshida butxona, ikki tomonida esa qator yapasqi uylar bor bir maydonga chiqishdi. Bu pasqam uylarda prussaklar ko‘rinib turardi. Ular dastlab ko‘rgan soldat kartoshka archayotgan edi. Undan nariroqda yana bittasi sartaroshxonani yuvayotgandi. Paxmoqsoqol yana bir soldat yig‘layotgan o‘g‘il bolani o‘par va uni tizzasiga o‘tqazib, tebratib, ovutayotgandi; erlari „urushayotgan qo‘shin“ safida bo‘lgan semiz dehqon xotinlar o‘zlarining qobil g‘oliblari qiladigan ishlarni imo-ishora bilan ko‘rsatib: o‘tin yor, sho‘rvaga don sol, qahva maydala deb turishardi, soldatlardan biri hatto o‘zining keksa va bedarmon bekasining kirini yuvmoqda edi.

Hayron bo‘lgan graf, pop uyidan chiqib kelayotgan bir ruhoniyan gap so‘ragan edi, butxonani, kemirib yotgan bu keksa kalamush shundoq javob qildi:

– Yo‘q, bular yomon emas, bular prussak emasmish. Bular uzoqroqdan emish, faqat qayerdanligini bilmayman, ularning ham o‘z vatanida bola-chaqalari bor ekan, bular ermakka urushib yurishgani yo‘q-ku! Ehtimol, bularning ham bola-chaqalari yig‘lashayotgandir, bu ortiqcha tashvish keltirgan u yerdagи muhtojlik ham biznikidan qolishmas. Bulardan zorlanishga o‘rin ham yo‘q, chunki ziyonlari tegayotgani yo‘q, xuddi o‘z uylaridagidek ishslashmoqda. Nima demagin, afandim, beva-bechoralar bir-biriga yordam qilishi kerak... axir urushni boylar boshlaydi-da, – dedi.

G‘oliblar bilan mag‘lublar o‘rtasida o‘rnashgan samimiy ahillikni ko‘rib Kornyude g‘azablandi va borib mayxonada o‘tirganim yaxshiroq, deb ketdi. Luazo hazillashib:

– Ular bola-chaqanining ko‘payishiga yordam qilishi-da, – deb qo‘ydi.

Karre-Lamadon janoblari jiddiy qilib:

– Urushga ketganlarning yo‘qligini bilintirmay turisha-di-ku, – dedi.

Aravakash hadeganda kelavermadı. Nihoyat, uni ofitser denshigi bilan qishloq mayxonasida ulfatchilik qilib o‘tirgan joyidan topib kelishdi. Graf undan:

– Soat sakkizda arava tayyor bo‘lsin, deyilmaganmidi sizga? – deb so‘radi.

– Aytigal edi-yu, keyin boshqa buyruq berishdi.

– Qanaqa?

– Qo‘shmang, deyishdi.

– Kim berdi bunaqa buyruqni?

– Kim bo‘lardi? Pruss komendanti.

– Nega?

– Men qayqdan bilay? O‘zidan so‘rang. Qo‘shma degandan keyin, qo‘shmadim.

– O‘zi aytdimi?

– Yo‘q, afandim, uning nomidan saroybon aytdi.

– Qachon?

– Kecha kechqurun, yotmasdan oldin.

Yo‘lovchilarning uchalasi ham juda g‘azablanib qaytishdi.

Folanvi janoblarini chaqirtirishga qaror qilishdi, lekin xizmatchi xotin: „xo‘jayin ko‘ksov kasaliga mubtalo bo‘lgani uchun hech qachon soat o‘ndan oldin o‘rnidan turmaydi, uyg‘otishni qat’iyan man qilgan“, – dedi.

Ofitserning o‘ziga uchrashmoqchi bo‘lishgan edi, garchi u shu saroyda turgan bo‘lsa ham, mutlaqo iloji yo‘q ekan, grajdnlarning ishi to‘g‘risida Folanvi janoblarigina u bilan so‘zlashishga haqli ekan. Sabr qilishga qaror berishdi. Xo-

tinlar uy-uylariga tarqalishib, ikir-chikir ishlar bilan band bo‘lishdi.

Kornyude lovullab olov yonib turgan baland o‘choqning peshayvoni tagiga o‘rnashib oldi. Bu yerga mayxona zalidan stolcha va bir shisha pivo keltirib qo‘yishlarini buyurdi va demokratlar o‘rtasida o‘zi bilan barobar obro‘ga ega bo‘lgan mundshtugini oldi. Mundshuk Kornyudega xizmat qilarkan, go‘yo vatanga xizmat qilar edi. Mundshukning o‘zi ham il-dizdan yasalgan, juda ajoyib, yaxshilab islansa, xuddi ega-sining tishlaridek qop-qora, lekin yaltiroq, xushbo‘y, egasi ning qo‘liga yarashadigan va uning siymosini kam-ko‘stsiz qilib ko‘rsatadigan, egilgan mundshuk edi. Kornyude ko‘zini dam alangaga, dam pivo qadahining labida hoshiya singari turgan ko‘pikka tikib jim o‘tirar, har qultumdan keyin uzun-uzun qotma barmoqlari bilan yog‘ bosgan o‘siq sochi ni huzur qilib tarar va mo‘ylovida qolgan ko‘pikni yalardi.

Luazo uvishgan oyog‘ini yozib kelish bahonasi bilan o‘sha yerli chakana savdogarlardan vinosiga xaridor izlab ketdi. Graf bilan fabrikant siyosatdan so‘z boshlashdi. Ular fransiyaning kelajagiga nazar tashlab, biri Orlean avlodidan, biri esa butunlay umid uzish kerak bo‘lganda paydo bo‘ladigan noma’lum xaloskor qahramondan: birorta dyu Geklen, Janna d‘arkdanmi, – ajab emas-da? Yoki yana yangi Napoleon I chiqib qolishidan umid qilardi. Oh, agar valiahd yosh bo‘Imaganida-ku! Ularning gapini eshitib o‘tirgan Kornyude taqdir sirlaridan xabardor odamdek kulimsirab o‘tirardi. Uning mundshtugi butun oshxonaga xushbo‘y hid taratib turardi.

Soat o‘n bo‘lganda Folanvi janoblari kirib keldi. Hamma uni o‘rab olib savol bera boshladi. Lekin u hech o‘zgartir may-netmay ikki-uch marta qaytarib:

– Ofitser menga: „Folanvi afandi! Kucherga buyuring, bu yo‘lovchilarga dilijon qo‘shmasin. To mening alohi-

da ruxsatim bo‘lmaquncha jo‘nab ketishlarini istamayman. Tushundingizmi? Bo‘lgan gap shu“ degan edi, – dedi.

Shundan keyin ofitserning o‘zi bilan uchrashmoqchi bo‘lishdi. Graf unga o‘zining vizit kartochkasini yubordi. Uning ostiga butun unvonlarini yozib Karre-Lamadon ja noblari ham qo‘lini qo‘ydi. Prussak ularni nonushtadan keyin, demak soat birlarda qabul qilaman, depti.

Xotinlar ham yig‘ilishdi. Tashvishlanishlariga qaramay, hamma yo‘lovchilar nonushta qilgan bo‘lishdi. Do‘ndiq tobi ochgandek va ancha diqqat ko‘rinardi.

Kofe ichib bo‘lingan paytda graf bilan fabrikantni den-shik chaqirib qoldi.

Luazo ham ularga qo‘sildi, uchrashuv tantanaliroq bo‘lsin uchun Kornyudeni ham taklif qilib ko‘rishdi. Lekin u gerdaiyib turib, nemislar bilan hech qanday munosabatda bo‘lmoqchi emasligini aytdi va bir shisha vino olib, yana o‘choq yoniga o‘tirib oldi.

Uch erkak ikkinchi qavatga chiqishdi va ularni saroyning eng yaxshi uyi bo‘lmish bir xonaga olib kirildi. Nemis, qochib ketgan, didi o‘zgacha bo‘lman, birorta boyning uyidan shubhasiz o‘g‘irlab olingen qirmizi kiyimga o‘ralib, og‘zida uzun chinni trubka, oyoqlarini kaminga tirab, yumshoq kursida yonboshlagan holda ularni qabul qildi, o‘rnidan turmadi, salom bermadi, ularga qaramadi ham. Bu g‘olib prussakka xos bezbetlikning g‘aroyib nusxasi edi.

Nihoyat, birozdan keyin u:

– Nima demoqchisiz? – dedi.

Graf gap boshlab:

– Jo‘nasak degan edik afandim, – dedi.

– Yo‘q.

– Sababini bilishga haddimiz sig‘armikan?

– Men xohlamayman.

– Endi, beodobchilik bo‘lsa ham aytishga to‘g‘ri keladi, afandim, D‘eppgacha borishga komendantingiz o‘zлari ruxsat

bergan edilar. Yana, menimcha, sizning tomoningizdan bunday qattiq chora ko‘rilguday biror ish qilganimiz ham yo‘q.

– Men xohlamayman... bo‘lgani shu... boringlar.

Uchchovi ham ta’zim qilib chiqishdi.

Kechki payt dilsiyohlik bilan o‘tdi. Nemisning nega bunday injiqlik qilayotganiga tushunib bo‘lmasdi: har birining boshiga bo‘lmaq‘ur xayollar kelardi. Hammalari oshxonada o‘tirib, har xil bo‘lmagan taxminlar qilib, hadeb ahvolni muzokara qilishardi. Ehtimol, ularni garov tariqasida olib qolishmoqchidir? Ammo nima maqsad bilan? Yo asir qatorri olib ketishmoqchidir? Yoki ularni qo‘yib yuborish uchun katta pul talab qilmoqchimi? Shularni o‘ylaganda ularni dahshat bosdi. Eng boylarining ko‘proq o‘takasi yorilayozdi, endi ular o‘z hayotlarini saqlab qolish uchun bu behayo soldatning qo‘liga qoplab tilla to‘kishlarini ko‘z oldilariga keltira boshladilar. Ular biron ta yolg‘on gap to‘qib, o‘z boyliklarini yashirish va o‘zlarini kambag‘al, juda kambag‘al qilib ko‘rsatish yo‘lini izlab qoldilar. Luazo ko‘kragidagi soat zanjirini olib, cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Qorong‘i tushgan sari ularni battar dahshat bosardi. Chiroq yoqishdi. Ovqat mahaligacha yana ikki soat vaqt bo‘lganidan Luazo xonim „o‘ttiz bir “ o‘yinini taklif qildi – hech bo‘lmasa odamlarни biroz ovutadi-ku. Taklifni qabul qilishdi. Hatto Kornyude ham odob yuzasidan munshtugini o‘chirib, o‘yinda ishtirok etdi.

Graf kartalarni chiyladi va ularshdi. Birinchi o‘yindayoq o‘ttiz bir ochkonni Do‘ndiq oldi, o‘yinga qiziqish hammaning xayolini buzib turgan vahimaning tezda damini oldi. Kornyude hatto er-xotin Luazolar imlashib hiyla ishlata boshlaganini ham payqadi.

Ovqat yegani o‘tirishganlarida yana Folanvi janoblari kirib keldi va hirillab:

– Pruss ofitseri, Elizabet Russedan so‘rang, hali ham o‘sha so‘zida turiptimikin, deyapti, – dedi.

Do‘ndiq birdaniga bo‘zarib, turgan joyida qotib qoldi, keyin, to‘satdan qizarib ketdi-da, g‘azabiga chidolmay shunday bo‘g‘ildiki, tili tutilib qoldi, nihoyat, so‘z qotdi:

– O‘sha hayvonga, o‘sha iflosga, o‘sha ablah prussga aytingki, o‘sha so‘zim – so‘z, eshitdingizmi, qaytmayman, qaytmayman, qaytmayman, – dedi.

Semiz saroybon chiqib ketdi. Shunda hamma Do‘ndiqni o‘rab olib ofitser bilan uchrashganida o‘tgan sirni aytib berishini o‘tinib so‘ray boshladi. Boshda u ko‘nmadi, keyin alamiga chidolmay:

– Nima dedi? Nima derdi! Men bilan bir kecha yotasan deyapti! – deb qichqirib yubordi.

Hammaning fe‘li shunchalik aynib ketdiki, hatto bu so‘zlardan hech kim xijolat ham bo‘lmadi. Kornyude stakan ni jahl bilan stolga urgan edi, stakan sinib ketdi. Bu ablah soldatga qarshi hamma baravar norozilik bildira boshladi. Do‘ndiqning haqorat qilinishi go‘yo bularga ham tegadigan day, hammasi alami kelib, bir bo‘lib qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘lishdi. Graf nafrat bilan bular o‘zlarini qadimgi vahshiylarday tutishayapti, dedi. Xususan, xotinlar Do‘ndiqqa qizg‘in va muloyim xayrixohlik izhor qilishdi. Ovqat yegani uylaridan endi chiqib kelayotgan monax xotinlar boshlarini quyi solishganicha indamasdan o‘tirishdi.

Jahldan tushganlardan keyin, ovqat yegani o‘tirishdi, lekin gaplar qovushmas: hamma xayol surardi.

Xotinlar vaqtli uy-uylariga tarqalishdi, erkaklar bo‘lsa papiros chekkani qolib, karta o‘yini boshlandi. Folanvi janoblaridan qandoq qilib ofitserni yo‘lga solishni so‘rab olish umidida uni ham o‘yinga taklif qilishdi. Lekin saroyvonning qulog‘iga gap kirmas, u kartanigina o‘ylar, javob ham qaytarmas:

– O‘ynaylik afandilar, o‘ynaylik! – der edi, xolos.

O‘yinga juda berilib ketganidan tupurishni ham unutib qo‘yib, ko‘kragidan xuddi nag‘maning yo‘g‘on tovushiga

o‘xshash cho‘ziq xirillash eshitila boshladi. Uning xirillab turadigan o‘pkasi ko‘ksovning butun baland va yo‘g‘on ovozidan tortib, chaqirishni mashq qilayotgan jo‘jaxo‘rozning ovozigacha bo‘lgan hamma tovushlarni chiqarib turardi.

Hatto, horib, zo‘rg‘a kelgan xotini yotgin deb chaqirib kelsa ham bormadi. Eri yarim kechagacha yurishni, o‘rtoqlari bilan tong otguncha ham o‘tirishni yaxshi ko‘rgani uchun saharzez xotini o‘zi ketaverdi. U xotinining orqasidan: „gogol-mogol ni pechkaga qo‘yib qo‘y“ deb qichqirdi-da, yana o‘ynayverdi. Yo‘lovchilar undan biron gap olishning iloji yo‘qligiga ko‘zlar yetgach, uplash kerak degan qarorga kelishdi va uy-uylariga tarqalishdi.

Bugun ham shu jirkanch saroyda qolamizmi degan fikr dan cho‘chigan yo‘lovchilar avvalgidan ham ko‘proq ketgilari kelib, zora jo‘nasak degan umid bilan ertasiga yana barvaqt turishdi.

Hayhotki, otlar hanuz otxonada, aravakashdan darak yo‘q edi. Qilar ishlari bo‘lmaganidan hammalari arava atrofida aylanib yurishdi.

Nonushta tabixiralik bilan o‘tdi. Hammaning Do‘ndiq dan ko‘ngli sovugandek ko‘rinar, chunki tungi o‘ylar ta’siri bilan unga qarashlar ancha o‘zgargan edi. Tunda prussak bilan yashirinchha uchrashib, to hamrohlari uyqudan turguncha xushxabar topib qo‘ymagan qizdan hammaning ensasi qotayozgan edi. Axir shundan ham osoni bormidi?! Kim bilib o‘tiripti, deng? Odob yuzasidan ofitserga „xafa bo‘layotgan hamrohlarimga achinganimdan“ deb qo‘yaqolsa ham bo‘lardi. Bundaqa ishlar uning uchun pisand emas-ku!

Shunday bo‘lsa ham hali hech kim bu fikrni ochiq ayta olmasdi.

Tushga borib hamma zerikib, xunob bo‘lib ketgandan keyin, graf atrofni aylanib tomosha qilib kelishni taklif etdi. Olov yonida o‘tirishni afzal ko‘rgan Kornyude va kun bo‘yi yo butxonada yo kyure huzurida kun o‘tkazayotgan monax

xotinlardan boshqa hamma yaxshilab o‘ralib-chirmalib yo‘lga tushdi.

Kundan kunga zo‘raya borgan sovuq qulqoq va burunlarni achitib olardi, oyoqlar qotib ketganidan har qadam bir azobga aylandi, dalaga chiqqanlarida uning bepoyon oppoq yalangligi shu qadar dahshatli, mash’um ko‘rindiki, birdan hammaning ruhini sovuq urganday bo‘lib yuragi uvishdi, ular izlariga qaytishdi. To‘rt xotin oldinda, uch erkak esa keyinda kelardi.

Ahvolni juda yaxshi bilib turgan Luazo to‘satdan:

– Bu „mochag‘ar“ni deb qachongacha shu pastqam joyda yotar ekanmiz-a, – dedi. Hamisha nazokatli graf:

– Xotin kishidan bunaqa malol keladigan ishni talab qilib bo‘lmaydi, bu narsa ixtiyoriy bo‘lishi kerak, – dedi.

– Karre-Lamadon janoblari, eshitishimga qaraganda agar fransuzlar D’epp orqali qarshi hujum boshlasalar ular prus-saklar bilan Toldan boshqa joyda to‘qnashmaydi, – dedi. Bu gap hamsuhbatlarining ichiga g‘ulg‘ula solib qo‘ydi.

– Piyoda qochib qolsak nima qilar ekan? – dedi Luazo.

Graf yelkasini qisib:

– Sizni qarang-a! – dedi. – Shu qorda-ya! Yana xotinlar bilan! Undan tashqari, darhol orqamizdan ot choptirib, bizni o‘n daqiqadayoq tutib, asir qatori soldatlar ixtiyoriga topshirishadi.

Bu to‘g‘ri gap edi. Hamma jim bo‘lib qoldi.

Xonimlar yasan-tusan haqida so‘zlashib borishardi, ammo qandaydir noqulaylik qovushishlariga xalaqit berayot-ganday edi.

To‘satdan ko‘chaning boshida bir ofitser ko‘rinib qoldi. Ufqqacha tutashib yotgan oppoq qorda mundir kiygan, arini eslatadigan novcha qomati ko‘zga chalinardi, u yaxshilab pardozlangan etigini loydan ehtiyot qilib, harbiylarga xos yurish bilan, oyoqlarini kerib-kerib qadam tashlardi.

Ofitser xonimlarga yetib kelib tenglashganida ularga salom berdi va erkaklarga nafrat bilan qarab qo‘ydi, chunki Luazo boshidan shapkasini olaman deb qo‘l cho‘zgan bo‘lsada, lekin olmadi. Qadrimizni ketkazib nima qilamiz deb boshqalar ham shapkalarini olmagan edilar.

Do‘ndiq qulog‘igacha qizarib ketdi. Erlik uch xotin, ofitser ularni o‘zi beandisha muomala qilayotgan axloqsiz qiz bilan uchratishdan o‘zlarini qattiq haqorat qilingandek his etishdi.

So‘z ofitser ustida, uning qomati, aft-basharasi to‘g‘risida ketdi. O‘z davrida ko‘p ofitserlarni ko‘rgan va qo‘lidan o‘tkazgan Xarre-Lamadon xonimning fikricha, uni binoyidek deyish mumkin edi. U ofitserning fransuz bo‘lmaniga hatto afsus qildi, agar fransuz bo‘lganda hamma xotinlarni shaydo qiladigan ajoyib gusar bo‘ldi, deb qo‘ydi.

Uyga qaytib kelgach, nima ish qilishlarini bilmay hatto arzimagan sabablar bilan bir-birlariga achchiq-tiziq so‘z ota boshlashdi. Ovqatni ham indamasdan, naridan beri yeb, bir amallab vaqt o‘tkazish uchun yotgani tarqalishdi.

Ertasiga yo‘lovchilar pastga tushganda hammasining chehrasida horg‘inlik, yuragida g‘azab bor edi. Xotinlarning esa Do‘ndiq bilan so‘zlashgilari kelmasdi.

Butxona jom urdi. Go‘dak cho‘qintirishdan xabar berdi. Do‘ndiqning bolasi bo‘lib, u Ivetoda, bir dehqon oilasida tarbiyalanardi. U bolasini yiliga bir martagina ko‘rar va uning to‘g‘risida hech qachon o‘ylamasdi, biroq cho‘qintirish uchun butxonaga keltirilgan go‘dak haqidagi o‘y bolasiga nisbatan uning ko‘nglida jo‘shqin mehr qo‘zg‘atdi, o‘sha marosimga borgisi keldi.

U ketishi bilanoq hamma yo‘lovchilar bir-biriga qarashdi, so‘ng surilib yaqinroq o‘tirishdi, chunki biror iloj qilish zarurligini anglashar edi. Birdan Luazo: Do‘ndiqning o‘zinigina olib qolib, boshqalarga javob berishni ofitserga taklif qilish kerak degan fikrni aytdi.

Folanvi janoblari bu topshiriqni bajarishni o‘z zimmasiga oldi. Lekin o‘sha ondayoq pastga qaytib tushdi; insonning tabiatini yaxshi biladigan nemis uni uydan haydab chiqardi. U, to istagini qondirguncha ularning hammasini ushlab turmoqchi edi.

Shunda dag‘al tabiatli Luazo xonim ko‘nglidagi bor gapni to‘kib soldi:

– Axir, qarigunimizcha shu yerda o‘tiraveramizmi! Bu rasvo hamonki shu kasbni qilar ekan, buning ustiga hamma erkaklar bilan qilaverar ekan, nega unga yo‘q, deydi? Qarang-a? Ruanda-ku yurmagan odami qolmadi, hatto aravakashlar bilan ham yurdi! Rost aytyapman, xonim, prefekturining aravakashi bilan ham! Men yaxshi bilaman, – u vino ni bizdan sotib olardi. Bizlarni mushkul ahvoldan qutqarish kerak bo‘lgan bir paytda esa bu g‘ar o‘zini oppoq qilib ko‘rsatyapti!.. Menimcha, ofitser hali ham insof qilyapti. Balki u ko‘pdan beri yolg‘izdir, albatta, uchchalamizdan birimizni talab qilishi ham mumkin edi-ku. Ammo u, har qalay buzuq xotinga qo‘l uzatyapti. Erlik xotinlarni izzat qilyapti. O‘ylab ko‘ring, axir, u bu yerda xo‘jayin-a. Bir og‘iz: „Xohlayman“ desa tamom-da, – soldatlar orqali bizni majbur qiladi qo‘yadi.

Xotinlarning eti jimirlashib ketdi. Nozanin Karre-Lamadon xonimning ko‘zлари chaqnab, ofitser xuddi hozir zo‘rlab qo‘l uzatayotganday, rangi o‘chdi.

Nariroqda muzokara qilishayotgan erkaklar xotinlarning yoniga kelishdi. Tutaqib ketgan Luazo, „shu rasvon“ qo‘l-oyog‘ini chambarchas bog‘lab, dushmanaga tutib berishga tayyor edi. Uch elchi naslining urug‘idan va o‘zi ham diplomatlarga o‘xshagan graf esa, ustalik bilan ish ko‘rish tarafdoi edi.

– Bir balo qilib uning e’tiqodini o‘zgartirish kerak – dedi u.

Shundan so‘ng til biriktirib, fitna rejasi tuzildi.

Xotinlar surilishib yaqinroq o'tirishdi, tovushlar pasaydi, suhbatga hamma aralashib, har kim o'z fikrini ayta boshladi. Shunisi borki, gaplar juda pardalik edi. Ayniqsa xonimlar kurakda turmaydigan fikrlarni aytish uchun gapni ajoyib aylantirib, odob doirasidan chetga chiqmaydigan ifodalarni ishlatishardi. So'zlar shunchalik chertib-chertib aytildik, begona kishi hech narsa tushuna olmas edi. Kibor xotinlar o'ralib olgan ma'sumlik pardasi ularni shunchaki yuzaki ma'sum qilib ko'rsatadi, haqiqatda esa hammasi ham bu odob doirasidan yiroq voqeadan zavqlanar va o'zlarini o'z muhitlarida his etgan holda yayrab, birovga juda lazzatli luqma tayyorlayotgan usta oshpaz singari, sevgiga bog'liq bu savdoni shavq-zavq bilan muhokama qilishardi.

O'z-o'zidan hammaning kayfi chog' bo'ldi, axir o'zi ham juda qiziq voqeada, Graf xiyla qaltis hazillar qilar, lekin shunchalik nozik hazillar qilardiki, hammaning yuzida tabassum paydo bo'lardi. Luazo ham bir necha marta undan o'tkazib askiya qildi. Bundan ham hech kim uyalmadi, uning xotini tomonidan qo'pol qilib aytilgan „hamonki bu rasvoning kasbi shu ekan, birovga ha, birovga yo'q, degani nimasi?“ degan gaplari hammaning ko'nglida turgandi. Jajjigina Karre-Lamadon xonim hatto men Do'ndiqning o'mnida bo'lsam shu ofitserga yo'q degandan ko'ra boshqa birovga yo'q derdim, deb o'layotganga o'xshardi.

So'z go'yo biron qal'a ustida ketayotganday, fitnachilar qamal rejasini uzoq muhokama qilishdi. Qanday dalillar keltirish va qanday yo'llar tutish zarurligi haqida kelishib, har biri ma'lum bir vazifani o'z zimmasiga oldi. Bu jonlik qal'ani dushmanga taslim qilib beradigan hujumlar, hiylanayranglar, to'satdan qilinadigan hamlalar rejsi tuzildi. Yolg'iz Kornyude avvalicha chetda o'tirdi bu ishga aralashmadi.

Bu mashg'ulotga shu qadar berilib ketganliklaridan, Do'ndiqning kirib kelganini ham hech kim sezmay qoldi.

Lekin, graf: „tss“! – deb shivirlagan edi, hamma qaradi. Do‘ndiq ularning oldida turardi. Hamma birdan jim bo‘ldi va biroz shoshib qolib, daf’atan unga so‘z qotishga hech kim jur’at etolmadi. Mehmonxonalarda qilinadigan ikkiyuzlama-chilikka boshqalardan ko‘ra ustaroq bo‘lgan grafinya undan:

– Qalay, cho‘qintirish marosimi qiziq bo‘ldimi? – deb so‘radi.

Marosimdan ko‘ngli yumshab ketgan, ham o‘zini bosa olmagan Do‘ndiq hammasini: odamlarning chehrasini, turishlarini, hatto butxonaning o‘zini ham tasvirlab berdi va:

– Ba’zi-ba’zida ibodat qilish yaxshi bo‘ladi, – deb qo‘sib qo‘ydi.

Nonushtagacha xonimlar har xil gaplar bilan ishontirish va o‘zlariga rom qilish uchun juda ehtiyyot bo‘lib muomala qilishdi.

Lekin stulga o‘tirishlari bilan hujum boshlashdi. Boshlab fidokorlikdan gap ketdi. Qadim zamondagi Yudif va Olofer-nanni misol keltirib, hech gapdan hech gap yo‘q Lukretsiya bilan Sekstga o‘tishdi. Dushmanning barcha sarkardalarini iltifot yo‘li bilan qul qilib olgan Kleopatrani ham xotirlashdi. Bu nodon millionerlar Rim xotinlari haqida o‘zları to‘qigan va bu xotinlar Gannibal va u bilan birga uning askarboshilari va yollangan odamlariga iltifot ko‘rsatgani Kapyu shahariga borishgan degan bo‘limg‘ur afsonalarni ham aytishdi. Keyin iffatini urush maydoniga, hukmronlik quroliga, istilochilar yo‘liga qo‘yilgan g‘ovga aylantirgan va qahramonona fidokorlik bilan bezotlarni yoki zolimlarni bo‘ysundirib, o‘zini intiqom va fidokorlik yo‘lida qurban qilgan barcha xotinlarni ham eslashdi.

Kibor oiladan bo‘lgan bir ingliz xotin Bonapartga yuqtirish uchun ataylab o‘ziga yaramas bir kasal yuqtirganini, mash’um uchrashuv chog‘ida bexosdan paydo bo‘lgan zaiflik orqasidagina Bonapartning qutulib qolganligi haqida ham dudmalroq qilib gapirildi.

Bu gaplarning hammasini ehtiyyotkorlik bilan, odob doirasida gapirildi. Do‘ndiqda ham shunday fidokorlikka havas tug‘dirish niyatida ora-sira yasama tahnin va ofarinlar aytishardi.

Bu gaplardan nihoyat xotinlar dunyoga faqat o‘z-o‘zini qurbon qilish-u soldatlarning bema’ni havaslariga bo‘ysunish uchun kelgan deb o‘ylash mumkin edi.

Monax ayollar og‘ir o‘yga tolganday ko‘rinar, hech narsani eshitmas, Do‘ndiq esa jim o‘tirardi.

O‘ylab ko‘rish uchun Do‘ndiqni bir kun ixtiyoriga qo‘yishdi. Endi uni ilgarigidek xonim deb atamay qo‘yishdi, garchi sababini hech kim aniq bilmasa ham, to‘g‘ridan to‘g‘ri „qizgina“ deb muomala qila boshlashdi. Bundan murod uni erishgan hurmatidan bir pog‘ona pastga tushirish va kasbidan kishi nomus qilishini o‘ziga anglatib qo‘yish bo‘lsa kerak.

Sho‘rva keltirilishi bilan Folanvi janoblari kirib yana kechagi gapni takrorladi:

— Pruss ofitseri „Elizabet Russedan so‘rang, hali ham o‘sha gapida turiptimi?“ deb so‘rayapti, — dedi.

Do‘ndiq quruqqina qilib:

— Ha, — dedi.

Biroq ovqat mahalida til biriktirganlar ittifoqi susaya bordi. Luazoning og‘zidan bir-ikkita chakki so‘z ham chiqib ketdi. Har biri zo‘r berib yangi misollar keltirishga harakat qilishar, lekin hech narsa topa olmas edi. Grafinya birdan, biror maqsad bilan emas, balki, dinni xiyol eslab qo‘yish uchunmi — monax ayollarning keksasidan avliyolar hayotida bo‘lib o‘tgan ibratli voqealardan aytib berishini so‘radi. Axir avliyolarning ko‘pi bizga qolsa gunoh deyiladigan ishlarni qilishgan, lekin agar o‘sha ish Xudo yo‘liga yoki yaqin kishining foydasi uchun qilingan bo‘lsa din tariqatlari uni kechirgan-ku. Bu juda kuchli dalil edi, grafinya bundan foydalandi. Shunda ruhoniylarning har biriga xos yo‘sinda inda-

may rozilik bildirganidanmi, yo o‘zini go‘llikka solganidanmi, jonining huzuri bo‘lgan betamizligidanmi keksa monax ayol ularning fitnasiga katta yordam qildi. Uni uyatchan deb o‘ylashgan edi. U o‘zining dadilligi, so‘zamolligi va cho‘rtkesarligini ko‘rsatdi. Zimdan ayyorlik bilan qilinadigan ishlardan hech xijolat chekmas, e‘tiqodi temir tayoqday, ishonchi og‘maydigan, vijdoni shak-shubhadan holi edi. U Avramning qurbaniga tabiiy bir narsa deb qarardi, chunki agar ko‘kdan amr kelsa o‘zi ham darhol ota-onasini o‘ldirishga tayyor edi, uning fikricha, agar niyat xolis bo‘lsa, hech ish tangrining qahrini keltirmas ekan. Grafinya kutilmagan yordamchining ruhoniylig obro‘yidan mumkin qadar ko‘proq foydalanish maqsadida „xolis niyatda har yo‘l bilan borilsa ham aybi yo‘q“ deyilgan haqiqat to‘g‘risida uni gapga soldi.

Grafinya unga savollar berardi:

- Shunday qilib, egachi, agar niyat xolis bo‘lsa tutgan yo‘lingiz-u qilgan ishlaringizning hammasini tangri kechiradi, deng?
- Bunga shak keltirib bo‘ladimi, xonim? Aksari malomat qilishga loyiq har ishlariki bor, niyat xolis bo‘lganidan tashsinga loyiq bo‘lib qolgan.

Ular shu tahlitda tangrining irodasi, uning xohishi, nima qilishini oldindan bilishga urinishib, Xudoga hech dahli bo‘lmagan ishlargacha unga yopishtirishib, gapirib o‘tirishdi.

Bu gaplarni ustalik bilan niqoblab, odob doirasida aytmoqda edi. Lekin monax kiyimi kiygan taqvodor qizning har bir so‘zi fo히shaning g‘azab bilan ko‘rsatayotgan qarshilik qalqonini tesha boshladi. Keyin so‘z biroz chetga burildi. Tasbih ushlagan ayol o‘z tariqati, monastirlari, o‘z piri to‘g‘risida va o‘zi avliyo Nikifor jamoatining sevimli hamshirasi bo‘lgan, yonidagi mushfiq ayol haqida so‘zlay ketdi. Bular Gavrga, chechak kasali avj olgan gospitalda yotgan soldatlarni boqishga chaqirtirilgan ekan. U chechak kasalini mufassal so‘zlab, kasal yotgan baxtsizlar haqida ham ga-

pirdi. Prussak tufayli yo‘ldan qolib bu yerda o‘tirishganida, ehtimol, bular joniga ora kirishi mumkin bo‘lgan qancha-yu qancha fransuz o‘lib ketar! Uning kasbi askarlarni davolash edi, u Qrimga, Italiyaga va Avstriyaga borgan, u o‘z safarlaridan gapirar ekan, o‘zini go‘yo faqat askar ketidan borishga, jang qizib turgan choqda yaradorlarni jang maydonidan olib chiqishga va bir og‘iz so‘z bilan o‘jar jangchini har qanday boshliqdan afzalroq bo‘ysundirishga qodir, epchil va jango var monax ayollardan qilib ko‘rsatdi. Bu haqiqiy shaddot hamshira edi. Uning benihoyat cho‘tir yuzi urush xarobalarini eslatardi.

Uning so‘zi kor qilganday tuyulib, undan keyin boshqa hech kim bir so‘z demadi.

Ovqat tamom bo‘lishi bilanoq hamma uy-uyiga tarqaldi va ertasiga ertalab ancha kech chiqdi.

Nonushta tinch o‘tdi. Kecha sepilgan urug‘lar unib chiqib, hosil berishini kutishmoqda edi.

Choshgoh paytida grafinya aylanib kelishni taklif qildi, shunda graf, oldindan kelishib qo‘ylgan maslahatga ko‘ra, Do‘ndiqni qo‘ltiqlab boshqalardan keyinroqda yurdi.

U, Do‘ndiqqa obro‘li erkaklar buzuq xotinlarga mensi-may qiladigan betakkalluf muomala qilib, o‘zining ijtimoiy tabaqasi darajasida turib, kekkaygan holda, uni „qizginam“ deb gap boshladi va to‘g‘ridan to‘g‘ri maqsadga o‘ta qoldi.

– Shunday qilib, bordi-yu pruss armiyasi yengilib qol-gundai bo‘lsa bizlarni ham, o‘zingizni ham xavf-xatarlar os-tida qoldirib, hayotingizda shuncha marta yo‘l qo‘yib kelgan ishingizga yana bir marta yo‘l qo‘ymaslik bilan bizni shu yerda tutib turmoqchimisiz? – dedi.

Do‘ndiq javob bermadi.

U Do‘ndiqqa shirin so‘zlar, dalillar va tuyg‘u bilan ta’sir etmoqda edi. U „graf“lik darajasida turgani holda xushmu-omala bo‘lib, yo‘ldan ozdiruvchi shirin so‘zlar aytib xushomad qila bildi. U Do‘ndiqning qo‘lidan keladigan xizmatni

ko‘klarga ko‘tardi, undan naqadar minnatdor bo‘lishlarini aytdi, keyin to‘satdan xushchaqchaqlik bilan sensirab:

– Bilsang, azizim, u vatanida kam topiladigan go‘zal qizning qo‘lini ushlagani uchun maqtansa ham arziydi-da, – dedi.

Do‘ndiq indamadi, boshqalarga yetib oldi.

Uyga kelganlaridan so‘ng Do‘ndiq darhol o‘z uyiga kиrib ketdi-yu, qaytib chiqmadi. Hammaning toqati toq bo‘ldi. U qanday qarorga kelar ekan? Agar qattiq turib olsa – ish xarob!

Ovqat vaqtি bo‘ldi, uni kutishlari behuda bo‘ldi. Niho-yat, Folanvi janoblari kirib kelib, Russe xonimning tobi qo-chib qoldi, ovqatni o‘zlarинг yeyaberishlaring mumkin, dedi. Hamma „nima gap bo‘ldi ekan?“ deb turardi.

– Ko‘ndimi? – deb so‘radi.

– Ha.

U, odob yuzasidan, hamrohlariga hech narsa demadi-yu, faqat xiyol bosh irg‘ab qo‘ydi. O‘sha on hamma yengil tor-tib „uf!“ dedi. Chehralar yorishdi.

– Tra-lya-lya-lya, agar shu yerda shampanskoy topilsa pulini o‘zim to‘layman, – dedi Luazo qichqirib.

Saroybon to‘rtta shisha ko‘tarib kirib kelganda Luazo xo-nimning yuragi uvishib ketdi. Hamma ochilib, shovqin-suron soldi. Yuraklarga quvonch sig‘mas edi. Karre-Lamadon xo-nimning nozaninligini graf endi payqaganday bo‘ldi, fabrikant grafinyaga iltifot qila boshladi. Suhbat qizib, jonlanib, askiya avj oldi.

Luazo to‘satdan cho‘chib ketganday, chehrasi o‘zgardi va qo‘llarini ko‘tarib:

– Jim! – dedi.

Hamma hayron bo‘lib, hatto qo‘rqib, jim bo‘ldi. Luazo qulqoq soldi, qo‘llari bilan „jim turinglar“ deb ishora qildi, shiftga qarab yana tinglab turdi-da, o‘zining odatdagи tovushi bilan:

– Xotirjamlik, hech gap yo‘q, – dedi.

Gap nima ustidaligini hech kim bildirgisi kelmasa ham hammaning yuzidan tabassum kechdi.

Chorak soatlardan so‘ng Luazo yana haligi hazilini qildi va uni butun kech bo‘yi bir necha marta takrorladi, u shiftga qarab, gumashtalik vaqtida o‘rgangan askiyalarini ishlatib, ikkinchi qavatdagagi kimgadir qochiriq qilib, kinoyaomuz so‘zlar aytardi. Ba’zan dili ozor tortgan odamday xo‘rsinib: „Sho‘rlik qiz!“ der, yoki g‘azab bilan tishini g‘ijirlatib: „oh, ablah, prussak“ deb qo‘yardi. Bu ish hammaning esidan chiqqanday bo‘lganda u bir necha bor shiftga qarab titroq ovoz bilan: „bas!“, „bas!“ deb qichqirardi va o‘zicha:

– Ishqilib yana ko‘raylik-da, ablahning qo‘lidan esomon qutulsin-da! – deb qo‘yardi.

Hazillar juda yaramas bo‘lganiga qaramay, hammani qiziqtirar va hech kimni koyitmasdi, chunki g‘azablanish ham barcha boshqa narsalar singari sharoitga bog‘liq, bu yerda hozir asta-sekin juda aynima kayfiyat tug‘ilgan edi.

Ichkilik vaqtida xotinlarning o‘zлари ham ancha-muncha o‘ynoqi hazillar qila boshlashdi. Hammaning ko‘zлари suzilgan, ko‘p ichilgan edi. Hatto odob doirasidan chetga chiqqa boshlaganda ham ulug‘vorligini yo‘qotmaydigan graf ularning holini qutbda qishlashdan qutulganlarga, kayfiyatini esa, halokatga uchragan kemadagi odamlarning nihoyat janubga yo‘l ochilganini ko‘rib shodlanishiga o‘xshatdi, uning so‘zлари hammaga ma‘qul bo‘ldi.

Juda ochilib ketgan Luazo qadah ko‘tarib o‘rnidan turdi:

– Xalos bo‘lishimizga, ichamiz! – dedi.

Hamma o‘rnidan turib, uning so‘zларини qaytardi. Xonimlarning qistovi bilan, hatto monax xotinlar ham bir umr og‘izlariga olmagan ko‘piklik vinodan totib ko‘rishga rozi bo‘lishdi. Ular bu vino limonadga o‘xsharkan-u faqat undan shirinroq ekan, deyishdi.

Luazo bu gaplarga yakun yasab:

– Fortepiano bo‘lmadi-da, kadrilga o‘ynab tashlardik! – dedi.

Kornyude biron og‘iz so‘z aytmadi, biron harakat ham qilmadi, u g‘amgin xayollarga cho‘mgan holda uzun soqolini undan ham uzaytirmoqchi bo‘layotganday onda-sonda tortib qo‘yardi. Nihoyat, yarim kechaga borib tarqala boshlaganlariда, oyoq ustida zo‘rg‘a turgan Luazo bexosdan Kornyude ning qorniga bir urib qaldirab qolgan tili bilan:

– Nega bugun mashqingiz past ko‘rinadi? Nega indamay o‘tiribsiz, grajdanin? – dedi.

Kornyude shiddat bilan boshini ko‘tardi, ko‘zlarida o‘t chaqnab turgani holda, dahshatli nazar bilan hammaga bir qur qarab olgach:

– Bilsangiz, hammangiz ham ablalilik qildingiz! – dedi.

U o‘rnidan turib eshik yoniga bordi, yana bir qayta „ha, ablalilik!“ dedi-da, chiqib ketdi.

Avvaliga hamma xijolat bo‘ldi. Shoshib qolgan Luazo angrayib turardi, keyin o‘zining xudbin holiga qaytdi va to‘satdan:

– Uzum g‘o‘r, birodar, g‘o‘r! – deya, qahqah urib kului. Bu gapga hech kim tushunmaganligidan u „yo‘lak sirlari ni“ gapirib berdi. Qattiq kulgi ko‘tarildi. Xonimlar xaxolab to‘polon qilishdi. Graf bilan Karre-Lamadon janoblari qotib-qotib kulishdi, ularga bu, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan ishdek tuyuldi.

– Rostdan-a? Shunday qildimi-a?

– Aytyapman-ku, o‘zim ko‘rdim.

– U unamadimi?..

– Qo‘shni uyda prussak bor edi-da.

– Bo‘lmagan gap!

– Azbaroyi Xudo!

Graf kulgidan entikardi. Fabrikant ikki qo‘li bilan qorni ni ushlab qoldi. Luazo gapida davom etdi:

– Albatta bugun uning yuragiga kulgi sig‘maydi-da. Uch-

chalasi yana ichagi uzilguncha, ko‘zlaridan yosh chiqquncha qotib-qotib kulishdi.

Shundan keyin tarqalishdi. Biroq ichi qora Luazo xonim o‘ringa yotar chog‘ida eriga: „Karre-Lamadonning zahar xotini bugun oqshom o‘lganining kunidan kulib o‘tirdi“, dedi.

– Bilasanmi, agar xotin kishi mundirni ko‘rganda es-hushidan ayriladigan bo‘lsa, uning uchun baribir: fransuz kiyganmi, prussak kiyganmi!.. Maxluq-da! O‘zing kechir, Tangrim!

Tong otguncha qorong‘i yo‘lakda zaif shildirashlar, shar-palar, xo‘rsinshlar, yalangoyoq qo‘yilgan yengil odim to-vushlari, qulqoq ilg‘ar-ilg‘amas g‘ichir-g‘ichirlar eshitilib tur-di. Saroyga tushganlar shubhasiz, juda kech uyquga ketishdi, chunki eshiklar tagidan anchagacha nozik shu’la tushib tur-di. Shampanskoy ichgandan keyin ba’zan shunday bo‘ladi, u uyquni behalovat qiladi, deyishadi.

Ertasiga qish quyoshining nuri ostida ko‘zlarni qamash-tirib, qor yaltirib yotardi. Otlar qo‘shilgan dilijon darvoza oldida kutmoqda edi. Pushtirang ko‘zlarida qorachig‘i nuq-taga o‘xshab turgan, patlari hurpaygan bir gala oq kaptarlar olti ot oyog‘i tagida viqor bilan yurib, bug‘ chiqib turgan go‘ngni titib, don axtarishmoqda edi.

Po‘stiniga o‘ralib olgan kucher aravaning oldida o‘tirib munshtugini chekar, chiroyi ochilgan yo‘lovchilar yo‘lga ol-gan ovqatlarini shoshib-pishib aravaga ortishmoqda edi.

Do‘ndiqnigina kutib turishgandi. Nihoyat, u ham ko‘-rindi.

U hayajon va xijolat ichida tortinibgina hamrohlarining yoniga bordi. Lekin ular, go‘yo uning kelganini payqama-ganday baravar teskari o‘girilib olishdi. Graf obro‘ saqlab, iflos tegmasin deganday qilib, xotinining qo‘ltig‘idan olib, chetroqqa tortdi.

Do‘ndiq hayron bo‘lib to‘xtab qoldi, keyin o‘zini o‘ng-lab olib, fabrikantning xotini yoniga bordi va bo‘ynini qisib:

– Esonmisiz, xonim, – dedi.

U tahqirlangan odam singari asta nazar tashladi va takabburlik bilan xiyol bosh irg‘ab qo‘ydi. Hammasi o‘zini biron ish bilan qattiq banddek ko‘rsatar va go‘yo Do‘ndiq etagiga iflos bir narsa ilashtirib kelganday undan mumkin qadar qochishardi. Keyin hamma dilijonga chiqqa boshladi. Do‘ndiq esa eng keyin chiqdi va indamasdan avvalgi joyiga borib o‘tirdi.

Go‘yo uni endi tanimayotganday va payqamayotganday ko‘rinishardi, Luazo xonimgina unga uzoqdan g‘azab bilan bir qarab qo‘ygach, eriga shivirlab:

– Undan uzoqda o‘tirishim qanday baxt-a, – dedi.

Og‘ir arava qo‘zg‘aldi. Yana safar boshlandi.

Boshda hamma indamay o‘tirdi. Do‘ndiq bosh ko‘tara olmas edi. Uning ham yonida o‘tirganlarga g‘azabi kelar, ham o‘zini prussakning quchog‘iga itargan shu munofiq kishilarning gapiga kirib unga bo‘sса berish bilan tubanlashgandek his qilardi.

Lekin tezda grafinya, Karre-Lamadon xonimga qarab qilgan muomalasi bilan hammaga malol kelayotgan sukutni buzdi:

– Siz, d’Etrel xonim bilan tanish bo‘lsangiz kerak?

– Ha, o‘rtoqmiz.

– Juda go‘zal xotin-a!

– Ajoyib dilbar-da! Chindan ham nodir zot-da, buning ustiga o‘qimishli, tabiatan nafosat egasi, juda yaxshi ashula aytadi va juda ajoyib rasmlar chizadi.

Fabrikant graf bilan suhbatlashardi. Dilijon derazalaring shaqir-shuquqi orasida ba’zan: „kupon – to‘lash – daromad – muddatida“ degan so‘zlar eshitilardi.

Toza artilmagan stolda besh yildan beri o‘ynalaverib moy bosib ketgan eski kartani mehmonxonadan o‘g‘irlab olgan Luazo xotini bilan Bezik o‘yinini boshladi.

Monax ayollar bellarida osilib turgan uzun tasbihlarini qo‘lga olishdi, baravar cho‘qinishdi va birdan lablari chaqqon qimirlab, go‘yo kim tez aytishga musobaqa qila-yotganday, anglab bo‘lmaydigan duoni tez-tez o‘qiy boshlashdi: dam-badam sanamni o‘pib, yana cho‘qinishar, yana shoshib uzuksiz pichirlashardi.

Kornyude xayolga botib, qimirlamay o‘tirardi.

Uch soat yo‘l bosganlaridan keyin Luazo kartalarni yig‘ishtirib:

– Ovqatlanib olsak chakki bo‘lmas, – dedi.

Shunda xotini kanop bilan bog‘langan tugunni yechib, uning ichidan bir bo‘lak yaxna go‘sht oldi, yaxshilab yaproqlab to‘g‘radi va er-xotin yeza boshlashdi.

– Biz ham boshlaymizmi? – deb so‘radi grafinya.

Eri xo‘p degandan keyin ikki kishiga atab olingan ovqatni ochdi. Ichida quyon go‘shti borligiga ishora qilib, qopqog‘iga quyon surati solingan cho‘zinchoq chinni idishdan ovqat: boshqa xil go‘shtlardan qilingan, qiymlar qo‘shilgan jigar-rang parranda go‘shti ustida uzun-uzun bo‘lib yog‘i qotib qolgan, suvi qochirilmay hozirlangan yaxna edi. O‘rog‘lik gazetadan ochib olingan, yog‘i yuziga tepib, yaltirab turgan yaxshi pishloq ustida „hodisa“ degan yozuv ko‘zga ko‘ri-nardi.

Monax ayollar sarimsoq hidi kelib turgan butun bir kolbasani olishdi. Kornyude esa qo‘llarini keng paltosining chuqur cho‘ntaklariga baravar tiqib, bittasidan to‘rtta pishgan tuxum, boshqasidan bo‘lka nonning qirg‘og‘ini oldi. Utuxumni archib, po‘chog‘ini oyog‘i tagidagi poxolga tashladi va yeza boshladidi. Tuxumning sarig‘idan to‘kilgan och sa-riq ushoqlar uning uzun soqolida yulduzga o‘xshab turardi.

Do‘ndiq ertalab turganida shoshib qolganidan hech narsa ololmagandi. Endi bemalol kavshayotgan bu odamlarga qarab, alam qilib bo‘g‘ila boshladidi. Boshda juda tutoqib ketdi,

achchiq ustida og‘ziga kelganini to‘kib solmoqchi bo‘ldi, lekin g‘azabi bo‘g‘ziga tiqilib gapira olmadi.

Hech kim unga qaramas, hech kim uning to‘g‘risida o‘ylamas edi. Nazarida, uni qurbon qilib, keyin keraksiz iflos latta singari uloqtirib tashlagan bu halol muttahamlarning nafrati savalab borayotganday edi. Shunda haligilar ochko‘zlik bilan yeb bitirgan turli-tuman mazali ovqatlarga liq to‘la savati, ikkita jo‘jas, somsalari, noklari va to‘rt shisha bordo vinosi yodiga tushdi. U tarang qilib tortilib, so‘ng uzilib ketgan torday, to‘satdan jahlidan tushdi, xo‘rligi kelib yig‘lab yuboray dedi. Yosh bolalardek yoshini yutib, o‘zini bosib olishga urindi, lekin kipriklarida to‘lib-toshib yosh yaltiradi, tezda ikki tomchisi yuzlaridan asta yumalab tushdi, uning ketidan boshqalari xuddi tik jardan oqib tushayotgan suv tomchilari singari ko‘tarilib turgan ko‘kragiga tusha boshladi. Do‘ndiq o‘ziga hech kim e‘tibor qilmasligiga ishongani holda harakatsiz, rangi o‘chgan, qomatini rostlab, bir nuqta ga tikilgancha o‘tirardi.

Lekin, grafinya uning ko‘zyoshlarini ko‘rib qoldi va ishora bilan eriga ko‘rsatdi. U „qanday qilay, menda nima ayb“ deganday yelkalarini qisib qo‘ydi. Luazo xonim asta bo‘lsa ham, lekin ajab bo‘ldi deganday kulib:

– O‘zining rasvoligiga yig‘layapti, – deb pichirladi.

Monax ayollar ortgan kolbasini qog‘ozga o‘rab qo‘yib, yana ibodat qila boshlashdi.

Shunda Kornyude yegan tuxumlarini hazm qilarkan, uzun oyoqlarini qarshisidagi skameyka tagiga tiqib, orqaga tashlandi, qo‘llarini qovushtirib, go‘yo g‘alati narsa o‘ylab topganday iljayib qo‘ydi va hushtak chalib „Marseleza“ni ayta boshladi.

Hammaning qovog‘i solindi. Bu xalq qo‘shig‘ini hamrohlar xushlamasa kerak. Ular asabiylashib, g‘azablanib, sharmana tovushini eshitayotgan it singari kulib yuborguday bo‘lishdi.

Kornyude buni sezib, hadeb hushtagini chalaverdi.

Hatto ba'zi-ba'zida:

*Vatan muhabbatı muqaddas!
O'ch olish amr etsin ruhingda,
Olib bor ey, aziz ozodlik,
O'z homiyalarıngni jangga!..*

degan so'zlarni ham qo'shib qo'yardi.

Endi arava tezroq yurmoqda, chunki qor bosilib qolgan edi. Uzundan uzoq, necha soatlik, o'nqir-cho'nqir ko'ngilsiz yo'l bo'yi benihoya taraqa-turuq ichida, shom qorong'usida, zulmat quchog'ida to D'eppga yetguncha u o'zining o'jarlik bilan, jon otib chalayotgan bir xildagi oluvchi hushtagini to'xtatmadi, charchagan, asabiylashgan yo'lovchilarni ashulaga qulq solib, ohangga mos keladigan so'zlarni xotirlashga va ularning har birini ohangga jo'r qilishga majbur etib borardi.

Do'ndiq hamon yig'lardi, goh-gohida qorong'ida, har ikki misra orasida uning o'zini tuta olmagan chog'idagi ho'ngir-ho'ngir yig'isi eshitilardi.

ASIRLAR

O'rmon jimjit, faqat daraxtlarga tushayotgan qorning asta shitirlashi eshitildi. Bu yengilgina quruq qor kunduzi yog'a boshlab, shox-butoqlarga muz momig'ini to'kib, o'tlarning xazon bo'lgan yaproqlariga kumush parda tashlab, yo'llarga katta, oppoq va yumshoq gilam yoyib, bu daraxt dengizining benihoya sukutini quyuqlashtirmoqda edi.

O'rmon qorovulxonasing ostonasi oldida yosh bir juvon yenglarini shimarib, bolta bilan o'tin yormoqda. Bu baland bo'yli qaddi-qomati kelishgan va baquvvat o'rmon qizi otasi o'rmonchi va o'zi o'rmonchining xotini edi.

– Bugun tunda yolg'iz yotamiz, Bertina, uyga kir, qorong'i tushib qoldi. Ehtimol o'rmonda prussaklar va bo'rilar izg'ib yurgandir, – degan tovush eshitildi uydan.

O‘rmonchining xotini qulochini kerib, qarsillatib o‘tin yorarkan:

– Bo‘ldim, ona. Hozir, hozir kiraman, qo‘rqma hali yorug‘-ku, – dedi.

Keyin u uyga o‘tin va bir bog‘ shox olib kirib o‘choq yoniga taxladi, yana eshikka chiqdi. Deraza qopqoqlarini, yaxlit dubdan yasalgan og‘ir qopqoqlarni yopdi va qaytib kirib eshikni tambalab qo‘ydi.

Bujmayib, keksayib, qo‘rqoq bo‘lib qolgan onasi olov yonida o‘tirib ip yigirmoqda edi.

– Dadangning uyda yo‘qligi yomon-da, – dedi kampir, ikkita xotinning qo‘lidan nima keladi?

– Ha, men-chi, bo‘rini yoki prussakni bir amallab otib tashlarman, axir! – deb javob berdi juvon va o‘choq boshida osig‘lik turgan katta to‘pponchaga ishora qildi.

Uning eri prussaklar hujum boshlagan vaqtlaridayoq askarlikka olingan va xotinlar esa Dilda laqabli Nikola Pishona degan keksa otasi bilan yolg‘iz qolishgan. U bo‘lsa uydan ketishga, shaharga ko‘chib tushishga asti ko‘nmayotgan edi.

U yerga yaqin shahar Ratel bo‘lib, u tog‘ga solingan qadimgi qal‘a edi. Bu vatanparvarlar shahri; uning aholisi bosqinchilarga qarshilik ko‘rsatishga, shahardan chiqmaslikka va eski odatga ko‘ra qamalga bardosh berishga qaror qilishgan. Genrix IV va Lyudovik XIV zamonida Ratel grajdaniqlik ikki marta qahramonona mudofaa bilan nom chiqarganlar. Endi esa, agar ularni qal‘a devorlari ichida yondirib yuborsalar ham xuddi shunday qilishadi.

Shunday qilib, ular to‘plar va miltiqlar sotib olishdi, ko‘ngillilarni qurollantirishdi. Batalonlar va rotalar tuzishib, qal‘a maydonchasida ertadan kechgacha mashq qilishadi. Ularning hammasi: nonvoylar, boqqollar, qassoblar, notariuslar, advokatlar, duradgorlar, kitob sotuvchilar, hatto aptekachilar iste’fodagi dragun ofitseri Lavin janoblarining qo‘l ostida navbatli bilan ma’lum soatda mashq qilishadi.

Lavinning o‘zi hozir Ravodan janoblarining qiziga uylanib, undan meros qolgan do‘konda attorlik qilardi.

Lavin janoblari qal‘a komendanti degan unvon oldi va yoshlar askarlikka ketgani uchun jon-jahdi bilan mudofaaga tayyorgarlik ko‘rayotgan hamma aholining boshini biriktirdi. Semizlar yog‘ini kamaytirish va nafas qisishdan qutulish uchun ko‘chalarda yo‘rtib, halloslab yurishar, kamquvvatlar chayir bo‘lish uchun og‘ir-og‘ir narsalarni ko‘tarishardi.

Hamma prussaklarni kutmoqda. Lekin prussaklar ko‘rinmasdi. Ammo yaqin o‘rtada turishardi, ularning razvedkahilari o‘rmon bilan ikki marta Dilda laqabli o‘rmonchi Nikola Pishonaning qorovulkxonasingacha kelishgan. Tulki singari ziyrak keksa o‘rmonchi chopganicha kelib shaharliklarni bu ishdan xabardor qilgan, shundan so‘ng to‘plarning og‘zi o‘sha yoqqa qaratib qo‘yilgan. Lekin dushmanidan darak yo‘q edi.

Dildaning uyi Avelin o‘rmonida avangard postlik xizmatini o‘tardi. Chol haftada ikki marta shaharga borib oziq-ovqat keltirar va atrofda bo‘layotgan yangiliklardan shaharliklarni xabardor qilardi.

Chol o‘sha kuni shaharliklarga borib, o‘tgan kuni kunduzi soat uchlarda nemis piyoda askarlaridan kichikroq bir otryadi uning uyiga kelganini va o‘sha zahotiyoy oldinga qarab ketganini, otryadning boshlig‘i, unter-ofitser fransuzcha biladi, deb aytgani ketgandi.

Chol shaharga ketayotganida izg‘ib yuradigan bo‘rilar dan qo‘rqib, sherlashara ikkita bo‘ribosar itini o‘zi bilan ergashtirib ketgan, xotinlarga esa tunda eshiklarni yaxshilab berkitib yotinglar, deb aytgan edi.

Xotinlarning yoshi hech narsadan qo‘rqmas, keksasi esa doim jon titrog‘iga uchrab:

– Buning oqibati yaxshilik bilan tugamas, ko‘rarsan, yaxshilik bilan tugamas, – derdi.

O‘sha kuni kechqurun kampirni har vaqtdagidan ko‘proq vahima bosdi.

- Bilmaysanmi, otang qachon kelarkin? – deb so‘radi u.
- O‘n bordan oldin kelmasa kerak. Komendantning uyida ovqat yegani qolganida hamisha kech keladi, – dedi qizi.

Yosh juvon ovqat pishirgani endigina qozon osib suv quygan edi, mo‘ridan eshitilayotgan noma'lum sharpani payqab, turgan joyida qotib qoldi.

- Eshityapsanmi, o‘rmonda yurishibti... kamida yetti-sakkiz kishi, – dedi shivirlab.

Onasi qo‘rqib ketib ip yigirishni to‘xtatdi va:

- Oh, Xudoyim, otang yo‘q-ku! – deb pichirladi.

Kampir gapini tamom qilmagan ham edi, qattiq zarbdan eshik larzaga keldi.

Xotinlar javob qilishmovdi, eshik orqasidan gulduragan tovush bilan baqirib:

- Och! – dedi birov.

Birpasdan keyin yana o‘sha tovush:

- Och eshikni, bo‘lmasa buzish! – dedi.

Shunda Bertina o‘choq boshida osig‘lik turgan katta to‘pponchani olib, yubkasining cho‘ntagiga soldi va qulog‘i-ni eshikka qo‘yib turib:

- Kim? – dedi.

– Bu men, o‘tgan kundagi otryad.

- Nima ishingiz bor? – dedi yana Bertina.

– Otryadimdan ertalab adashdim. Siz ochish kerak, bo‘lmasa men eshikni sindirish, – dedi.

O‘rmonchi juvonning eshik tambasini tushirishdan boshqa iloji yo‘q edi, og‘ir eshikni qiya ochib qorning xiragina yorug‘ida olti kishini, oltita pruss soldatini, o‘sha, o‘tgan kun kelganlarni ko‘rdi.

Bertina jahl bilan:

- Bemahalda nima qilib yuribsizlar? – dedi.

Unter-ofitser yana:

- Adashib qoldim, butunlay adashib qoldim va men uyingizni ko‘rib tanidim. Men ertalabdan beri hech narsa yemadim, otryadim ham, – dedi.

– Uyda onam bilan menden boshqa hech kim yo‘q, – deb tixirlik qildi Bertina.

Soldat muloyimlik bilan:

– Hechqisi yo‘q. Men sizlarni xafa qilmayman, faqat siz ovqat berishingiz kerak, bo‘lmasa hozir biz ochlik va horg‘inlikdan yiqilish.

O‘rmonchi juvon o‘zini chetga olib:

– Kiringlar, – dedi.

Soldatlar kirishdi, ust-boshlari qor, qor qo‘ngan kaskalari bo‘lsa ustiga ko‘pirtirilgan qaymoq solingan pirojnoyga o‘xshardi, ularning horiganliklari ko‘rinib turardi.

O‘rmonchi juvon stolning ikki tomonidagi yog‘och eshaklarni ko‘rsatib:

– O‘tiringlar, – dedi, – men sizlarga ovqat pishirib bera man, tinkalaring juda quriganga o‘xshaydi.

Juvon eshikni tambaladi.

Keyin qozonga yana suv quydi, yana yog‘, kartoshka soldi, o‘choq boshidagi changakka ilig‘lik turgan yog‘ni oldi va yarmini kesib uni ham qozonga tashladi.

Olti soldat ochlikdan ko‘zлari jovdirab, xotinning har bir harakatini kuzatib turishardi.

Qurol va kaskalarini bir burchakka uyib qo‘yib, maktab kursisida o‘tirgan yuvosh bolalardek kutib o‘tirishdi.

Keksa ona yana ip yigirishga tushdi va daqiqa sayin alanglab bosqinchi soldatlarga qarab qo‘yardi. Uyda charxning g‘uvillashi, yonayotgan olovning shitirlashi-yu qaynab chiqayotgan ovqatning biqir-biqiri eshitilib turardi, xolos...

Lekin eshik orqasidan ajib bir tovush, yirtqichning pish-qirishiga o‘xhash qattiq pishqiriqni eshitib, hammalari sap-chib tushishdi.

Nemis unter-ofitseri miltig‘iga qarab yugurdi. O‘rmonchi juvon ishora bilan uni to‘xtatdi.

– Bo‘rilar, – dedi u kulimsirab. – Sizlarga o‘xshab ular ham o‘rmonda och izg‘ib yurishadi.

– Bilmaysanmi, otang qachon kelarkin? – deb so‘radi u.
– O‘n birdan oldin kelmasa kerak. Komendantning uyida ovqat yegani qolganida hamisha kech keladi, – dedi qizi.

Yosh juvon ovqat pishirgani endigina qozon osib suv quygan edi, mo‘ridan eshitilayotgan noma'lum sharpani payqab, turgan joyida qotib qoldi.

– Eshityapsanmi, o‘rmonda yurishibti... kamida yetti-sakkiz kishi, – dedi shivirlab.

Onasi qo‘rqib ketib ip yigirishni to‘xtatdi va:

– Oh, Xudoyim, otang yo‘q-ku! – deb pichirladi.

Kampir gapini tamom qilmagan ham edi, qattiq zarbdan eshik larzaga keldi.

Xotinlar javob qilishmovdi, eshik orqasidan gulduragan tovush bilan baqirib:

– Och! – dedi birov.

Birpasdan keyin yana o‘sha tovush:

– Och eshikni, bo‘lmasa buzish! – dedi.

Shunda Bertina o‘choq boshida osig‘lik turgan katta to‘pponchani olib, yubkasining cho‘ntagiga soldi va qulog‘i-ni eshikka qo‘yib turib:

– Kim? – dedi.

– Bu men, o‘tgan kundagi otryad.

– Nima ishingiz bor? – dedi yana Bertina.

– Otryadimdan ertalab adashdim. Siz ochish kerak, bo‘lmasa men eshikni sindirish, – dedi.

O‘rmonchi juvonning eshik tambasini tushirishdan boshqa iloji yo‘q edi, og‘ir eshikni qiya ochib qorning xiragina yorug‘ida olti kishini, oltita pruss soldatini, o‘sha, o‘tgan kun kelganlarni ko‘rdi.

Bertina jahl bilan:

– Bemahalda nima qilib yuribsizlar? – dedi.

Unter-ofitser yana:

– Adashib qoldim, butunlay adashib qoldim va men uyingizni ko‘rib tanidim. Men ertalabdan beri hech narsa yemadim, otryadim ham, – dedi.

– Uyda onam bilan menden boshqa hech kim yo‘q, – deb tixirlik qildi Bertina.

Soldat muloyimlik bilan:

– Hechqisi yo‘q. Men sizlarni xafa qilmayman, faqat siz ovqat berishingiz kerak, bo‘lmasa hozir biz ochlik va horg‘inlikdan yiqilish.

O‘rmonchi juvon o‘zini chetga olib:

– Kiringlar, – dedi.

Soldatlar kirishdi, ust-boshlari qor, qor qo‘ngan kaskalari bo‘lsa ustiga ko‘pirtirilgan qaymoq solingan pirojnoyga o‘xshardi, ularning horiganliklari ko‘rinib turardi.

O‘rmonchi juvon stolning ikki tomonidagi yog‘och eshaklarni ko‘rsatib:

– O‘tiringlar, – dedi, – men sizlarga ovqat pishirib bera man, tinkalaring juda quriganga o‘xshaydi.

Juvon eshikni tambaladi.

Keyin qozonga yana suv quydi, yana yog‘, kartoshka soldi, o‘choq boshidagi changakka ilig‘lik turgan yog‘ni oldi va yarmini kesib uni ham qozonga tashladi.

Olti soldat ochlikdan ko‘zлari jovdirab, xotinning har bir harakatini kuzatib turishardi.

Qurol va kaskalarini bir burchakka uyib qo‘yib, maktab kursisida o‘tirgan yuvosh bolalardek kutib o‘tirishdi.

Keksa ona yana ip yigirishga tushdi va daqiqa sayin alanglab bosqinchi soldatlarga qarab qo‘yardi. Uyda charxning g‘uvillashi, yonayotgan olovning shitirlashi-yu qaynab chiqayotgan ovqatning biqir-biqiri eshitilib turardi, xolos...

Lekin eshik orqasidan ajib bir tovush, yirtqichning pish-qirishiga o‘xhash qattiq pishqiriqni eshitib, hammalari sap-chib tushishdi.

Nemis unter-ofitseri miltig‘iga qarab yugurdi. O‘rmonchi juvon ishora bilan uni to‘xtatdi.

– Bo‘rilar, – dedi u kulimsirab. – Sizlarga o‘xshab ular ham o‘rmonda och izg‘ib yurishadi.

Nemis ishonmadi va o‘z ko‘zi bilan ko‘rmoqchi bo‘ldi, lekin eshik ochilar-ochilmas, lapanglab qochib ketayotgan ikkita sur bo‘rini ko‘rdi.

U o‘rniga kelib o‘tirarkan, g‘udranib:
– Men ishongim kelmagan edi, – dedi.
Keyin ovqatni kutib o‘tirdi.

Ular kattaroq luqma olish uchun og‘izlarini quloqlariga yetguncha ochib, ochko‘zlik bilan ovqat yeya boshlashdi; ko‘zlarini ham katta ochishar, tomoqlardan ovqat quvurdan o‘tayotgan suvday qult-qult qilib o‘tardi. Ikkala ayol sariq soqollarning qanday tez qimirlashiga, go‘yo silkinib turgan o‘simlik ichiga tushib g‘oyib bo‘layotgan kartoshkalarga qarab jimgina o‘tirishardi.

Keyin nemislar cho‘llashdi, o‘rmonchi juvon sidr suzib chiqqani yerto‘laga tushib ketdi. U joyda anchagina hayallab qoldi. Bu yerto‘la gumbaz taxlit qilib solingan bo‘lib, aytishlariga qaraganda revolyutsiya yillarida turma ham, yashirinadigan joy ham bo‘lgan ekan. U yerga oshxonaning burchagidagi qopqoqni ochib, aylanma zina bilan tushilar edi.

Bertina xursand, o‘zicha ich-ichidan kulib chiqdi. U nemislarning oldiga bir ko‘za sidr qo‘ydi. Keyin onasi bilan oshxonaning narigi burchagida o‘tirib ovqat yedi.

Soldatlar ovqatni yeb bo‘lib, kursida o‘tirgan joylarida mudrab qolishdi. Soldatlarning dam unisi, dam bunisi pinakka ketib, peshanasini stolga urib olar va uyg‘onib ketib qaddini rostlardi.

Bertina unter-ofitserga:

– Olovga yaqinroq joyga o‘ta qolinglar, hammaga ham joy yetarli, onam bilan biz mening uyimga chiqib yotamiz, – dedi.

Ikkala ayol yuqori qavatga chiqib ketishdi. Ularning eshikni qulflaganlari, anchagacha nari-beri yurganlari eshitilib turdi va nihoyat jim bo‘lishdi.

Prussaklar oyoqlarini olovga qilib, shinellarini yumaloqlab boshlariga qo‘yib, yerga cho‘zilishdi va tezdan oltovi

olti xil: biri chiyillab, biri yo‘g‘on, lekin hammasi bir xilda uzun va baland xurrak torta boshlashdi.

Xuddi uyning devoriga otayotgandek qattiq o‘q ovozi chiqqanida ularning uxlaganlariga ancha vaqt bo‘lgan bo‘lsa kerak. Soldatlar irg‘ib o‘rinlaridan turishdi, yana gumburlab ikki o‘q uzildi, uning orqasidan yana uchta otildi.

Yuqoridagi eshik lang ochilib yalangoyoq, ichki kiyimda, qo‘lida sham, g‘oyat qo‘rqsan o‘rmonchi juvon ko‘rindi.

– Fransuzlar, – dedi qiz g‘o‘ldirab, – kamida ikki yuz kishi. Agar sizlarni bu yerda ko‘rishsa, uyg‘a o‘t qo‘yib yuborishadi. Tezda yerto‘laga tushinglar, lekin shovqin-suron qilmanglar. Agar tovushlaring chiqsa hammamiz ham halok bo‘lamiz.

Unter-ofitser shoshganidan:

– Biz ko‘nadi, biz ko‘nadi, – dedi shivirlab, – qayerdan tushishimiz kerak?

Xotin shoshib yerto‘laning qopqog‘ini ochdi va oltita nemis ketma-ket aylanma zinadan, pillapoyani oyog‘i bilan paypaslaganicha turtinib yerto‘laga tushib ketdi.

Lekin so‘nggi kaskaning uchi tushib bo‘lar-bo‘lmas, Bertina yerto‘laning devorday qalin, zilday dub qopqog‘ini qars etib yopti. Kattakon turma qulfidagi kalitni ikki marta buradi va asirlarning boshida o‘yin tushib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib, huzur qilib asta kului.

Ular qopga, temir panjaralik tuynukdangina havo kirib turadigan toshdan yasalgan mustahkam qopga tushganday qimirlamay turishardi.

Bertina yana tezda olov yoqdi, yana ovqat pishirgani qozon osarkan:

– Bugun tunda otam xo‘b charchaydi-da, – deb so‘zlandi.

Keyin o‘tirib kuta boshladи. Jimlikda soatning bir xilda qattiq tiq-tiq qilishigina eshitilib turardi.

Yosh juvon har zamonda soatning strelkasiga qarab-qarab qo‘yar, uning bu qarashida „muncha sekin yurayotir?“ deyayotganday bir ifoda bor edi.

Lekin tezda nazarida oyog‘i tagida ivir-shivir eshitila-yotganday bo‘ldi. G‘isht gumbazlar ostidan tushunib bo‘l-maydigan gaplar eshitilib turardi. Aftidan prussaklar qo‘lga tushganlarini payqab qolishgan ko‘rinadi, birozdan keyin unter-ofitser aylanma zinadan chiqib bor kuchi bilan yerto‘laning qopqog‘ini ura boshladi.

– Ochish! – dedi u tovushi boricha baqirib.

Qiz o‘rnidan turdi va yaqinroq borib uning tilini masxara qilib:

– Siz nima xohlash? – dedi.

– Ochish!

– Men ochish yo‘q.

– Ochish bo‘lmasa, men eshikni sindirish! – dedi nemis joni chiqib.

Qiz xandon tashlab kulib:

– Sindiraqol, sindir, chirog‘im! – dedi.

Nemis dub qopqoqni miltiq qo‘ndog‘i bilan ura boshladi. Lekin bunday qopqoqni cho‘qmor bilan ham buzib bo‘lmas edi.

O‘rmon qizi nemisning pastga tushib ketayotganini eshitdi. Keyin soldatlar ketma-ket chiqib qopqoqning mustahkamligini va o‘z kuchlarini sinab ko‘rishdi. Lekin urinish behudaligini anglaganlaridan keyin, yana pastga tushib, maslahat qila boshlashdi. Ayol avval ularning so‘zlariga qulq soldi, keyin ko‘cha eshikni olib, qorong‘ilikka qulq sola boshladi. Uzoqdan itning hurishini eshitdi. Ovchilarga o‘xshab hushtak chaldi, o‘sha zahoti qorong‘ilikdan ikkita katta it chiqib keldi va jil panglab qizga qarab yugurdi. Qochmasin deb, qiz ularning bo‘ynidan ushlab oldi. So‘ng joni boricha:

– Hoo, ota! – deb qichqirdi.

– Hoo, Bertina, – degan javob eshitildi juda uzoqdan.

Qiz biroz kutib turgach, yana:

– Hoo, ota! – dedi.

– Hoo, Bertina, – degan javob eshitildi yaqindan.

– Tuynukning ro‘parasidan o‘tma. Yerto‘lada nemislar bor, – dedi o‘rmonchining qizi unga.

Chap tomondagi ikki daraxt orasida to‘satdan cholning novcha qomati paydo bo‘ldi.

– Yerto‘lada nemislar bor? Nima qiladi u yerda? – deb so‘radi chol hayajonlanib.

Yosh juvon kulib yuborib:

– Ha, kechagilar. O‘rmonda adashib qolishgan ekan, tirkkina tursin deb yerto‘laga solib qo‘ydim, – dedi.

So‘ng, o‘q uzib nemislarni qo‘rqitganini va yerto‘laga qamab qo‘yanini boshdan oyoq so‘zlab berdi.

Chol hamon qovog‘ini solib:

– Endi ularni nima qilaman? – dedi.

– Bor, Lavin janoblarini otryadi bilan olib kel. Bularni asir qilib olsin. Xo‘b sevinadi-da! – dedi qizi.

Shundan keyin chol Pishon ham kulimsirab:

– Rost aytasan, xo‘b sevinadi! – dedi.

– Mana ovqat, yegin-u, tezda chop, – dedi qizi.

Chol avval ikki idishdagi ovqatni itlarining oldiga qo‘yib, so‘ng stolga o‘tirib ovqat yeya boshladи.

Gangir-gungur gapni eshitgach, nemislar jim bo‘lib qolishdi. Chorak soatdan so‘ng Dilda yana yo‘lga tushdi. Bertina esa qo‘llarini jag‘iga tiraganicha kuta boshladи.

Asirlar yana qo‘zg‘alib qolishdi. Endi ular qichqirishar, hadeb chaqirishar, miltiqning qo‘ndog‘i bilan jon boricha yerto‘laning mustahkam qopqog‘ini urishardi.

Birozdan keyin yaqin orada biron nemis otryadi bo‘lsa, eshitib qolarmikan degan umid bilan tuynukdan o‘q uza boshlashdi.

O‘rmonchining qizi qotib qolganday o‘tirardi: lekin nemislarning shovqin-suroni uning g‘ashiga tegar va bezovta qilardi. Qizda qattiq g‘azab qo‘zg‘aldi. Ablahlarning tovushini o‘chirish uchun o‘ldirib tashlagisi keldi. Toqati toq bo‘lib, ko‘zini soatdan uzmay har daqiqani hisoblay boshladи.

Otasi ketganiga bir yarim soat bo'ldi. Endi u shaharga yetgandir. Qiz uni ko'rib turganday. Mana, otasi bo'lgan voqeani Lavin janoblariga so'zlab berayotir. Lavinning yuragi hovliqib, rangi o'chib ketdi va qo'ng'iroq chalib xizmat-chisini chaqirdi, shinel va miltig'ini keltirib berishni buyurdi. Bertinaning qulog'iga ko'chalarni yangratib chalinayotgan nog'ora tovushi eshitilayotganday bo'lardi. Qo'rqib ketgan odamlar derazalardan qaraydi. Ko'ngillilar shoshib-pishib, yurgan yo'lida qilich qayishini tugmalaganicha nafasi og'ziga tiqilib, yugurib uylaridan chiqishyapti va komendantning uyiga qarab ketishyapti.

Keyin otryad shoshaqanicha zulmat ichida, qor uyumlari orasida Dildaning boshchiligidagi o'rmonga jo'naydi.

U hadeb soatga qarardi, „bir soatdan keyin shu yerda bo'lishadi“.

Uning butun vujudini asabiy bir betoqatlik qamrab olgan edi. Daqiqalar benihoya cho'zilardi. Yana qancha kutish kerak axir?

Nihoyat, strelkalar uning mo'ljalicha otryad yetib kelishi kerak bo'lgan vaqtini ko'rsatdi.

U kelishayotganmikin, degan umidda qulq solgani yana ko'cha eshikni ochdi. Ehtiyyot bilan lip etgan soyani ko'rdi, cho'chib qichqirib yubordi. Bu otasi edi.

– Biron o'zgarish bo'lmadimi, bilib kel deb meni yuborishdi, – dedi u.

– Yo'q, hech qanday o'zgarish yo'q.

Shundan so'ng chol chalgan uzun va qattiq hushtak ovozi zulmatni yorib o'tdi.

Tezda daraxtlar orasida asta yaqinlashib kelayotgan qora soyalar; o'n kishidan iborat avangard ko'rindi.

Dilda hadeb:

– Tuynuk ro'parasidan o'tmanglar, – deb takrorlardi.

Oldin kelganlar keyin kelganlarga haligi xatarli yerni ko'rsatishardi.

Nihoyat, har bittasida ikki yuztadan o'q bo'lgan ikki yuz kishilik asosiy otryad yetib keldi.

Lavin janoblari hovliqqanidan titragan holda o‘z odamlarini shunday qilib joylashtirdiki, uy har tomondan o‘raldi. Yerto‘laga havo kirib turadigan qora teshik ro‘parasidagi keng joygina bo‘sh qoldi.

Keyin Lavin janoblari uyga kirdi va go‘yo bug‘lanib, tuynuk orqali uchib ketganday ko‘milib jim o‘tirgan dush-manning soni va joylanishi haqida ma’lumot oldi.

Lavin janoblari yerto‘laning qopqog‘ini tepdi va:

– Janob pruss ofitseri! – deb chaqirdi.

Nemis javob qilmadi.

– Janob pruss ofitseri! – deb takrorladi komendant.

Yana javob bo‘lmadi. U damini chiqarmay o‘tirgan nemisni qurol-aslahasi bilan taslim bo‘lishga yigirma daqiqa undadi. O‘ziga ham, soldatlariga ham jazo bermaslik va harbiy unvonini qoldirishni va‘da qildi. Lekin na roziligini va na yovlashishini bildirgudek biron alomat eshitishga muyassar bo‘lmadi. Ahvol ancha og‘irlashdi. Ko‘ngillilar isinish umidida kucherlarga o‘xshab yer tepinishar, o‘zlarini o‘zlar yelkalariga urishar, ha desa yana tuynukka qarashar, har qaysisida ham o‘sha yerdan yugurib o‘tsam nima qilarkan, degan bolalarcha istak kuchayib borardi.

Ularning ichida Podevon degan bitta juda epchil odam bor edi, nihoyat, o‘sha mardlik qildi. Kiyikday yugurib keilib, tuynukning ro‘parasidan chopib o‘tdi. Hech gap bo‘lmadi. Asirlar o‘lib qolganday tuyulardi.

– U yerda hech kim yo‘q, – dedi birov.

Yana bitta soldat haligi dahshatli tuynuk ro‘parasidan yugurib o‘tdi. Keyin xuddi o‘yin boshlanganday bo‘ldi. Xuddi quvplashmachoq o‘ynayotgan bolalarga o‘xshab, oyoqlari ostidagi qorni sachratib, daqiqa sayin bitta soldat u otryaddan bu otryadga chopib o‘ta boshladи. Shaharliklar isinish uchun shox-shabbalarni terib, katta-katta gulxanlar yoqib yuborishdi va olov yorug‘i o‘ng tomondan chap tomonga yugurib o‘tgan odamga bir nafasgina shu‘la tashlardi.

– Maluazon, sening galing! – dedi qichqirib kimdir.

Maluazon semiz nonvoy edi. O'rtoqlari hamisha uning qornidan kulishardi.

U ikkilanib qoldi. Hamma kula boshladi. Shunda yura-giga sal dadillik berib, katta qornini silkitganicha harsillab-gursullab chopib ketdi.

Butun otryad kula berib ichagi uzildi.

– Barakalla, barakalda, Maluazon! – deb unga dalda berishardi.

U endi yo'lning uchdan ikki qismini chopib o'tgan edi, to'satdan tuyrukdan qisqagina qip-qizil alanga sochildi.

O'q uzildi. Semiz nonvoy dodlaganicha mukkasi bilan qorga yiqildi.

Hech kim yordamga bormadi. So'ng uning o'zi oh-voh qilib emaklab, xatarli doiradan chetga chiqishi bilan hushidan ketdi.

O'q sonining yuqorisiga, eng sergo'sht joyiga tegipti.

Birinchi qo'rquv, birinchi sarosimadan so'ng yana kulgi ko'tarildi.

Lekin shu on uy ostonasida komendant Lavin ko'rindi. U qanday hujum qilish rejasini tuzib chiqqan edi, baland ovoz bilan:

– Mister Planshyu shogirdlari bilan! – dedi.

Uch kishi oldinga chiqdi.

– Uyning tarnovlarini sug'urib oling, – dedi.

Chorak soat ichida komendantga yigirma metr tarnov topib kelishdi.

So'ng komendant juda ehtiyyot bo'lib, yerto'la qopqog'i-ning bir chetini teshishni va unga quduqdagi nasos trubaning bir uchini ulashni buyurdi. Keyin shodligi ichiga sig'may:

– Hozir nemis janoblariga ichgani suv beramiz, – dedi.

Unga javoban hamma xursand bo'lib, „urra!“ dedi va sevinchli qichqiriqlar, qahqahalar eshitildi. Komendant har besh daqiqada almashib turadigan ishchi batalonlar tuzdi va:

– Nasosni bosinglar! – dedi.

Nasos ishga tushdi, quvurdan quldiragan tovush o'tdi-da,

yerto‘laning zinasidan oltin baliqlik hovuzga tushayotgan sharsharadek, sharillab suv oqib tusha boshladi.

Hamma nima bo‘larkin, deb kutmoqda edi.

Bir soat o‘tdi, ikki soat, uch soat ham o‘tdi.

Kapitan tutoqqanicha oshxonada u yoqdan bu yoqqa yurar, vaqtı-vaqtı bilan qulog‘ini yerga qo‘yib ko‘rar, dushman nima qilayotganini va qachon taslim bo‘lishini bilishga urinardi.

Endi dushman shoshib qoldi. Ularning so‘zlashgani, shaloplab suvda yurayotgani, bochkalarini qo‘zg‘atayotgani eshitildi.

Ertalab soat sakkizlarda tuynukdan ovoz keldi.

– Men xohlar edim, fransuz ofitser janoblari bilan so‘zlashsam, – dedi fransuzchalab, tili kelishmagani holda.

Lavin boshini derazadan sal chiqarib:

– Taslim bo‘lasizmi? – dedi.

– Men taslim bo‘laman.

– Unday bo‘lsa yarog‘-aslahalaringizni tashlang.

O‘sha zahoti tuynukdan qorga bir miltiqni tashlab yuborishdi, keyin ikkitani, so‘ng uchtani va hammasini tashlashdi.

– Boshqa yo‘q. Tezroq to‘xtatish. Men o‘lyapman, – dedi haligi ovoz.

– To‘xtating! – dedi komendant.

Nasos to‘xtadi. Oshxona soldatlar bilan liq to‘lganida komendant: „Miltiq ushlab tayyor bo‘l“, deb buyruq bergandan keyin, o‘zi shoshmasdan yerto‘laning qopqog‘ini ochdi.

Avval to‘rtta bosh, to‘rtta sap-sariq, uzun-uzun va ho‘l sochlik bosh ko‘rindi. Undan keyin qo‘rqqan, ivigan, sovuq qotgan oltita nemis ketma-ket chiqdi.

Ularni darhol ushlab bog‘lashdi va soldatlar ikki turkumga bo‘linishdi: bittasi asirlarni, bittasi xodaga bog‘lab yasalgan zambilda yotgan Maluazonni qurshab, bexosdan hujum bo‘lib qolishidan cho‘chib, o‘sha ondayoq yo‘lga tushishdi.

Ratelga g‘alaba bilan qaytishdi.

Lavin janoblari pruss avangardini asir olgani uchun orden bilan mukofotlandi, semiz nonvoy esa jang maydonida yarador bo‘lgani uchun harbiy medal oldi.

MADEMUAZEL FIFI

Pruss komandiri mayor graf fon Farsberg Gobelen kresloda orqasiga tashlanibroq, oyoqlarini juda go‘zal ishlangan kamin taxtasiga qo‘yib o‘tirib, keltirilgan xatlarni o‘qib tamomlay deb qolgan edi. U Yuvil qasrida uch oydan beri turar va shu taxlitda o‘tiraverish natijasida shporlari haligi taxtani kundan kun chuqurroq o‘yaborardi.

Bir piyola bug‘lanib turgan kofe qo‘yilgan to‘garak stolcha papirosdan kuygan, likyor tomgan, pakki bilan o‘yilgan: g‘olib ofitser qalam uchlab o‘tirgan chog‘larida, shirin, xayollarga berilib ketib, haligi qimmatbaho toshlar o‘rnatilib ishlangan stolchani o‘yib raqamlar, shakllar solib o‘tirardi.

Mayor xatlarni o‘qib bo‘lgach, armiya pochta bo‘limi boshlig‘i yangigina keltirgan nemis gazetasini ko‘zdan kechirib chiqdi, so‘ng o‘rnidan turdi, uch-to‘rtta nam g‘o‘lani kaminga tashladi (janob ofitserlar asta-sekin istirohat bog‘lari daraxtlarini kesib yoqishmoqda edi) va deraza yoniga bordi.

Yomg‘ir, Normandiyaga xos yomg‘ir birov g‘azab bilan to‘kib tashlayotganday shovullab, jadallab, hamma yoqni ko‘lob qilib, qiyalab yog‘moqda. Chindan ham Fransiyaning tungi tuvagi bo‘lgan Ruan viloyati bunday yomg‘irlari bilan nom chiqargan.

Ofitser suv ko‘lmak bo‘lib turgan yalang yerlarga, sohilariiga toshib oqayotgan Andel daryosiga uzoq tikilib turdi va barmog‘i bilan deraza oynasini chertib, Reyn valsini chala boshhladi; u oyoq tovushini eshitib, orqasiga qaradi; bu uning o‘ribbosari, mansabi bizda kapitanga teng keladigan baron fon Kelvengshteyn ekan.

Mayor yelkalari keng, barvasta, ko‘kragini tutib yotgan uzun va yelpig‘ichnusxa soqolli kishi edi; u butun vujudi

bilan hurpayib hujumga tayyorlanib turgan tovusni eslatar, lekin buning dumi engagi tagida hurpaygandi. Uning ko'zla-ri ko'k, sokin va sovuqqina boqardi; yuzida avstraliyaliklar bilan bo'lgan jangda tekkan qilichning izi – tirtig'i bor. U yaxshi ofitsergina emas, yaxshi odam deb ham tanilgan.

Kapitan pakana, qip-qizil basharali semiz kishi bo'lib, qornini juda tang'ib bog'laydi, qizg'ish soqol-mo'ylovlarini qirib yuradi, lekin tikondek sariq tuklari bir xil yorug'da yil-tirab, yuziga farfor surib qo'yganga o'xshab ketadi.

Qachonlardir bo'lib, endi esidan ham chiqib ketgan mayxo'rliklardan birida u oldingi ikki tishidan ayrılgan, shuning uchun ham gapirganda so'zni tupurib tashlayotganga o'xshatib, anglab bo'lmaydigan qilib so'zlaydi. Qoq miya-sida monaxlarning do'ppisidek joydag'i sochi tushib ketgan; bu taqir gardish atrofini sap-sariq, jingalak soch qurshagan.

Komandir uning qo'lini qisib so'rashdi va xizmat yuaz-sidan bo'lgan raportni tinglarkan, piyoladagi kofeni (ertadan beri oltinchisini) bir ko'tarib yutdi, so'ng ikkalasi deraza yoniga bordi, yana o'sha, ko'ngilsiz kechirayotgan hayotlari haqida so'zlashdi. Bola-chaqali, yuvoshgina mayor har nar-saga ko'nikardi, lekin o'taketgan buzuq, fohishaxonalarining doimiy mehmoni, uchiga chiqqan xotinboz kapitan bu xilvat joydag'i uch oylik majburiy parhezdan yorilguday bo'lgan edi.

Eshik sekin taqillashi bilan komendant: „Kiring“, dedi, eshikdan avtomat-soldatlardan biri kirdi; u indamay turishi bilan nonushta tayyorligini bildirardi.

Unvon kichik ofitserlardan uchtasi allaqachon oshxonada o'tirishgandi: poruchik Otto Fon Grosling va ikkita podporuchik – ularning biri frins Sheynaburg, ikkinchisi jajjigina, sap-sariq, dimog'dor, soldatlarga nisbatan qo'pol, mag'lublarga nisbatan berahm, har bahona bilan miltiqdo-ri singari portlab ketishga hozir turgan markiz Vilgelm fon Eyrik edi. Fransiyaga kirganlaridan beri o'rtoqlari uni mademuazel Fifi deb atashar edi. Uning bo'g'ib qo'yganday

xipchabelligi, endi sabz qilib kelayotgan mo'ylovlik rang-par yuzi, sernozligi, yana asosan uning odatlanib qolgan bir xulqi – barcha jonli va jonsiz narsalarga nisbatan bo'lган nafratini ifodalashda fransuzchabalab, hushtak aralash „fi, fi dons!“ deb qo'yishi bunday nom olishiga sabab bo'lган edi.

Yuvil qasrining mehmonxonasi uzun qilib solingan shohona bir uy bo'lib, bu xonadagi o'q tegib, yulduzsimon chaqnagan qadimgi oynaklar va qilich bilan parchalangan flander shpalerlari mademuazel Fifining bo'sh qolganida qiladigan ermagini ko'rsatib turardi.

Devorlarda osig'liq uch dona oilaviy rasm: harbiy kiyim-dagi jangchi, kardinal va sud raisining rasmlari bo'lib, ular hozir mademuazel Fifi og'zilariga tiqib qo'ygan uzun chinni trubkani chekib turishar, yillar o'tishi bilan oltin hali o'ngib ketgan ramkadagi, belini xipcha qilib bo'g'gan kibor xotin ko'mir bilan quyuq qilib chizilgan katta mo'ylovlarini ko'r-satib maqtanayotganday turardi.

Ofitserlar yomg'ir quyib turgani uchun qorong'i, har bir narsaga mag'lubiyat aksi urganidan ko'ngilsiz, dubdan ya-salgan qadimgi parketlari mayxona polidek iflos xarobaga aylantirilgan uyda jim o'tirib nonushta qilishayotgandi.

Ovqat yeb bo'linib ichkilikka tushildi, papiros chekishdi va hammalarining jonlariga tekkan diqqatbozlik haqidagi kundalik suhbatlariga ko'chishdi. Konyak va likyor shishalari qo'ldan qo'lga o'tar, ofitserlar o'zlarini stol suyanchig'i-ga tashlab, sarxonasi tuxumga o'xshagan, go'yo gotentotlar ning ko'zini kuydirish uchun qilinganday turli bo'yoqlarga bo'yagan chinni trubkani og'izning bir chetida tishlagan holda, oz-ozdan va tez-tez vino ho'plab qo'yishardi.

Qadahlar bo'shashi bilan ular diqqatbozlikka nachora deganday yana to'ldirishardi. Mademuazel Fifigina har gal qadahni urib sindirar, xizmat qilib turgan soldatlardan biri unga darhol yangisini keltirardi.

Tamakining achchiq tutuni ularni chulg'ab olgan va ular bekorchi odamlardek parishonhollik bilan qayg'uli, mud-

roq bostiradigan g‘amgin kayfga botgandi. To‘satdan baron irg‘ib o‘rnidan turdi va yorilib:

— Jin ursin, bu nimasi-a? Ortiq bunday turib bo‘lmaydi, biron iloj qilish kerak, axir, — dedi qichqirib.

Prussaknusxa, qo‘pol va anqov bashara ikki nemis, poruchik Otto bilan podporuchik Frits bir og‘izdan:

— Kapitan, nima qilayliq bo‘lmasa? — deyishdi.

Kapitan bir nafas o‘ylanib qoldi, keyin:

— Nima qillardik? Komandir ijozat bersalar kichkinagina bazm qilamiz, — dedi.

Mayor og‘zidagi trubkasini oldi-da:

— Qanday bazm, kapitan? — dedi.

Baron uning yoniga keldi.

— Hammasini o‘z ustimga olaman. „Labbay, taqsir“ni Ruanga yuboraman, u xotin topib keladi, qayerdan topishini bilib qo‘yganman. Biz kechki ovqat tayyorlab qo‘yamiz, kerak narsalarning hammasi shu yerda bor, bir kecha bo‘lsa ham xursandchilik qilamiz.

Graf fon Falsberg kulumsirab yelkalarini qisdi va:

— Esingizni yedingizmi, do‘stim, — dedi.

Lekin barcha ofitserlar sakrab turib komandirini o‘rab olishdi-da:

— Ruxsat bera qoling, mayor janoblari, axir bu yer kishini zeriktiradigan joy, — deb iltimos qila boshlashdi.

Nihoyat komandir ko‘ndi: „Mayli“, — dedi va o‘sha zahoti baron „Labbay, taqsir“ni chaqirdi. U bir keksa feld-febel bo‘lib, hech qachon, hech kim uning yuzida tabassum ko‘rgan emas, lekin boshliqlarining har qanday buyruqlarini ham jon-dili bilan bajo keltirardi.

U, qomatini rostlab turib, sovuqqonlik bilan baronning topshirig‘ini tingladi, so‘ng chiqib ketdi. Besh daqiqalardan keyin polkning brezent soyabonli to‘rt ot qo‘shilgan katta aravasi quyib turgan yomg‘ir ostida shaharga jo‘nadi.

Bir zumda to‘satdan hamma yengil tortdi. Bo‘sashib o‘tirishdan asar ham qolmadi, chehralar ochilib, suhbat qizidi.

Garchi yomg‘ir boyagiday quyib turgan bo‘lsa-da, mayor, havo ancha yorishganday bo‘ldi, dedi. Poruchik Otto bo‘lsa, hademay butunlay ochilib ketadi, dedi. Hatto mademuazel Fifi ham joyida o‘tirolmay qoldi, dam irg‘ib o‘rnidan turar, dam o‘zini kresloga tashlar, nimani sindirsam ekan, deb berahm ko‘k ko‘zlarini atrofga alanglatardi. Sa-riq yigitcha to‘satdan haligi mo‘ylovli xotinga tikilib turib to‘pponchasini oldi.

– Sen bu ishlarni ko‘rmasang ham bo‘ladi, – dedi u va o‘tirgan joyida qoraga oldi. Ketma-ket otilgan ikki o‘q suratning ko‘zlarini o‘pirib o‘tdi.

Keyin mademuazel Fifi:

– Endi mina qo‘yamiz! – dedi qichqirib.

Go‘yo qiziq bir ermak topilganday, hamma o‘sha on jim bo‘lib qoldi.

Mina – mademuazel Fifining juda yaxshi ko‘radigan ovunchoqlaridan, o‘zi o‘ylab chiqargan buzish usuli edi.

Bu joyning qonuniy egasi graf Fernan D’alua d’Yuvil mulkini tashlab ketarkan, devor orasiga yashirgan kumush buyumlarini demasak, boshqa hech narsasini na olib ketishga, na yashirishga ulgurgan. O‘zi katta boy va metsenatlardan bo‘lgani uchun uning oshxonaga yondosh qilib solingan mehmonxonasi, qochib ketmasidan oldin haqiqiy muzaxona edi.

Devorlariga qimmatbaho suratlar, akvarellar osilgan, stolchalar, etajerkalar, nozik ishlangan katta javonlarda yuzlab turli haykalchalar, yapon vazalari, sakson chinnisidan yasalgan har xil narsalar, xitoy o‘ynichoqlari, fil suyagi va venetsiya chinnisidan qadim zamonda ishlangan buyumlar – nodir va rang-barang narsalarga liq to‘la edi.

Endi ularidan ba’zi birlarigina butun qolgan. Ular tabab ketilgani yo‘q: mayor graf fon Farlsberg nahot bunga yo‘l qo‘ysa, lekin vaqtı-vaqtı bilan mademuazel Fifi „mina qo‘yib“ turar va o‘sha kuni butun ofitserlar rosa besh daqiqa chin ko‘ngildan xursand bo‘lishardi.

Yosh markiz qo'l keladigan narsa topib chiqish uchun mehmonxonaga ketdi. U yerdan „pushtilar oilasi“ dan bo'l-gan kichkinagina xitoyi choynak topib chiqdi, uning ichiga miltiqdori to'lg'azdi-da, jo'mragidan pilik qo'yib yondirib haligi jahannam mashinani olib yugorganicha mehmonxonaga ketdi.

U yugurib qaytib chiqib, eshikni berkitdi. Hamma nemislar chehralarida, nima bo'lar ekan, deb turgan go'daklar singari, tabassum bilan kutib tarishar edi; portlash binoni titratib o'tishi bilan hamma birdan mehmonxonaga qarab chopdi.

Hammadan oldin mademuazel Fifi kirdi va nihoyat boshi uchib tushgan terrakot Venerasi oldiga borib, shodligi ichiga sig'may chapak chaldi; har kim ham poldan chinni parchasini olishga shoshar, yangi portlash natijasini tekshirar va chinnidagi qaysi darzlar avvalgi portlashdan qolganligi haqida bahslashishar edi; mayor esa yangi chiqqan Neron usuli bilan tormor qilinayotgan san'at asari parchalari sochilib yotgan katta zalga otalarcha nazar tashlab turardi. U yerdan xursand bo'lib chiqib, hammadan oldin kelayotgan komandir:

– Bugun juda soz bo'ldi, – dedi.

Lekin oshxona papiros va miltiqdorining bir-biriga qo'rishib chiqqan dudiga to'lган, nafas olib bo'lmashdi. Komanadir derazalarni ochib yubordi, qadahlarda qolgan konyakni ichib qo'ygani qaytib kirgan ofitserlar ham o'zlarini darhol ochiq turgan deraza yoniga olishdi.

Derazadan uyg'a rutubatli va zax hidi kelib turgan havo kirar, ularning soqoliga suv zarralari qo'nardi. Nemislar yomg'iri ostida egilayotgan katta daraxtlarga, pastak qora bulutlardan tushib, katta sayhon yerlarni ko'mib borayotgan selga qarab turishardi. Uzoqda yomg'ir pardasi orqali butxonaning surrang cho'qqilari ko'rinish turardi.

Prussaklar kelganidan beri butxona jomingiz ovozi chiqmagan. Bosqinchilar butun okrugda bittagina qarshilikka: butxona sukuliga duch kelishdi. Kyure uyida turgani kel-

gan pruss soldatlarini indamasdan qabul qilar va boqardi. U dushman komandirining bir shisha pivo yoki Bordo vinosini baham ko'raylik, degan taklifini ham bir necha marta qabul qildi. Komandir bo'lsa Kyurening o'rtada turib qiladigan marhamatlaridan foydalanardi-yu, lekin butxonaning qo'ng'iroq'ini biron marta bo'lsa ham urdirishning uddasidan chiqa olmas edi. Kyure qo'ng'iroq chalishdan ko'ra o'zini o'qqa tutib berishni ortiqroq ko'rardi. U okkupatsiyaga bo'lgan o'z noroziligini shunday g'arazsiz, unsiz norozilik bilan bildirardi, bu xilda indamay turish, uning aytishicha, quroli qon emas sabrdan iborat bo'lgan xudojo'y odamga munosib norozilik edi. O'n chaqirim tevarak-atrofdagilar o'z butxonasining o'chakishib un chiqarmay turishi bilan xalq motamini ko'rsatishga jasorat qilayotgan qahramon abbat shantavuanni maqtay boshlashdi.

Bu qarshilikdan ruhlangan butun qishloq xalqi qanday qilib bo'lsa ham o'z pasterini qo'llab-qo'ltilqlashga hozir, har qanday balo-qazoga chidashga tayyor edi, chunki bu unsiz qarshilik bilan abbat millat sha'n-sharafini saqlayotir deb bilishardi. Dehqonlar bo'lsa shunday qilish bilan go'yo vatanga Belfora bilan Strasburgdan kam xizmat qilmayotganday, durust ibrat ko'rsatayotganday va qishloqlarining nomi shu bilan abadiy o'chmaydiganday his etishardi; boshqa hamma jihatdan ular g'oliblarga – nemislarga bo'ysunishardi.

Komandir va ofitserlar bu beziyon dovyuraklikdan kulislar va yerli xalq o'zlariga nisbatan xushmuomala qilgani, nima desalar ko'nganligi uchun nemislar ularning bu tilsliz izhor qilinayotgan vatanparvarligiga toqat qilishayotgan edi.

Faqat yosh markiz Velgelm, agar ixtiyor uning qo'lida bo'lsa, butxonani qo'ng'iroq chalishga majbur qilardi-ya. Boshlig'inining haligi o'jar Kyurega nisbatan diplomatlik bilan muruvvat qilishi uni o'rtardi; u komandirdan „bir martagina, faqat bir marta shunchaki, kulgi uchun qo'ng'iroq chaldirishga“ ruxsat so'ramagan kun yo'q edi. So'raganda ham mushukdek erkalanib, xotinchasiga ishva qilib, nozini

o‘tkazmoqchi bo‘layotgan injiq ma’shuqa singari ojizona tovush bilan iltimos qilardi. Ammo komandir aslo ko‘nmas va mademuazel Fifi alamini „mina quyish“dan olardi.

Beshala ofitser ham nam havodan nafas olib bir necha daqiqa deraza yonida turishdi. Nihoyat, podporuchik frits iljayib:

— Qizlar sayohatga chiqqanda havo yomon bo‘ldi-da, — dedi kulib.

Shu bilan har kim o‘z ishiga qarab ketdi, ovqat hozirligini o‘z zimmasiga olgan kapitanning tashvishi ko‘p edi.

Kechqurun yana yig‘ilishdi va bir-birlarini ko‘rib kulib yuborishdi: hammalari betyog‘i surtgan, atir sepgan, silanib-siypangan paradga chiqqan odamday ozoda kiyinishgan edi. Komandirning sochidagi oqi ertalabgiga qaraganda kamayib qolganday ko‘rinar, kapitan bo‘lsa soqolini: shunday toza qiribdiki, burni tagidagi mo‘ylovi lovullab yonib turganday bo‘lib qolipti.

Yomg‘ir tinmagan bo‘lsa ham derazalarni yopishmadi. Ora-sira birov borib derazadan qulq solardi. Soat oltidan o‘n daqiqa o‘tgach, baron uzoqdan kelayotgan arava tovushini eshitdi. Hamma derazaga yopirildi; tezda eshik yoniga soyabonli arava kelib to‘xtadi: yelkalarigacha loy sachrab bug‘ chiqarib, pishqirib kelayotgan to‘rt ot, yo‘rtganicha shahardan tortib kelgandi.

Besh xotin – besh nozanin zinadan chiqqa boshladni, bularni kapitanning „labbay, taqsiri“ xat eltidan bergan o‘rtog‘i diqqat bilan, chertib-chertib tanlab bergandi.

Xotinlar ortiqcha tarang qilishmadi, chunki bularning yaxshi pul to‘lashlaridan ko‘ngillari to‘q edi. Uch oy ichida ular prussaklarni ancha yaxshi bilib olishgan bo‘lsa ham, lekin odamlarga va sharoitga ko‘nikishgan edi. Yo‘lda kela turib hali so‘nib yetmagan vijdonning ta’nalariga javoban: „Kasbimiz shu bo‘lgandan keyin na chora!...“ deb o‘zlariga tasalli berishardi.

Xotinlar to‘g‘ri mehmonxonaga qarab yurishdi. Xarobaga aylangan mehmonxona chiroq yorug‘ida yana ham

ko‘ngilsizroq ko‘rinar, uy egasi devor orasiga yashirib ketgan qimmatbaho kumush asboblar qo‘yilgan stol bu yerni bosqinchilik qilib kelgandan keyin ovqatlanmoqchi bo‘layotgan kallakesarlar uyasiga o‘xshatib ko‘rsatardi. Kapitan, shodligi ichiga sig‘may, darhol xotinlarni egallab olib, xuddi kunda kerak bo‘lib turadigan buyumday, u yoq-bu yog‘ini aylantirib, quchoqlab, hidlab ko‘rib, ularga aysh-ishrat matohiday baho bera boshladи, uch yigit bittadan qiz tanlab olmoqchi bo‘lgan edi, u qattiq qarshi turdi, chunki ofitserlarning mansabiga qarab, shu yerda ham zinhor rutbani buzmasdan, odillik bilan o‘zi bo‘lib bermoqchi edi.

Shunday qilib, e’tirozlar, bahslar, ginalarga o‘rin qolmasin deb u qizlarni bo‘yiga qarab bir qatorga tizdi va komanda berayotgan kishiday eng novchasidan:

- Oting nima? – deb so‘radi:
Qiz ham jo‘rttaga yo‘g‘on ovoz bilan:
– Pamela, – dedi.
– Pamela nomli birinchi nomer komandirga, – dedi kapitan.

Ikkinci – Blondinka deganini o‘pish bilan kapitan uni o‘ziga tanlaganini bildirdi. To‘ladan kelgan Amanda degani poruchik Ottoga, Yeva-Svekla degani podporuchik fritsga berildi. Eng yosh va nozik ofitser markiz Velgelm fon Erikka kapitan eng kichkinasini – qora soch, ko‘zлari qop-qora siyohdek Rashel degan yoshgina yahudiy qizni berdi. Uning qanshari sal pastroq, burun uchi ko‘tarinki bo‘lib, shu nasl ichidan bitta chiqqan va ularning hammasi qirg‘iyburun bo‘ladi degan qoidani buzib turardi.

Xotinlarning hammasi ham chiroyli, to‘lagina, bir-biridan uncha farq qilmaydigan, kundalik hayotlari, mashg‘ulotlari bir xilda bo‘lgani va fohishaxonaning aksi urganidan bo‘lsa kerak, xulqlari, rang-ro‘ylari ham bir xilda edi.

Yosh yigitlarning uchchalasi ham yo‘ldan kelganlari uchun yuvintirib-tarantirib kelishni bahona qilib o‘z xonimlarini darhol olib ketishmoqchi bo‘ldi: ammo kapitan bular

tashqariga chiqib kelsa yana boshqa xotinni xohlab qolishlari va taqsimotni buzishlarini ko'zda tutdi-da, o'zlari ham chinnidek toza, dasturxonga o'tiraversa bo'ladi, deb qaytar-di. Uning tajribakorligi yengdi. Ular behisob bo'salar, intizorlik bo'salari bilan chegaralanib qo'ya qolishdi.

Birdan Rashel qalqib yo'taldi, ko'zlaridan yosh va burun teshiklaridan tutun chiqdi, markiz o'parkan, uning og'ziga tamaki tutunini puflab yuborgan edi. Qizning jahli ham chiqmadi, og'iz ochib indamadi ham, faqat egasining ko'zlariga qattiq tikilib qo'ydi va qora ko'zlarining ich-ichida g'azab o'ynadi.

Hamma o'tirdi. Komandir ham juda xursand edi: u o'ng tomoniga Pamelani, chap tomoniga Blondinkani o'tqizdi va salfetkaning taxini ocharkan:

— Zap yaxshi ish qildingiz-da, kapitan, — dedi.

Poruchik Otto bilan podporuchik Frits o'z xonimlari-ga go'yo ular kibor xotinlardan bo'lganday muomala qilib, ularni sal xijolatga qo'yishmoqda edi. Ammo baron fon Kelvengshteyn o'zini o'z muhitida his qilar, ochilib-sochilib, og'ziga kelgan aynima gaplarni qaytarmas, silliq taralgan qizg'ish sochlari gacha lovullab o'tirardi. U xotinlarga fransuz-reyn shevasida so'zlar, uning mayxonalarga xos shirin so'zлari kemshik tishlari orasidan tupuk aralash fontandek otilib chiqib, xotinlarga sachrardi.

Ammo xotinlar bu so'zlarning biron og'iziga tushunishmasdi; gapira olmaganidan og'zidan noto'g'ri chiqayotgan iflos va uyat so'zлarni ishlata boshlagandan keyingina uning so'zлari xotinlarni qiziqtirdi. Xotinlar takrorlasin deb, baron, yaramas so'zлarni jo'rttaga buzib aytayotganda xotinlar yonlarida o'tirgan erkaklarga tashlanib, kula boshlashdi. Ular jon deb baronning so'zларини takrorlashardi, birinchi shishadan keyinoq mast bo'lishib, odatdagи holatlariga kelishdi. O'rganib qolgan qiliqlarini ishlatib, o'ng va chap tomonlarida o'tirganlarni o'pishar, yonidagilarni chimchilashar, chinqirishar, to'g'ri kelgan qadahdan ichishar, fransuzcha

ashulalardan va dushman bilan yaqin muomalada bo‘lganlaridan beri o‘rganib olgan nemis ashulalaridan aytishardi.

Tezda erkaklar ham yonlarida his etishi va sezishi mumkin bo‘lgan xotin borligidan dimog‘lari chog‘ bo‘lib, erib ketishdi, o‘zlarida yo‘q hayqirishib idish-tovoqlarni sindira boshlashdi, har stol orqasida turgan soldat loqaydlik bilan ularga xizmat qilardi.

Yolg‘iz komandirgina o‘zini tutib o‘tirardi.

Markiz fon Eyrik – mademuazel Fifi bo‘lsa Rashelni tizzasiga oldi va loqayd ehtiros bilan dam uning bo‘yniga tushib turgan qop-qora jingalak sochlaridan o‘par, dam ko‘ylagining yoqasidan chiqayotgan latif haroratni hidlab, orom olardi. Ba’zan kuchining boricha yahudiy qizni bag‘riga qattiq bosib uning g‘unchaday lablaridan shunday qattiq o‘pardiki, ikkalasining ham nafasi qaytib ketguday bo‘lardi; to‘satdan qizning labini tishlab oldi, qizning engagidan ko‘kragiga qon oqib tusha boshladi...

Qiz yigitning ko‘zlariga yana qattiq tikilib, qonini artarkan:

– Buning uchun tovon to‘laydilar, – dedi.

Mademuazel Fifi zaharxanda qilib:

– Nima bo‘pti, to‘layman, – dedi.

Ichkilik keltirildi. Shampan vinosi quyila boshlandi. Komandir o‘rnidan turdi va go‘yo malika Avgustaning sog‘ligiga ichayotganday qadah ko‘tardi-da:

– Xonimlarimizning sog‘ligi uchun! – dedi.

Shundan keyin ketma-ket, mast soldatlarga xos, ayniqsa tilni yaxshi bilmaganlari uchun aynima chiqayotgan uyatsiz hazillar bilan aralash qadah ko‘tarishlar boshlandi.

Nemislar, biri orqasidan ikkinchisi turib, xotinlar oldida o‘zlarini aqlliroy qo‘rsatishga va majlis ahlini kuldiradigan so‘z aytishga urinishardi. Ancha mast bo‘lib, ko‘zları suzilib, tillari zo‘rg‘a so‘zga kelayotgan xotinlar har gal quturib chapak chalishardi.

O‘tirishga ruh kirgizish maqsadida kapitan yana qadah ko‘tarib:

– Yuraklarni taslim qilganimiz uchun ichaylik! – dedi.

Shunda ichkilikdan boshi aylangan, asl shvars Valtayig‘iga o‘xhash poruchik Otto mastlikda bo‘ladigan vatanparvarligi tutib ketib, irg‘ib o‘rnidan turdi va:

– Fransiyani yengganimiz uchun! – deb hayqirdi.

Xotinlar qanchalik mast bo‘lmashin, jim bo‘lib qolishdi. Rashel bo‘lsa seskanib ketib, unga qaradi va:

– Menga qara, hali shunday fransuzlar borki, ularning oldida bu gapni aytgani botinolmaysan, – dedi.

Ichkilikdan kayfi chog‘ bo‘lgan yosh markiz Rashelni tizzasidan tushirmay turib qah-qah uring kuldil.

– O‘-xo‘! Men hali unaqasini ko‘rganim yo‘q. Bizlar qayerga borsak, ular ura qochishadi! – dedi.

Qizning juda jahli chiqdi va uning basharasiga qarab:

– Yolg‘on aytasan, iflos! – deb qichqirdi.

Mademuazel Fifi to‘pponcha bilan otib, ko‘zlarini o‘pirgan rasmga qaraganiday, qizning ko‘zlariga bir zumgina baqrayib qaradi-yu, yana xandon tashlab kulib yubordi.

– Shundaymi, jonon! Agar ular qo‘rroq bo‘lmajanlarida bizlar bu yerga qandoq kelardik? – dedi va tobora achchig‘i chiqdi, – bu yerning xo‘jayini bizlar bo‘lamiz! Butun Fransiya bizniki!

Rashel sakrab uning tizzasidan tushdi va o‘zining stuliga o‘tirdi. Mademuazel Fifi o‘rnidan turdi, qo‘lidagi qadahni stol ustidan cho‘zib:

– Butun Fransiya va fransuzlar, Fransiyaning butun yer-suvi, o‘rmonlari, uylar hammasi bizniki, – dedi.

Qolgan mast-alast nemislarning hammasi, hayvoniy urishqoqligi xuruj qilib, qadahlarini ko‘tarishdi: „Yashasin, Prussiya!“ deb qichqirishdi va bir ko‘tarishda qadahlarini bo‘shatishdi.

Qizlar norozilik bildirishmadi, faqat qo‘rquv ichida jim bo‘lishdi. Hatto Rashel ham bir narsa degani botinolmay jim qoldi.

Shunda yosh markiz to‘ldirib shampan vinosi quyilgan qadahni yahudiy qizning boshiga qo‘ydi-da:

– Fransiyaning butun xotinlari ham bizniki! – deb bairdi.

Qiz irg‘ib o‘rnidan turib ketdi, qadah yerga tushib sindi, tiniq vino bolani cho‘qintirish marosimidagi suvday, qizning qora sochlariga quyildi. Qiz hamon kulayotgan ofitserning basharasiga qattiq tikilganicha, lablari titragan holda, g‘azabiga chidolmay tutila-tutila:

– Yo‘q, yo‘q, yolg‘on aytasan, hech qachon Fransiyoning xotinlari sizniki bo‘lmaydi, – dedi.

Mademuazel Fifi huzur qilib kulib, stolga o‘zini tashladi.

– Mana bunisi qiziq! Ha, bo‘lmasa sen nima qilib bu yerga kelding, go‘zalim? – dedi.

O‘zini yo‘qotib qo‘ygan Rashel uning so‘zlarini yaxshi tushuna olmagani uchun indayolmay qoldi, keyin o‘zini tutib olib, uning so‘zlarini anglagach, g‘azab bilan javob berdi:

– Men! Men xotin emasman, men fohishaman, boshqalarni prussaklar ko‘rib bo‘pti, – dedi.

Qiz so‘zlarini tamom qilib ham bo‘lмаган edi, mademuazel Fifi uning yuziga aylantirib bir tarsaki soldi, yana urmoqchi bo‘lib qo‘l cho‘zganida, g‘azabidan esini yo‘qtayozgan qiz epchillik bilan stoldagi pichoqchani oldi, buni hech kim payqamay ham qoldi, kumush pichoqni mademuazel Fifi bo‘g‘ziga urdi.

Mademuazel Fifining og‘zi ochilib, ko‘zlari olayib, so‘zi bo‘g‘zida qolganicha jim bo‘ldi.

Hamma shoshib, qiy-chuv qilib o‘rnidan turdi, to‘s-to‘polon ko‘tarildi, Rashel bo‘lsa bir stolni poruchik Ottoning oyog‘iga ag‘anatdi, poruchik bor bo‘yicha yiqilib tushdi. To tutib olishguncha bo‘lmay Rashel derazani ochdi-yu, hamon quyib turgan yomg‘irga, qorong‘ilikka o‘zini tashladi.

Shu ondayoq mademuazel Fifining joni chiqqan edi. Frits bilan Otto qilichlarini qinidan sug‘urib, haligi xotinlarni chopib tashlamoqchi bo‘lishdi, xotinlar ularning oyoqlariga yiqilib yolvorishdi. Mayor qilichbozlikni arang to‘xtatib qoldi va esi chiqib ketgan to‘rtta xotinni alohida uyga qamab,

ikki soldatni qorovul qilib qo'yishni buyurdi, keyin jangga hozirlanayotgan komandirday, qochoqni quvlashga hozirlik ko'ra boshladi, uni tutib olishlariga ishonar edi.

Qahr-g'azab qamchini bilan savalangan ellikta soldat istirohat bog'iga tarqaldi. Yana ikki yuztasi vodiydag'i o'rmon va uylarni izlashga yuborildi.

Bir zumda idish-tovoq yig'ishtirib olingen stol – sartaxtaga aylandi. Kayfi tarqalgan to'rt ofitser deraza yonida dili siyoh bo'lib qorong'ilikka qarab turishardi. Ularning basharasi harbiy xizmatni ado etayotgan kishiniki singari tund edi.

Yomg'ir tinmagan. Zulmat: yog'ayotgan, oqayotgan, tomayotgan suvning tinimsiz yengil shildirashlariga to'lgandi.

Birdan o'q uzildi, uning ortidan olisda yana o'q ovozi chiqди, to'rt soat ichida uzoq-yaqinda bo'layotgan otishlar, bir joyga to'planish uchun berilayotgan signallar, bir-birini chaqirayotgan g'alati bo'g'iq ovoz bilan baqirishlar eshitilib turdi.

Tong otarda hamma qaytib keldi. Tundagi qiz axtarish mahalidagi to's-to'polonda soldatlar bilmasdan o'z o'rtoqlaridan ikkitasini otib o'ldirib, uchtasini yarador qilishihti.

Rashelni topib bo'lindi. Undan so'ng aholining payiga tushildi, butun uylarni ostin-ustun qilib qaraldi, butun joylar ni kezib, izlab, axtarib ko'rildi. Yahudiy qiz nom-nishonsiz g'oyib bo'ldi.

Bu haqda ma'lumot olgan general undan butun armiyaning ibrat olishidan cho'chib, ishni bosti-bosti qilib qo'ya qolishni buyurdi. Komandirga intizomga chaqiruvchi jazo berdi, u ham qo'l ostidagilarni yaxshilab koyib qo'ydi. General:

– Biz ko'ngil ochish yoki fohisha xotinlarni ermak qilish uchun urushib yurganimiz yo'q, – dedi.

Va graf fon Farlsberg alamini yerli xalqdan olmoqchi bo'ldi. Andishasizlik bilan vahshiylig qilish uchun bahona zarur bo'lganidan u Kyureni chaqirtirdi va markiz fon Ey-

rikni ko‘mish marosimida butxona qo‘ng‘iroq chalsin, deb buyruq berdi.

Kutilmagan holda Kyure itoat va mulozamat bilan bo‘ysundi. Atrofini qurolli soldatlar o‘rab, saqlab, kuzatib borayotgan mademuazel Fifi jasadini go‘ristonga olib borish uchun Yuvil qasridan olib chiqqanlarida butxona birinchi marta zang urib, o‘lim marosimidan xabar berdi. Qo‘ng‘iroqlar go‘yo o‘rgangan qo‘lda erkalanayotganday aniq va tiniq ovoz berardi.

Kechqurun yana zang urdi, ertasiga ertalab va har kuni zang uradigan bo‘lib qoldi, qancha desalar shuncha ura berardi. Ba‘zi-ba‘zida, tun kechada, kim bilsin nimadan shodlanganday, ajib bir holda o‘z-o‘zidan zang urilib tun qorong‘usida muloyim va qisqa ovoz tarqatardi. Yerli dehqonlar hammasi bir og‘izdan qo‘ng‘iroqlar sehrlangan deyishar va u yerga qo‘ng‘iroq chaluvchi bilan Kyuredan o‘zga hech kim chiqishga jur‘at etolmasdi.

Minorada yolg‘iz o‘zi, qo‘rquv ichida haligi sho‘rlik qiz yashardi. Kyure bilan qo‘ng‘iroq chaluvchi unga yashirinchcha ovqat chiqarib berishardi.

To german askarlari ketguncha, qiz o‘sha yerda turdi. So‘ng, bir kun kechqurun Kyure qo‘shnisi – nonvoyning aravasini so‘rab oldi-da, asirani Ruan chegarasiga eltilib qo‘ydi. Ruhoni yaxrlasharkan, uni o‘pib qo‘ydi. Aravadan tushgach, u yugurib fohishaxonaga yetib oldi. Bekasi uni o‘lib ketgan deb yurardi.

Bir qancha vaqt o‘tgach, uning qahramonlarcha qilgan ishiga shaydo bo‘lgan, eski gap-so‘zlarga ahamiyat bermaydigan bir vatanparvar uni fohishaxonadan olib chiqdi va keyincharoq unga uylandi. U ham boshqa ko‘p xonimlardan qolishmaydigan xonim bo‘lib qoldi.

DARBADAR

U qirq kundan beri yo‘l yurib ish izlar edi. Lamansh departamentidagi o‘zi tug‘ilib-o‘sgan Vil-Avare qishlog‘ini tashlab ketdi, chunki u yerdan ish topolmadi. U oilada to‘ng‘ich o‘g‘il, mehnatni, halol mehnatni sevadigan yigirma yetti yashar duradgor bo‘lib, rosa ikki oy oilasiga boqim bo‘lib qoldi, baquvvat qo‘llarini qovushtirib o‘tirishdan boshqa iloji yo‘q edi, negaki, atrofni ishsizlik bosgan. Oila nonni kamdan kam ko‘rardi; ikkala singlisi kunbayiga ishlar, lekin kam pul topar, oilada eng baquvvat bo‘lgan Jak Randel esa qiladigan ishi bo‘limgani uchun boshqalarning nonini yeb o‘tiraverar edi.

U ish to‘g‘risida mahkamaga murojaat qilib ko‘rdi, sekretar unga, topilsa markaziy Fransiyada ish topilar, dedi. Mana u guvohnoma va qog‘ozlarini to‘g‘rilab, cho‘ntagida yetti frank pul bilan yo‘lga tushdi: ko‘k ro‘molga tugilgan oyoq kiyimini, ko‘ylak-lozimini hassasining uchiga ilib, yelasiga qo‘yib oldi.

U hech yerda dam olmasdan kecha-yu kunduz, yomg‘irda va oftobda uzundan uzoq yo‘l bosar, lekin mehnatkash xalq ish topa oladigan, sirli o‘lkaga sira yeta olmas edi.

Boshda u, duradgor bo‘lganimdan keyin duradgorlik qilishim kerak degan fikrda edi. Ammo borib ish so‘ragan binokorlik korxonalarida buyurtma yo‘qligidan ishchilarni bo‘shatishga to‘g‘ri keldi, deb javob berishar edi. Bor pulini xarajat qilib bo‘lgandan keyin yo‘lda qanday ish to‘g‘ri kelsa shuni qilishga qaror qildi.

Shunday qilib, avval yer ham qazidi, otboqar ham bo‘ldi, tosh ham yo‘ndi, o‘tinchilik ham qildi, daraxt ham kesdi, quduq ham tozaladi, ohak ham kuydirdi, shox bog‘ladi, tog‘larda echki boqdi – hammasini bir necha su uchun qildi, chunki bir-ikki kunlik ish topgani bilan ham, qo‘li qattiq pudratchi va fermerlarni uning arzon mehnati qiziqtirgani uchun ham topardi.

Endi bir haftadan beri ish topolmay qoldi, hech narsasi qolmadi, yo'l bo'yidagi rahmdil bekalardan tilab olgan qoq non bilan bir amallab kun kechirib borardi.

Kech kirmoqda. Jak Randel oyog'ini zo'rg'a sudrab, ochlikdan qiynalib, butkul noumid bo'lib, yo'l bo'yidagi maysalardan yalangoyoq borardi: u yagona oyoq kiyimini ehtiyotlar, boshqasi bo'lsa allaqachonlar tamom bo'lgandi. Kech kuz, shanba kuni edi. Daraxtlarning yalang'och shoxlarida shamol g'uvullar, osmondag'i qora va kulrang bulutlarni surib borardi. Yomg'ir hidi kelib turardi. Bugun yakshanba oqshomi, atrofda hech kim ko'rinnasdi. Dalada u yer-bu yerda katta sariq qo'ziqoringa o'xshab turgan poxol g'aramlari qaqqayib ko'rinnardi. Kuzgi ekin ekilgan yerlar yaydoq ko'rinnardi.

Randel ochlik, vahshiy bir ochlik, bo'rilarni odamga hamla qilishga majbur qiladigan ochlikni his qilardi. Horib madori qurigan Randel yerga kamroq oyoq qo'yish uchun katta-katta qadam tashlab borardi, u boshini quyi solib borarkan chakka tomirlari qattiq urar, ko'zlar qip-qizargan, tomog'i qaqrardi. Uyiga borib ovqat yeya oladigan, ro'para kelgan har bir odamni urgisi kelib, tayog'ini mahkam ushlaganicha ketayotgandi.

U yo'lning chetiga qaradi, ko'ziga qazilgan-u, terilmay qolgan kartoshkalar ko'ringanday bo'ldi. Qani endi bir necha dona kartoshka topib olsa, qurigan shoxlarini yig'ib, zovurda o't yoqib, to'q tutadigan issiqliqina kartoshkalarni oldin sovuq qotgan qo'llarida ushlab turib, so'ng xo'p yesa.

Lekin kartoshka qazish vaqtি allaqachonlar o'tib ketgan va bugun ham kechagidek, jo'yaklardan sug'urib olgan xom lavlaginigina yergi, xolos.

So'ng ikki kun ichida u xayolga cho'mib qadamini to'bora katta-katta qo'yib, baralla so'zlab borardi. Shu mahalgacha hech o'ylashga to'g'ri kelmagandi, chunki butun aqlini, butun oddiy qobiliyatini mehnatga sarf qilardi. Lekin horg'inlik, topilmas ishni betinim izlash, ishga olinmaslik,

to'ng gaplar, ko'chada tunashlar, ochlik, uy-joyi bor odamlarning unga – darbadarga bo'lgan nafrati, „uyingizda tur-sangiz bo'lmaydimi?“ deb har kuni beriladigan savollar, qo'lidan ish kelgani va ishga mohir bo'lGANI holda ish to-polmaslik alami, uyida bir tiyinsiz qolgan oilasini o'ylash – uning ko'nglini kundan kun, soatma-soat, daqiqama-daqiqa zo'raya borgan kuchli g'azab bilan to'ldirar va og'zidan g'ayriixtiyoriy ravishda g'azabli gaplar chiqib ketardi.

U yalangoyoq toshlarga qoqilar kan:

– Bunday baxtsizlik... tolesizlik... oh, cho'chqalar... odamni ochidan o'ldirishyapti... duradgorni-ya... oh, cho'chqalar, cho'ntagimda to'rt su ham yo'q... to'rt su-ya... yomg'ir ham yog'a boshladi... oh cho'chqalar! – derdi.

U taqdirningadolatsizligidan nolir va buyuk ona bo'l-mish so'qir tabiatningadolatsiz, berahm, bevafoligi uchun barcha va barcha kishilarni ayblardi.

U ovqat mahalida uylarning mo'risidan chiqayotgan ingichka kulrang tutunlarga qararkan, tishini g'ijirlatib, „cho'chqalar!“ deb takrorlardi.

Shu uylardan biriga kirgisi, uy egasini o'ldirib, ularning o'rniga dasturxonga o'zi o'trigisi kelar, lekin bunday qilish insonning o'zi qiladigan va zulm hamda o'g'irlik deb atala-digan boshqa bir adolatsizlik bo'lishini xayoliga ham keltir-masdi.

– Bundan chiqadi, men endi yashash huquqidan mahrum ekanman-da... hamon meni ochimdan o'ldirmoqchi bo'lgan-laridan so'ng... axir, men faqat ish so'rayotirman-ku... oh, cho'chqalar! – deb to'ng'illardi.

Butun vujudidagi og'riq, och qolgan qornidagi og'riq, dilidagi ozor xuddi xatarli kayfdek boshiga chiqar va uning miyasida oddiy fikr tug'dirardi.

„Men yashashga haqliman, chunki nafas olib turibman negaki, havo hamma uchun yaratilgan. Demak, meni nonsiz qoldirishga haqlari yo'q!“

Mayda, muzdekk yomg'ir quymoqda. Randel to'xtadi va to'ng'illab:

– Bunday baxtsizlik... uyg'a yetguncha shu ahvolda yana bir oy yo'l yurishim kerak... – dedi.

Endi odamlar shubha nazari bilan qaraydigan katta yo'l lardan ko'ra o'z yurtida biron ish topishiga ko'zi yetib, uyiga qaytib ketmoqda edi.

Duradgorlik kasod bo'lsa, qora ishchi bo'ladi, ohak kuydiradi, yer qaziydi, yo'l tuzatadi. Agar kuniga yigirma su topsa ham har qalay noniga yetadi-ku.

Bo'ynidan ichiga suv kirmasligi uchun ro'molidan qolgan bir parcha latta bilan bo'ynini bog'ladi. Lekin yomg'ir birpasda yupun egnini ivitib yuborganini his qildi va dunyodan umidini uzgan, boshpanasiz qolgan, boshini qayoqqa urishini bilmaydigan, dunyoda biror joyi yo'q odamdek atrofga g'amgin qarardi.

Dalalarni qorong'ulikka ko'mib kech kirmoqda. Uzoqda, o'tloqda yotgan sigirning qorasiga ko'zi tushdi. Yo'l bo'yidagi zovurdan xatlab o'tib, sigirning oldiga ketdi, nega uning oldiga borayotganini o'zi aniq bilmas edi.

U yetib borganida sigir katta boshini ko'tardi. Randel: „Agar idishim bo'lsa sut ichib olardim“, deb o'yladi.

U sigirga, sigir unga qaradi, so'ngra kuchi boricha sigirning biqiniga tepib:

– Tur! – dedi.

Sigir sekin qo'zg'alib turdi, uning yelini osilib turardi, shunda odam sigirning tagiga kirib chalqanchasiga yotdida, uni ema boshladi. U ikki qo'li bilan sigirning to'lishgan, issiq va og'il hidi kelib turgan yelinini ushlab xiyla vaqtgacha emdi, to suti tamom bo'lguncha emdi.

Muzdek yomg'ir avvalgidan qattiqroq yog'a boshladi, butun dala bo'm-bo'sh, bosh suqqudek pana joy yo'q edi. Randel sovqotdi, daraxtzor ichra bir uyning derazasidan miltirab turgan chiroqqa qaradi.

Sigir yana gurs etib yotdi. Randel uning yoniga o'tirdi, qornini to'ydirlGANI uchun undan minnatdor bo'lib, boshini siladi. Hayvonning burnidan chiqayotgan kuchli nafasi kechki havoda ikki oqim bug'dek duradgorning yuziga urilardi.

– Qorning issiqliqinadir, – dedi duradgor.

Endi u issiq joy izlab sigirning ko‘kragi va qo‘ltiqlarini paypaslar edi. Uning boshiga ana shu issiqliqina katta qorin yonida tunash kerak degan fikr keldi. Qulayroq o‘rnashib hozirgina o‘ziga oziq bergan katta yelinga boshini qo‘yib yotdi, keyin horg‘inlikdan a’zoyi-badani bo‘shashib, darrov uyquga ketdi.

U sigirga qornini berib yotgan bo‘lsa orqasi, orqasini berib yotgan bo‘lsa qorni sovqotib necha marta uyg‘ondi, tun havosida ochiq qolgan qorni yoki orqasini isitish va quritish uchun sigirga o‘girilib yotardi va o‘sha ondayoq, o‘lar holatga yetgan odamdek, uyquga ketardi.

Xo‘roz qichqirishi bilan o‘rnidan turdi. Ufq qizarib kelmoqda, yomg‘ir tingan, havo ochiq edi.

Sigir tumshug‘ini yerga qo‘yib, hali ham uxlayotgandi, u engashib, qo‘llarini yerga tirab, uning xo‘l tumshug‘idan o‘pdi va:

– Xayr, go‘zalim... yana ko‘rishguncha... sen yaxshi sigrisan... xayr, – dedi.

Shundan keyin oyoq kiyimini kiyib yo‘lga tushdi.

U ikki soatcha to‘g‘ri yo‘l bosdi, so‘ng madori juda qurib ko‘kat ustiga o‘tirdi.

Tong otdi. Butxonalar qo‘ng‘iroq chalardi, ba‘zilari piyoda, ba‘zilari aravaga tushib borayotgan ko‘k ko‘ylakli erkaklar, oq qalpoqli xotinlar tez-tez uchray boshladni, ular yakshanba bayramini yor-u do‘satlari, qarindosh-urug‘lari bilan o‘tkazgani qo‘shni qishloqqa ketishayotgan edi.

Yigirmatacha qo‘yni haydab ketayotgan semiz bir dehqon ko‘rindi, qo‘ylar ma‘rashib, atrofga tarqalishar, chaqqon it ularni qaytarib, to‘dasiga qo‘shib qo‘yardi.

Randel o‘rnidan turdi va shapkasini olib:

– Biz mehnatkash odamga sizda biror ish topilmasmikin? Ochimdan o‘lay deyapman, – dedi.

U kishi darbadarga xo‘mrayib:

– Har qanaqa betayinga ish beravermayman, – dedi.

Duradgor yana yo‘l chetidagi zovur bo‘yiga o‘tirdi.

U yonidan o‘tib borayotgan qishloqilarga qarab, ularning ichidan ko‘ngli yumshoqroq odamni uchratishga, botinib gap aytib bo‘ladigan kishini topib iltijo qilishga urinib, an-chagacha kutib o‘tirdi.

U burjuaga o‘xshab kiyingan, egnida kamzul, soatining tilla zanjiri qorniga tushib turgan bir kishini mo‘ljalladi.

– Ikki oydan beri ish izlab yuribman, – deb so‘z boshladi u. – Hech ish topolmadim. Cho‘ntagimda bir tiyin ham yo‘q.

– Qishloqqa kiraverishda osig‘liq turgan e’lonni o‘qing. Bizning jamoada gadoylik man qilingan, bilib qo‘ying, men oqsoqol bo‘lamon. Agar tezda bu yerdan yo‘qolmasangiz qamatib qo‘yaman, – dedi qishloq boyi.

Randelning jahli chiqib:

– Qamatsangiz qamata qoling, ayni muddao bo‘ladi; ochdan o‘lishdan qutulaman, – dedi.

Yana zovur bo‘yiga o‘tirdi.

Haqiqatan ham chorak soatdan so‘ng yo‘lda ikki jandarma ko‘rindi. Ular baravar qadam tashlab, xuddi yomon kishilarga uzoqdan dahshat solish, yaqin kelmay turiboq ularni qochishga majbur qilish uchun, uchburchak yaltiroq shapaksi, sariq kamarlari va sariq tugmalarini quyosh nurida yaltilatib, asta namoyishkorona kelishmoqda edi.

Duradgor ularning o‘ziga kelayotganini yaxshi bilardi: lekin to‘satdan ich-ichidan o‘shalarga bir so‘z tashlash, turmaga tushish, so‘ng ulardan o‘ch olish istagi uyg‘onib, joyidan ham qo‘zg‘almay o‘tiraverdi.

Ular Randelni ko‘rmayotganday bo‘lib, soldatcha gurs-gurs qadam tashlab, g‘oz yurish qilib kelishmoqda edi. Uning yoniga yaqin kelganlardan keyin, go‘yo uni endigina ko‘rib qolganday bo‘lib, to‘xtashdi va qahr-u g‘azab bilan boshdan oyoq uni ko‘zdan kechirishdi.

Serjant Randelning oldiga kelib:

– Bu yerda nima qilib o‘tiribsiz? – deb so‘radi.

Randel bamaylixotir:

- Dam olib o‘tiribman, – deb javob berdi.
- Qayerdan kelayotirsiz?
- Kelayotgan joylarimni bir-bir aytib bersam bir soat ham yetmaydi.
- Qayerga ketayotirsiz?
- Vil-Avarega.
- U qayerda?
- Lamansh departamentida.
- O‘sha yerlikmisiz?
- O‘sha yerlikman.
- Nega u yerdan keldingiz?
- Ish izlab.

Serjant aylanib jandarmaga qaradi-da, hammadan bir xilda yolg‘on eshita berib toqati toq bo‘lgan odamday g‘azab bilan:

- Darbadarlarning hammasi shu gapni bilib olgan, axir men ularni juda yaxshi bilaman-ku, – dedi.

Yana so‘roq boshlandi.

- Hujjatlaringiz yoningizdami?
- Ha, yonimda.
- Qani ko‘rsating-chi.

Randel cho‘ntagidan titilib, yirtilib, kir bo‘lib ketgan hujjatlarini, guvochnomasini chiqarib jandarmaga uzatdi.

U utila-utila harfni harfga urishtirib o‘qidi, so‘ng ishon-gach, xuddi aldangan odamday alam qilib qaytarib berdi.

Biroz o‘ylanib turgandan so‘ng yana:

- Pulingiz bormi? – dedi.
- Yo‘q.
- Hech yo‘qmi?
- Hech.
- Bir tiyiningiz ham yo‘qmi?
- Bir tiyinim ham yo‘q.
- Unday bo‘lsa qanday kun kechirayotirsiz?
- Xayr berishadi.
- Demak, xayr so‘rab yurar ekansiz-da!

Randel shartta:

– Ha, so‘ray olgan chog‘imda so‘rayman, – dedi.

– Men sizni yo‘l bo‘yida devonachilik qilib, darbadar yurganingizni dalil bilan tutib oldim. Katta yo‘lda, hayot kechirish uchun bir tiyin pulsiz, qilar ishingizning tayini yo‘q yurgan ekansiz, qani, bu yoqqa yuring.

Duradgor o‘rnidan turdi.

– Qayerga desangiz boraveraman, – dedi u.

Buyruq ham kutmasdan ikkala jandarmaning orasiga kirarkan:

– Yuring, qamasangiz qamay qoling. Hech bo‘lmasa yomg‘ir yoqqanda boshpana bo‘ladi-ku, – dedi.

Chorak chaqirim naridagi yaproq to‘kayotgan daraxtlar orasidan cherepitsa yopilgan tomlari ko‘rinib turgan qishloqqa qarab ketishdi.

Ular qishloqdan o‘tib ketayotgan chog‘larida butxonada ibodat boshlangan edi. Maydon to‘la odam, orqasidan bir gala bola ergashdi, jandarmalar olib ketayotgan gunohkorni ko‘rish uchun yo‘Ining ikki chetiga darhol tomoshabinlar tizilishdi. Dehqonlar va dehqon xotinlar ikki jandarma o‘rtasida ketayotgan mahbusga qarashar va ko‘zlarida g‘azab o‘ti yonar edi; ularning darbadarga tosh otgisi, tirnab terisini shilib olgisi, tepkilagisi kelardi. Hamma uning nima qilganini – o‘g‘irlilik qilganmi, yo odam o‘ldirganmi – bilishga qiziqardi. Sobiq spagi qassobi: „Askarlikdan qochgan bu“, dedi. Tamakifurush qaysi kuni ertalab qo‘liga ellik santimlik soxta tanga berib ketgan odamga o‘xshatdi. O‘roq, randa kabi mollar sotadigan do‘kondor o‘ylab-netib o‘tirmasdan, beva xotin Maleni o‘ldirib ketgan, yarim yildan beri politsiya izlab topolmay yurgan qotil shu, dedi.

Jandarmalar olib kirgan qishloq mahkamasining zalida Randel muallim bilan yonma-yon stolda o‘tirgan oqsoqolni ko‘rdi.

– Kim! – dedi hokimiyat vakili. – Sizmisiz, oshna. Axir men aytgan edim-ku, qamab qo‘yishadi deb. Xo‘s, serjant, bu kishi kim ekanlar?

– Uy-joysiz darbadar, oqsoqol janoblari, o‘zining iqrori-cha, na bir tiyin puli bor-u, na buyumi, devonachilik qilib, darbadar yurgan holda qo‘lga tushdi. Hujjat va guvohnomasi durust.

– O‘sha qog‘ozlarni menga ko‘rsating, – dedi oqsoqol.

Oqsoqol qog‘ozlarni oldi, bir-ikki qayta o‘qib chiqib, qaytarib berarkan:

– Yonini qarang, – dedi.

Randelning yonini qarashdi, hech narsa topilmadi. Oqsoqol biroz xijolat bo‘lganday ko‘rinardi.

– Ertalab katta yo‘lda nima qilib o‘tirgan edingiz? – deb so‘radi u.

– Ish izlab yurgan edim.

– Ish izlab? Katta yo‘lda-ya?

– Ha, bo‘lmasa qandoq qilay? O‘rmonga kirib pisib yotaymi?

Ular kushanda toifadagi yirtqichlardek bir-birlariga o‘q-rayib turishdi. Hokimiyat vakili:

– Hozir buyruq beraman, sizni qo‘yib yuborishadi, lekin bundan so‘ng qo‘limga tusha ko‘rmang! – dedi.

– Yaxshisi qamatsangiz bo‘lardi, – deb javob berdi duradgor. – Sanqib yurish ham jonga tegdi.

Oqsoqol qovog‘ini solib:

– Tilingizni tiying, – dedi.

So‘ng jandarmalarga:

– Buni qishloqdan ikki yuz metr nariga eltib qo‘yinglar, yo‘liga ketabersin, – dedi.

– Ayting, hech bo‘lmasa ovqat berishsin.

Oqsoqolning jahli chiqdi:

– Bir kamimiz sizlarni boqish qoluvdi! Ha-ha-ha! Topgan gapini qarang-a!

Lekin Randel o‘z so‘zida turib oldi:

– Agar meni ishsiz qoldirib, ochimdan o‘ldiradigan bo‘lsalaring yomon yo‘lga o‘zlarining yo‘llagan bo‘lasizlar. O‘zlarining qiyin bo‘ladi, qorni kattalar.

Oqsoqol o‘rnidan turib, yana:

– Tezroq yo‘qoting, jahlim chiqmasdan oldin, – dedi.

O‘sha ondayoq jandarmalar duradgorni qo‘lidan ushlab olib ketishdi. U qarshilik qilmadi, yana qishloqdan o‘tib katta yo‘lga chiqishdi. Uni chegarani belgilaydigan simyog‘o-chdan ikki yuz metr narigacha birga olib borgan serjant:

– Qani, endi jo‘nab qoling, qayta ko‘zimga ko‘rinmang, xafa qilaman! – dedi.

Randel ham indamasdan, qayerga borayotganini ham bilmay, yana yo‘lga tushdi. U o‘n besh-yigirma daqiqaga-cha hech narsani o‘ylay olmay, gangib, to‘g‘riga qarab keta berdi.

Lekin darazalari qiya ochiq turgan kichkina bir uyning oldidan o‘tayotganda, sho‘rva hidi dimog‘idan ko‘kragiga-cha borib to‘xtab qoldi.

Ochliq chidab bo‘lmaydigan ochlik, qanoatni yo‘qotib telba qiladigan vahshiy ochlik Randelni shu qadar zo‘r kuch bilan qamrab oldi, u xuddi yirtqich hayvon singari shu uying devorlariga tashlanguday bo‘ldi.

U tovushi boricha:

– Jin ursin, endi bermaganlariga ham qo‘ymayman! – dedi ijirg‘anib.

Kuchi boricha tayoq bilan eshik qoqa boshladi! U yana qattiqroq urib:

– Hoy, hoy, bu yerda odam bormi, hoy! Oching, kim bor! – dedi baqirib.

Uydan tiq etgan tovush eshitilmadi. U, deraza yoniga borib, qo‘li bilan uni itardi, oshxonaning havosi, issiq sho‘rva, pishgan mol go‘shti va karam hidiga to‘lgan havosi gup etib tashqaridagi sovuq havoga urildi.

Duradgor bir sakrab uyga tushdi. Dasturxon ikki kishi ovqat yeydigan qilib hozirlangan ekan. Uy egalari ovqatni bayram kunlari pishiriladigan yog‘liq go‘shtdan sabzavotlar solib pishirib, pechkaga qo‘yib – ibodat qilgani ketishgan bo‘lsa kerak.

Kamin ustida ikki shisha, aftidan, to‘la shishalar orasida yangi yopilgan non turardi.

Randel avvalo nonga yopishdi va odam o‘ldirayotgandek quturib, nonni sindirdi, joni boricha katta-katta tishlab yeya boshladi. O‘sha ondayoq pishib turgan mol go‘shtining hidi uni o‘choq boshiga jalb qildi; qozonning qopqog‘ini ochib, vilka bilan undan ipga bog‘lab qo‘yilgan katta bir bo‘lak go‘shtni oldi; so‘ng karam, sabzi, piyozlardan solib likopga to‘ldirdi; stolga qo‘yib o‘tirdi-da, go‘shtni to‘rt bo‘lak kesib, huzur qilib yedi. Hamma go‘shtni va sabzavotlarni yeb ol-gach, cho‘lladi, kamin yoniga borib unda turgan shishaning bittasini oldi.

Uni stakanga quyishi bilan aroq ekanini bildi. Xo‘sh nima bo‘pti, tanasini isitadi, butun tomirlariga issiq yugurtiradi, shuncha vaqtsovqotib yurgan odamga foyda qiladi. Ichdi. Haqiqatan ham juda yaxshi bo‘ldi. U aroq ichishni ham unutib yuborgan edi. Yana stakanni to‘ldirdi, ikki ho‘plab tamom qildi. Go‘yo ichiga rohatbaxsh narsa quyilganday o‘sha ondayoq jonlanib, ko‘ngli ochildi.

U yana ovqat yeya boshladi, endi shoshmasdan, chay-nab, nonni sho‘rvaga botirib yer edi. Butun tanasi qizishdi, ayniqsa qon urgan peshanasi yonib turardi.

Uzoqda butxona qo‘ng‘iroq chalib qoldi. Ibodat tamom bo‘ldi. Qo‘rquvdan ko‘ra g‘ayriixtiyoriy his, butun mahluqlarda bo‘ladigan va xavfli onlarda ularni sezgir qiladigan, ehtiyyot bo‘lishga undaydigan his duradgorni irg‘ib turishga majbur qildi; u bir cho‘ntagiga qolgan nonni, ikkinchisiga bir shisha aroqni soldi, derazaga borib yo‘lga qaradi.

Ko‘chada hech kim yo‘q edi. Derazadan sakrab tu-shib ketdi, lekin katta yo‘ldan borgisi kelmay, dala bo‘ylab yaqinroqda ko‘rinib turgan o‘rmonga qarab ketdi.

U juda xursand, qilgan ishidan mamnun edi. O‘zini shu qadar yengil, baquvvat-abjir his qilar, daladagi pastak qo‘ralardan oyoqlarini juftlab sakrab o‘tib ketardi.

Daraxtlar tagiga borishi bilan cho‘ntagidagi shishani oldi va yurgan yo‘lida katta-katta qultum yutib icha boshladi.

Miyasi aynidi, ko‘zlar tindi, oyoqlari juda yengillashib qoldi. Endi qadim xalq qo‘shig‘ini aytan boshladi:

*Qanday yaxshi
Qanday yaxshi,
Maymunjon termoq.*

Endi u ko‘m-ko‘k maysazorda ketayotgandi. Oyog‘ining tagidagi muloyim gilam uni bolalardek sho‘xlik qilib yumalashga undardi.

U yugurib kelib do‘mbaloq oshdi, o‘rnidan turdi, yana shunday qildi, har safar yumalaganida:

*Qanday yaxshi,
Qanday yaxshi,
Maymunjon termoq – ,*

deb ashula aytardi.

Birdan u keng va uzun jarlik tagidagi so‘qmoq oldidan chiqib qoldi, uzoqda barvasta bir qizni – kimningdir xizmatchisini ko‘rdi, u obkashda to‘la ikki chelak sut ko‘tarib qishloqqa ketayotgan edi.

Randel engashib qizni poylab turdi. Uning ko‘zlar xuddi bedanani ko‘rib qolgan itdek yonardi.

Qiz uni ko‘rib boshini ko‘tarib qaradi, xandon tashlab kuldi-da:

– Ashula aytayotgan siz edingizmi? – dedi.

U javob bermadi, garchi jarlik olti fut balandlikda bo‘lsa ham, sakrab qizning oldiga tushdi.

To‘satdan uni ro‘parasida ko‘rgan qiz:

– Voy Xudo, qo‘rqitib yubordingiz! – dedi.

Lekin u qizning so‘zlarini eshitmas, mast edi, uni ochlikdan ko‘ra kuchliroq yemiradigan ikkinchi bir his qamrab olgan, ichkilik ichaverishdan va ikki oydan beri hamma narsadan mahrum bo‘lgan, kayfi taraqlagan va tabiat uning qudratli vujudiga joylagan istaklari alangalangan yosh, g‘ayratli erkak bo‘lib, quturib ketgan edi.

Qiz uning aftini, ko‘zlarini, yarim ochilgan og‘zini, uza-tilgan qo‘llarini ko‘rib, qo‘rqib, orqaga tislandi.

U qizning yelkalaridan ushlab, indamasdan yo‘lga yi-qitdi.

Qiz, qo‘lidagi chelak taraqlab yerga tushib suti to‘kilib ketgach, qichqira boshladи, lekin xilvat, kimsasiz yerda birovni yordamga chaqirish befoydaligini va endi yigit uni o‘ldirmoqchi emasligini bilib, indamadi, qarshilik ham ko‘rsatmadi, uncha jahl ham qilmadi, chunki bu yigit garchi juda qo‘pol bo‘lsa-da, kuchli edi.

Qiz o‘rnidan turgach, to‘kilib ketgan sut esiga tushib juda jahli chiqdi, oyog‘idagi kavushni yechib olib, yigitga tashlandi, sutning pulini bermasa, urib boshini yormoqchi bo‘ldi.

Yigit bu g‘azabning sababini tushuna olmagan va biroz kayfi tarqalgan, shoshib qolgan, qilgan ishidan kayfi uchib ketgan holda qocha boshladи. Qiz bo‘lsa uning orqasidan quvlab tosh otar, toshlarning ba’zi birlari borib yigitning orqasiga tegardi.

U ancha joygacha qochib borganidan keyin juda char-chaganini bildi. Oyoqlarining madori qurib, fikri chuvalib, hamma narsani unutib, o‘ylashga ham majoli qolmadi.

U bir daraxt tagiga o‘tirdi, besh daqiqadan so‘ng uxlab qoldi.

U qattiq turtkidan uyg‘ondi, ko‘zini ochib, tepasida engashib turgan ikkita yaltiroq uchburchakli shapkani va uni ushlab, qo‘llarini qayirayotgan ertalabki ikkita jandarmani ko‘rdi.

– O‘zim ham biluvdim, seni yana qo‘lga tushirsam kerak degan edim, – dedi istehzo bilan serjant.

Randel indamasdan o‘rnidan turdi. Jandarmalar uni sil-tashar va biron harakat qilguday bo‘lsa urushga ham hozir edilar: axir endi u ularning o‘ljasi, jinoyatchilarni ovlab yuruvchilarning domiga tushgan turma qushi edi, endi ular uni qo‘ldan chiqarisharmidi?!

– Marsh! – dedi jandarm.

Ular yo‘lga tushishdi. Kech kirib yer yuzini kuz kuni-ning og‘ir va mash’um qorong‘uligi bosmoqda edi.

Yarim soatdan keyin ular qishloqqa yetishdi.

Dehqonlar va dehqon xotinlar, go‘yo ularning har biri molini o‘g‘irlatganday, go‘yo har birini birov zo‘rlaganday, ablahni ko‘rib, haqorat qilgisi kelardi.

Birinchi eshikdan boshlangan so‘kishlar oqsoqol o‘ch olish uchun darbadarning taqdiriga xursand bo‘lib kutib o‘tirgan mahkamadagina tamom bo‘ldi.

Oqsoqol darbadarni uzoqdan ko‘rishi bilanoq:

– Ha, do‘stim! Qo‘lga tushibsiz-da! – deb qichqirdi.

U xursand bo‘lib qo‘llarini bir-biriga ishqadi.

– Axir men buni yo‘lda ko‘rishim bilanoq aytgan edim, – deb davom etdi oqsoqol.

So‘ng uning holiga juda xursand bo‘lib:

– Oh, ablah! Oh, rasvo ablah-ey! Endi yigirma yil turma-da yotishni bo‘yinga olib ketadigan bo‘lding-a! – dedi.

ОQSOCH QIZ SARGUZASHTI

I

Havo juda yaxshi edi, fermadagi odamlar ovqatni kundagan barvaqtroq yeishib, hammasi dalaga chiqib ketishdi.

Oshxonada oqsoch qiz Rozaning o‘zi qoldi. O‘choqdagi so‘nggi cho‘g‘lar miltirab, qozonda suv isib turardi. Qiz har zamon qozondan suv olar va derazaning ikki ko‘zidan, oynaning dog‘-dug‘ini aks ettirib, stolga tushib turgan quyosh shu’lasiga qarab-qarab shoshilmasdan idish-tovoq yuvardi.

Uchta sur tovuq stullar tagidagi ushoqlarni terib yemoqda. Oshxonaning ochiq turgan eshididan og‘ilning hidi va otxonadan bug‘lanib ko‘tarilayotgan qo‘lansa hid kirib turardi. Jimjit, issiq tush paytida xo‘roزلار qichqirishardi.

Qiz hamma yoqni yig‘ishtirdi, stolni artdi, o‘choqning kulini oldi, likoplarni oshxonaning burchagida chiq-chiq qil-

lib turgan katta yog‘och soat yonidagi taxtaga terib, uf deb qo‘ydi. U biroz lanj, ko‘ngli nechukdir g‘ash edi. U oshxonaning qorayib ketgan devorlariga, shiftning qurum bosgan to‘sinlariga, undan osilib-osilib tushgan o‘rgimchak uyalari-
ga, qoq baliqlarga, piyoz bog‘lamlariga qarab qo‘ydi, keyin o‘tirdi, qachonlardan beri oshxonaning chiqitlari to‘kilave-
rib, qasmoq bog‘lab ketgan yerdan issiq kunda bug‘lanib
chiqayotgan o‘tkir hiddan ko‘ngli behuzur bo‘lib ketdi. Bunga narigi salqinroq hujrada turgan sutning chuchmal o‘tkir
hidi ham qo‘shilib turardi. Shunga qaramay, u odaticha ish
tikmoqchi bo‘ldi, lekin negadir lohas bo‘lib ketdi-da, sof
havo olgani ostonaga chiqib o‘tirdi.

Va shu yerda, quyoshda huzur qilib, issiq yuragigacha yetganday, a’zoyi badanini yoqimli bir horg‘inlik bosganday bo‘ldi.

Eshik oldidagi go‘ngtepadan yengil bug‘ ko‘tarilib turardi. Unda tovuqlar go‘ngga bag‘rini berib rohatlanib yotar va qurt-qumursqa izlab, bir oyog‘i bilan go‘ngni sal-sal titkildi. Bularning orasida gerdayib xo‘roz yurardi. U minut sayin bir tovuqni ko‘z ostiga olar va astagina ququlab uning atrofida aylanardi. Tovuq erinibgina o‘rnidan turar va oyoqlarini egib qanotlarini yoyib unga taslim bo‘lar, so‘ng patlarini sil-
kitib changini qoqar, yana go‘ngga bag‘rini berar, xo‘roz esa o‘z g‘alabasidan darak berib qichqirar, boshqa hovlilardagi xo‘rozlar ham bir-birlariga sevgi nidosini yo‘llayotgandek qichqirishib javob qaytarishardi.

Oqsoch qiz ularga angrayib qarab o‘tirdi. Keyin boshini ko‘tarib, upa sepilgan yasama sochdek oppoq bo‘lib gullab yotgan olmani ko‘rib, qarab qoldi.

Bexosdan asov toychoq qizning yonidan o‘ynoqlagani-
cha chopib ketdi. U ikki tomoniga daraxt o‘tqazilgan, zovur
bo‘ylab ikki marta u boshidan bu boshiga chopdi, keyin bir-
dan to‘xtadi-da, o‘zi yolg‘iz yurganiga hayron bo‘lganday u
yoq-bu yog‘iga qaradi.

Qizning ham yugurgisi, o‘ynagisi, shu bilan birga birpas
jazirama issiqda yotib cho‘zilgisi, mizg‘ib olgisi ham keldi.

Ko‘zlarini yumgan holda rohat qilib istar-istamas bir necha qadam qo‘ydi, keyin tuxum olib kelgani asta tovuqxonaga ketdi. Tovuqxonada o‘n uchta tuxum bor ekan, ularni uyga olib bordi-da, javonga qo‘ydi. Lekin oshxonaning hididan yana ko‘ngli ozdi, borib maysada o‘tirgani chiqdi.

Fermaning daraxtlar bilan o‘ralgan hovlisi jimjit edi. Qulf urib o‘sgan ko‘k o‘tlar orasidagi qoqigullar porlab yonib, so‘lqildoq barra o‘tlar bahor mavsumiga yarasha mavj urib, yam-yashil bo‘lib turgandi. Olma – taglariga soya tashlagan; poxol yopilgan tomlarda yaprog‘i qilichga o‘xhash qiyoq o‘tlar o‘sgan. Otxona va bostirmalarning nami tomga yopilgan poxol orqali bug‘ bo‘lib chiqayotganday tomlar astagina hovur chiqarib turardi.

Oqsoch qiz arava va izvoshlar turadigan bostirmaga kirdi; bostirmaning orqasidagi zovurda maysa va xushbo‘y binafshalar bosib yotgan kattakon chuqur bor edi. Zovurning naryog‘ida – pastlikda tep-tekis bepoyon dala, pishayotgan ekinlar, o‘rmonlarning bir-biriga tutashgan joylari; olis-olisda to‘p-to‘p bo‘lib ishlayotgan, xuddi qo‘g‘irchoqday kichkina-kichkina odamlar; o‘yinchoqday ko‘ringan omochlarni oppoq o‘yinchoq otlar sudrab borayotganday va uning orqasida borayotgan odamning ham bo‘yi boshqiday kichkina bo‘lib ko‘rinardi.

Qiz somonxonaga chiqib bir bog‘ poxol olib tushdi, chuqurga tashlab ustiga o‘tirdi; bunday o‘tirish noqulay bo‘ldi, bog‘ni yechib poxolni yoydi va qo‘llarini boshi tagiga qo‘yib, oyoqlarini uzatib, chalqancha yotdi.

Ko‘zlar o‘z-o‘zidan astagina yumildi, butun vujudini orom beruvchi shiringina holsizlik bosdi. Endi ko‘zi ilinganda kimdir to‘satdan ikki qo‘llab ko‘kragiga chang soldi. Qiz irg‘ib o‘rnidan turdi. Bu, mana shu fermada ishlab yuradigan, qaddi-qomati kelishgan pikardiyalik Jak degan novcha yigit bo‘lib, ko‘pdan beri shu qizning payiga tushib yurgandi. Bugun qo‘yxonada qolib qo‘ylarga qaramoqda edi, qizning soyaga borib yotganini ko‘rib damini chiqarmay asta

yoniga bordi; uning ko‘zlari o‘ynab ketgan, sochlariga somonlar ilashgan edi.

U qizni quchoqlamoqchi edi, lekin kuchda undan qolish-maydigan qiz yaxshilab bir tarsaki urdi. Yigit ayyorlik qilib, qizdan uzr so‘radi. Ikkalovi yonma-yon o‘tirib so‘zlasha ketishdi. Ular dehqonchilik uchun yaxshi kelgan ob-havo, bu yil yaxshi hosil bo‘lgani, o‘z xo‘jayinlarining yaxshi odamligi, so‘ng, qo‘ni-qo‘shnilar va butun okrug to‘g‘risida, undan keyin o‘zlari tug‘ilgan qishloqlari haqida so‘zlashishdi; yoshlik chog‘larini, ko‘p yillarga, balki abadiy tashlab kelgan ota-onalarini eslashdi. Bu xotiralardan qizning ko‘ngli buzilib ketdi. Yigit bo‘lsa xayolidan nari ketmay turgan xayol orqasida surilib, qizga yaqinroq o‘tirar va o‘z mayliga berilib uning pinjiga kirar edi.

– Uh, – dedi qiz, – onamni ko‘rmaganimga ko‘p bo‘ldi, nima bo‘lsa ham kishi uyini sog‘inar ekan-da.

Qiz uzoq-uzoqlarga ma’nosiz nigoh tashlar, ko‘z-o‘ngida yiroq shimolda qolgan qishlog‘i gavdalanardi.

Yigit birdan uning bo‘yndan quchoqlab yana o‘pib oldi; lekin qiz mushtini qisib turib, uning yuziga yaxshilab bir urdi, yigitning burni qonab ketdi; yigit o‘rnidan turib boshi bilan daraxtga suyanib qoldi. Qizning rahmi keldi va uning yoniga borib:

– Qattiq tegdimi? – deb so‘radi.

Yigit kulib yubordi. Hechqisi yo‘q, faqat musht to‘g‘ri burunga tushganidan-da. Jak astagina: „Zap kuchi bor ekan-da“, deb qo‘ydi. Endi yigit barvasta va baquvvat qizga havas bilan, hurmat saqlab, butunlay boshqacha, haqiqiy sevgi nazarli bilan boqardi.

Qon to‘xtagandan keyin, yigit, bir aylanib kelaylik dedi. Chunki yonma-yon o‘tiraverishga hamrohining zarblik mushtidan hayiqar edi. Qizning o‘zi uni kechqurunlari ko‘chada kuyovi bilan aylanib yurgan qalliqday qo‘ltiqlab oldi va:

– Jak, meni izzat qilmaganing yomon-da, – dedi.

Yigit o‘zini oqlay boshladи: izzat qilmagani nimasi, yaxshi ko‘radi, vassalom.

— Meni olasanmi? — dedi qiz.

Yigit biroz o'ylanib qoldi, qizning ma'nosiz nigohi uzoq-uzoqlarga boqarkan, yigit yer tagidan asta unga tikildi. Qizning kulchaday yuzi qip-qizil lablari qalin va tiniq, katta-katta ko'kraklari chit koftasini ko'tarib turardi. Bo'y-nida tomchi-tomchi terlar ko'rinnardi. Yigit yana erib ketib, lablarini qizning quloqqinasi tagiga oborib:

— Olaman, — dedi.

Shunda qiz yigitning bo'ynidan quchoqlab uzoq o'pdi, ikkalovining ham nafasi qaytib ketdi.

Shundan beri ularning o'rtasida oddiy muhabbat tashvishi boshlandi. Ular burchak-burchakda quchoqlashar, oy yorug'ida beda g'arami panasida uchrashar, ovqat mahalida mix qoqilgan qo'pol oyoq kiyimlari bilan stol tagidan bir-birlarining oyog'ini ko'karguncha bosishardi.

Shundan keyin Jak asta-sekin soviy boshladi; qiz bilan uchrashishdan, gaplashishdan qochadigan va qiz bilan yolg'iz qolgani qulay payt ham izlamaydigan bo'lib qoldi. Shunda qiz shubhalanib kuya boshladi, bir necha vaqtдан so'ng homilador bo'lib qolganini bildi.

Boshida qiz juda qo'rqib ketdi. Keyin kundan kun g'a-zabi orta bordi, negakim yigit unga duch kelishdan o'zini shunchalik ehtiyyot qilardiki, qiz u bilan so'zlashishning asti ilojini topolmasdi.

Nihoyat, bir kuni kechasi hamma uxlagandan keyin qiz yalangoyoq, ich ko'ylagi bilan sekingina chiqdi va hovlidan o'tib borib, asta otxonaning eshigini ochdi. Jak otlarining bosh tomonidagi somon to'shalgan yog'och oxurda yotar edi. U qizning kelayotganini bilib, o'zini uxbayotganga soldi, lekin qiz uning yoniga chiqib cho'kka tushib oldi-da, uyg'ongunicha silkitaverdi.

Yigit o'rnidan turib:

— Nima deysan? — dedi.

Qiz tishini tishiga qo'yib, g'azabdan titraganicha:

— Menmi, men nima derdim, meni olgin deyman, va'da bergenidan keyin ol, — dedi.

Yigit kulib yuborib:

– Qo'ysang-chi, kishi har bir yurgan qizini olaveradimi, – dedi.

Qiz uning bo'g'zidan oldi, dahshatli quchog'idan bo'shatmay turib yerga yiqitdi va yuziga qarab baqirib:

– Men homiladorman, eshitdingmi, homiladorman! – dedi.

Yigit, nafasi qaytib, entikardi; qiz bilan yigit shu tahlitda qimirlamasdan, gapirmasdan, tun qorong'usida, otning oxurdan sug'urib olgan bedani erinchoqlik bilan kurt-kurt chay-nashigina buzayotgan sukonatda, qotib qolishdi.

Jak qizga kuchi yetmasligiga ko'zi yetgach:

– Mayli, olaman deyapman-ku, bas shunday ish bo'pti, – dedi xirillab.

Qiz endi quruq va'daga ishonmas edi.

– Keyinga surma, – dedi qiz. – Ayt, ayt, ertagayoq ma'lum qilgin.

– Xo'p, ertaga desang ertaga, – dedi yigit.

– Ont ich!

Yigit ikkilanib qoldi, lekin boshqa iloj yo'q edi.

– Xudo haqi, olaman, – dedi.

Qiz shundan keyingina qo'yib yubordi va indamay chiqib ketdi.

Yana bir necha kungacha qiz uni duch keltira olmay yurdi. Yigit endi har kechasi otxonani qulflab yotardi, qiz eshikni qoqay desa birov bilib qolishidan qo'rqardi.

Shunday qilib, bir kun ertalab nonushtada dasturxonga yangi xizmatchi kelib o'tirdi. Qiz undan:

– Jak ketganmi? – deb so'radi.

– Ha, meni uning o'rniga olishdi.

Qizni titroq bosib ketdi, o'choqdagi qozonni zo'rg'a tushirdi; hamma ishga chiqib ketgandan keyin o'z hujrasiga chiqdi va birov bilib qolmasin deb, yuzini yostiqqa qilib anchagacha yig'lab yotdi.

Kun bo'yi u odamlarning ko'ngliga biron gap kelmaydigan qilib Jakdan darak topishga urindi. U o'z qayg'usiga

shunchalik ko‘milgan va kimdan so‘ramasin, xayolida hamma undan kulayotganday bo‘lardi. Shunday bo‘lsa-da, Jaking bu yerlardan butunlay ketib qolganini bilib oldi.

II

Shu kundan boshlab qizga hayotning turgan-bitgani azobga aylandi. U hamisha: „Bilib qolishsa nima bo‘ladi?“ degan xayol bilan nima qilayotganini o‘zi ham bilmay, mashtina singari ishlardi.

Bu bir nafas nari ketmaydigan og‘ir xayolga chulg‘anib, fikr etish qobiliyatini butunlay yo‘qotib yuborganidan hatto, ajaldek kundan kun surilib, yaqinlashib kelayotgan, albatta bo‘ladigan janjaldan qutulish yo‘lini ham o‘ylay olmadi.

Ertalab u hammadan oldin turib, soch taraganda qaraydigان siniq oynachaga belini solib, juda diqqat bilan qarar va bugun bilib qolishmasmikan, deb bosh qotirardi.

Kunduzlari u dam-badam ishini qo‘yar va fartuk tagidan bilinib turmaganmikin, deb to‘lishib qolgan qorniga qarab-qarab qo‘yardi.

Oylar o‘tdi, qiz hech so‘zlashmaydigan bo‘lib qoldi. Biror gapirsa tushunmay, qo‘llari bo‘shashib, o‘zini yo‘qotib qo‘yardi. Bir kuni xo‘jayin:

– Nima balo bo‘ldi, oppoq qiz, keyingi vaqtarda es-hushingdan ayrilib qolding! – deb qo‘ydi.

Butxonada bo‘lsa qiz o‘zini panaga olar, kyure bilan duch kelmaslikka tirishardi, chunki kyurenini odamning ko‘nglidan sirini bilib oladigan g‘ayritabiiy xususiyatga ega deb o‘ylardi.

Dasturxon ustida boshqa xizmatchilar qarasa, uni sovuq ter bosib ketardi. Sirimni bilib oladi deb, ayniqsa, yosh bo‘lsa ham juda ziyrak otboqardan yuragi bezillardи, chunki u chaqnab turgan ko‘zlarini qizdan olmasdi.

Bir kuni ertalab pochталон qizga xat keltirib berdi. Bundan oldin u hech qachon xat olmagan edi, shuning uchun

gangib yerga o'tirib qoldi. Bordi-yu xat o'shandan bo'lsa-chi? O'zi bo'lsa savodsiz edi, shuning uchun ham siyoh bilan yozilgan qog'ozga ixlos bilan boqardi. U sirini hech kimga bildirgisi kelmasdi, xatni cho'ntagiga solib qo'ydi; lekin tez-tez ishini qo'yib, haligi imzo bilan tamom bo'lган satrlarga tikilar, nazarida, to'satdan ularning ma'nosiga tu-shunib qoladiganday bo'lardi. Nihoyat, sabrsizlik, bezovtalikdan esi ketdi, xatni muallimga olib bordi; u qizni o'tirg'i-zib o'qib berdi:

„Duoyi salom, mehribon qizimga!

Shuning bilan ma'lum qilamanki, mening ham kunim bitay deb qoldi, bu xatni senga agar iloji bo'lsa kel, deb, qo'shnimiz Dantyu amaking yozdi. Seni sevguvchi onang o'rniga Merning yordamchisi Sezar dantiyu imzo qo'ydi“.

Qiz indamasdan chiqib ketdi, lekin ko'chaga chiqishi bilanoq oyoqlari bo'shashib yo'l bo'yiga o'tirdi va shu taxlitda to tungacha qoldi.

Uyga kelib o'z qayg'usini xo'jayiniga aytди, xo'jayin unga xohlagan kunga qadar javob berdi; hozircha uning o'rнига kelib-ketib turadigan xizmatchi yollahsga, qaytib kelgach uni yana o'z o'rniga olishga va'da berdi.

Onasi o'lim to'shagida edi, qizi kelgan kuni uzildi. Er-tasiga ertalab Roza, kishi ko'rsa quti uchadigan darajada ozg'in, yetti oylik, irvandi bola tug'di. Go'dak juda qiynalayotgan bo'lsa kerak o'rgimchakning oyog'iga o'xshagan qoqsuyak panjalarini qattiq qisardi.

Shunday bo'lsa ham bola o'lindi.

Qiz uydgilarga erga tekkanman, lekin hozir bolani olib borar joyim yo'q deb qo'shnisiga tashlab ketdi. Ular, o'zimiz boqib beramiz, deyishди.

Qiz yana fermaga qaytib keldi.

Lekin uning alamzada ko'nglida uyga tashlab kelgan nimjon maxluqqa nisbatan shu damgacha o'ziga noma'lum

yangi bir mehr paydo bo‘ldi. Bu mehr boladan yiroqda bo‘lganligi uchun har soat, har daqqa ko‘nglidan nari ketmaydigan yangi bir iztirob manbayiga aylandi.

Unga ayniqsa azob beradigan narsa bolasini erkash, bag‘riga bosish, uning issiq vujudini quchog‘iga olish istagi edi. Kechalari ko‘ziga uyqu kelmas, kunduzlar xayolidan bola nari ketmas edi, kechqurunlari bo‘lsa barcha ishlardan bo‘shagach, o‘choq yonida alangaga tikilganicha xayoli uzoqlarga qochgan odam singari o‘tirardi.

Fermadagilar uning haqida so‘zlasha boshladи, hazil qilib undan „jazmanini“, uning husnini, bo‘y-bastini, boyligini so‘rashar va to‘y qachon, to‘yga bizni ham aytasizmi, deyishardi. Qiz esa ko‘pincha qochib ketar va pana joyga borib yig‘lardi, chunki bu savollar unga igna kabi sanchilardi.

Qiz shu gap-so‘zlardan nariroq turish uchun jon-jahdi bilan ishga yopishar, har daqiqada bolasini o‘ylar va qandoq qilib ko‘proq pul orttirish ustida bosh qotirardi.

Qiz, shunday ishslash kerakki, xo‘jayin oylikni oshirsin, degan qarorga keldi.

Mana, asta-sekin butun uy ishini o‘z qo‘liga oldi. Ikkinchi oqsochni siqib chiqardi, chunki bir o‘zi ikki kishining ishini qilganidan keyin unisi ortiqchalik qilib qoldi. Qiz nonni, yog‘ni, shamni, hud-behudaga tovuqlarga sepiladigan donni, isrof qilib, mollarga beriladigan yem-xashakni, hamma narsani tejay boshladи. Xo‘jayinning pulini o‘z puliday ehtiyyotlar, bozorga borganida foyda tomonini ko‘zlar, fermadan chiqarib narsalarni qimmatga sotib, dehqonlarni avrab, ular keltingan narsani arzon olishga tirishardi, shuning uchun ham fermaning butun savdo-sotig‘i, xizmatchilarni ishlatish, omborlarning kaliti, hammasi unga topshirildi; hademay o‘rnini birov bosolmaydigan, hamma narsaga ko‘z-qulоq bo‘lib turadigan bo‘lib oldi. Uning ehtiyyotkorligi orqasida ferma gullab ketdi. Tevarak-atrofга „Vallen fermasidagi xizmatchi qizning“ ta’rifi ketdi. Xo‘jayinning o‘zi ham har yerda so‘zlab: „Qiz emas, sof oltin“ derdi.

Vaqt shu tahlitda o‘tar, lekin oylik oshmas edi. Uning bu og‘ir mehnatiga xo‘jayini har bir sodiq xizmatchining vazifasi, halol mehnati debgina qarardi; endi qizga bir narsa alam qila boshladi: uning orqasidan xo‘jayini har oy avvalgi daromadiga qaraganda ellik, yuz ekyu oshiq olayotir, u esa yiliga ikki yuz qirq frankdan na bir tiyin oshiq oladi, na kam.

Qiz oyligini oshirishni so‘ramoqchi bo‘ldi. Xo‘jayinning oldiga uch marta bordi, lekin har safar ham gapni boshqa yoqqa burib yubordi – oyligimni oshiring deyishga, go‘yo bunday deyish ayb ishdek sira tili bormadi. Bir kuni xo‘jayin oshxonada yolg‘iz o‘zi nonushta qilib o‘tirganida qiz kelib tutila-tutila „men siz bilan o‘zimning ishim to‘g‘risida so‘zlashmoqchi edim“ dedi. U boshini ko‘tarib, bir qo‘lida non, bir qo‘lida pichoq, hayron bo‘lib, xizmatchi qizga tikilib qoldi. Qiz uning qarashidan uyalib ketdi va uyiga borib kelgani bir haftaga javob so‘radi, bormasam bo‘lmaydi, dedi.

Xo‘jayin darhol ko‘ndi; keyin o‘zi ham o‘ng‘aysizlanib, ilova qildi.

– Qaytib kelganingdan keyin men ham sen bilan gaplashmoqchiman, – dedi.

III

Bola sakkiz oylik bo‘lib qolgan edi, qiz o‘g‘lini tani-madi. Bola qip-qizil bo‘lib to‘lishib, bo‘g‘in-bo‘g‘in bo‘lib, xuddi bir parcha jonli yog‘ga o‘xshab qolgandi. U kerilgan do‘mboq panjalarini yoyib asta qimirlatar va mazza qilib yotganligi ko‘rinib turardi. U, go‘yo bir o‘lja topib olgандай, ehtiros bilan bolaga tashlandi, qattiq-qattiq o‘pa boshladi; bola qo‘rqib yig‘lab yubordi. Bolasi tanimaganini va enagasini ko‘rgach, qo‘llarini cho‘zib unga qarab talpinayotganini ko‘rib, o‘zi ham yig‘lab yubordi.

Lekin ertasiga bola unga ancha o‘rganib bo‘lib, ko‘rsa kuladigan bo‘lib qoldi. U bolani dalaga olib chiqar va bilaklariga solib telbalaracha yugurar, daraxtning soyasiga o‘tirib olib, garchi esi yo‘q yosh bola bo‘lsa ham, hayotida birinchi

marta odam bolasiga ko‘ngil sirlarini ochardi. Unga o‘zining azob-uqubatlari, tortgan tashvishlari, hayajonli umidlarini aytardi va qattiq erkatalishlari bilan bolaning joniga tegardi.

Bolani bag‘riga bosish, cho‘miltirish, kiyintirishlar uning uchun benihoyat shodlik baxsh etardi; hatto bola bulg‘atib qo‘ygan narsalarni yuvish, tozalash ham uning uchun katta baxt bo‘lib, go‘yo bu xildagi ishlar uning onalik huquqini tasdiqlardi. U bolaga boqarkan, shu o‘zining bolasi ekanligiga hayron bo‘lar va uni tebratarkan sekin-sekin: „O‘zimning o‘g‘ilcham, o‘zimning o‘g‘ilcham!“ deb takrorlardi.

Qiz qaytishda yo‘l bo‘yi yig‘lab ketdi; fermaga kelishi bilanoq xo‘jayini uni chaqirtirdi. U, sababini o‘zi ham bilmagan holda, hayajonlanib, hayron bo‘lib, xo‘jayinining oldiga kirdi.

– O‘tir! – dedi xo‘jayini.

Qiz o‘tirdi. Ikkalasi ham dehqonlarning odati bo‘yicha bir-biriga qaramay, bo‘sh turgan qo‘llarini qo‘ygani joy topolmay, nima deyishini bilmay bir necha daqiqa jim o‘tirishdi.

Norg‘il, qirq beshlarga kirgan, xushchaqchaq, tirishqoq, ikkita xotini o‘lgan, tabiatan hech xijolat bo‘lmaydigan fermer hozir xijolatda edi; nihoyat, o‘zini o‘nglab oldi-da, ko‘zlarini uzoqlarga, dalaga tikkаниcha shama qilib, tutila-tutila so‘z boshladи.

– Roza, – dedi u, – uy-joy qiladigan vaqting ham bo‘lib qoldi, shu haqda o‘ylab ko‘rsang bo‘larmidi?

Qizning rangi o‘chib ketdi. Uning javob bermay turgani ni ko‘rib, fermer gapida davom etdi:

– Sen yaxshi qizsan, es-hushing ham joyida, mehnatkash, oilaparvarsan. Sen singari xotinning turgan-bitgani – xazina, – dedi.

Qiz hamon qimirlamay, qo‘rqqanidan bo‘zrayib, uning gapini tushunishga ham harakat qilmay o‘tirar, go‘yo ustiga katta bir falokat kelayotganday, xayoli chalkashib ketgandi. Fermer bir nafas to‘xtab turdi, keyin yana gap boshladи:

– Bilasanmi, agar fermaning bekasi bo‘lmasa, hatto senday xizmatchi bilan ham hech ish qilib bo‘lmaydi, – dedi.

Keyin u yana nima deyishini bilmay to‘xtab qoldi.

Roza ro‘parasida, xuddi qimir etsa joni boricha ochishi kerak bo‘lgan qotil turganday, quti o‘chib unga qarab turardi.

Nihoyat, besh daqiqadan keyin fermer:

– Xo‘sh nima deysan? Xohlaysanmi! – deb so‘radi.

Qiz dovdiragan bir holda:

– Nimani, xo‘jayin? – dedi.

Shunda u borini ochiq aytdi:

– Jin urgur, nimani bo‘ldi, menga turmushga chiqishni! – dedi.

Qiz sakrab turdi, lekin madori qurib shu onning o‘zida yoq stulga o‘tirib qoldi, o‘sha bo‘yicha, boshiga katta falokat tushganday, qotib qoldi. Nihoyat, fermerning toqati toq bo‘ldi.

– Qani, gapirmaysanmi, nega qarab turibsan?

Qiz unga ojizona boqdi; so‘ng ko‘zlaridan yosh oqib ketdi, o‘pkasini tuta olmaganicha:

– Tegolmayman, tegolmayman! – dedi.

– Nega endi? – deb so‘radi xo‘jayin. – Qo‘y, ahmoq bo‘lma, ertagacha o‘ylab ko‘r.

Fermer yelkasidan tog‘ tushganday bo‘lib, tezda chiqib ketdi va ertasiga oqsoch qizning bu taklifga ko‘nishiga shubha qilmasdi. Chunki bu taklif qiz uchun maqtanarlik, o‘zi uchun esa juda foydali, negakim okrugdag‘i bahribisotlik qizlardan ham ko‘proq foyda keltiradigan xotinga ega bo‘ldi.

O‘z tengini topmadi deydigan gaplar bo‘lishi mumkin emas, qishloqda hamma baravar, chunki bu yerlarda xo‘jayinlar ertami-kechmi aksari xo‘jayinga aylanadigan xizmatkorlar bilan bir qatorda yer haydar, oqsoch qizlar ko‘pincha bekaga aylanar, buning orqasida na ularning hayoti va na urf-odati o‘zgarardi.

Shu kecha Roza o‘rniga yotmadi, qattiq xafa bo‘lganidan, hatto yig‘lashga ham holi kelmay karavotida o‘tirdi. U qimirlamas, bor-yo‘qligini ham sezmas, go‘yo birov uning xayolini to‘sak uchun chuvatilgan yung singari jo‘rttaga tib tashlaganga o‘xshab, fikrini bir joyga to‘plab ololmasdi.

Faqat ba’zi bir onlardagina fikr bo‘lakchasini ushlab qolar, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishni ko‘z oldiga keltirganda kayfi uchardi.

Uning qo‘rquvi hamon kuchayaverdi, hamma uxlab qolgan, tip-tinch uyda o‘tirar ekan, oshxonadagi soat har gal jom chalganda uni sovuq ter bosib ketardi. Uning boshi g‘ovlab, qo‘rqinchli xayollar nari ketmasdi. Sham yonib tamom bo‘ldi. Shu on uni, falokat payimga tushdi deb o‘ylagan kezlarda dehqonlarda bo‘ladigan telbalik, bo‘rondan kema qochganday baxtsizlikdan qochish, yashirinish, qutulish kabi kuchli istak qamrab oldi.

Boyqush sayradi. Roza seskanib ketdi, qaddini rostladi, o‘zini yo‘qotib qo‘yganday betlarini, sochlarni, u yoq-bu yog‘ini siypalab ko‘rdi, keyin lunatik odamday pastga tushdi; hovliga chiqdi, biron ta mast odam uchrab qolishidan qo‘rqib emaklab yurdi, chunki botay deb borayotgan oy dala-larni yorug‘ nurga to‘ldirgan edi. Darvozani ochib chiqmay, devordan oshib tushdi. Dalaga chiqdi-yu yugurib ketdi. U boshi og‘gan tomonga qarab tez yugurar va goh-goh o‘zi ham bilmay qolib, qattiq qichqirib yuborardi. Uning yonida – yerda yoyilib yotgan katta soyasi o‘zi bilan birga yugurardi; ba’zi-ba’zida tun qushi uning boshi ustida gir aylanardi. Fermalarining hovlisidagi itlar uning oyoq tovushini eshitib, qattiq hurishardi, bittasi zovurdan o‘tib qizning orqasidan quvlab qoldi va tishlamoqchi bo‘ldi, lekin Roza aylanib bir hayqirgan edi, it dumini qisib qochdi va teshikka tiqilib tovushi o‘chdi.

Dalada goh u yerda, goh bu yerda quyon bolalari o‘yna-shardi; lekin Dianaga o‘xshash, aqdan adashayozgan qizning yugurib ketayotganini ko‘rishlari bilan qo‘rroq joni-

vorlar sapchib atrofga tarqalishardi; bularning onasi bolalari bilan ariqchalarga kirib g‘oyib bo‘lar, otasi bo‘lsa o‘zini saqlash uchun yiqilib-yumalab qochar, uning sakrab-sakrab borayotgan uzunquloq soyasi ufqdan yerga qo‘yilgan fonar singari qiya nur sochayotgan oy shu’lasida lip-lip etib ko‘rinardi.

Uzoq ko‘k sahnida yulduzlar so‘na boshladi; qushlar chirqillar, tong otib kelmoqda edi. Horigan qiz zo‘rg‘a nafas olar va qizarib turgan shafaq pardasini teshib quyosh ko‘ringanida to‘xtadi.

Shishgan oyoqlar yurolmay qoldi. Qizning ko‘zi suv to‘la katta chuqurga tushdi. Jim turgan suv endi chiqib kelayotgan quyoshning qizil shu’lasi ostida qonga o‘xshab ko‘rinardi, qiz oyoqlarini suvga solib o‘tirish uchun qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, oqsoqlanib asta-asta suvga qarab surgaldi.

U ko‘kat ustiga o‘tirdi, tuproq to‘lgan qo‘pol oyoq kiyimi va paypog‘ini yechdi. Ko‘karib ketgan oyoqlarini u yer-bu yerida pufakchalar yorilib turgan suvga soldi.

Suvning yoqimli salqini tovonidan ko‘kragigacha chiqdi; qiz chuqur hovuzga tikilib turardi, birdan boshi aylanib ketdi, o‘zini shu chuqurga tashlash kerak degan beomon istak uyg‘ondi. O‘sha yerda uning barcha iztiroblari bitar, bira-to‘la tugardi. U hozir bolasi haqida hech o‘ylamasdi; uning tinchigisi, butunlay orom olgisi, abadiy uyquga ketgisi kelardi. U o‘rnidan turdi, qo‘llarini ko‘tardi va ikki qadam oldingga bosdi. Suv uning soniga chiqdi. Endi o‘zini tashlamoqchi bo‘lib hozirlangan edi, birdan minglarcha nayza to‘piqlari ga qadalganday bo‘lib, dodlab, sakrab suvdan chiqib ketdi. Oyoqlariga tizzasidan tovonigacha uzun qora zuluklar yopishib olib, qonini so‘rmoqda edi. Ularni olib tashlashga qo‘rqdi va o‘ti yorilib ingray boshladi. Uning dod-faryodini uzoqda, aravada ketayotgan dehqon eshitib qoldi. U qizning oyog‘idagi zuluklarni bitta-bittadan ajratib oldi, yaralariga malham bog‘ladi va qizni aravada xo‘jayinining fermasiga cha oborib qo‘ydi.

Qiz ikki hafta ko‘rpa-yostiq qilib yotdi. U to‘shakdan turib, ostonaga chiqib o‘tirgan kuni ertalab ro‘parasida bexosdan xo‘jayini paydo bo‘ldi.

– Xo‘sh qalay, – dedi u, – bo‘ladimi?

Qiz nima javob qilishini bilmadi, xo‘jayinning ketmay o‘ziga tikilib turganini ko‘rgach zo‘rg‘a:

– Yo‘q, xo‘jayin, bo‘lmaydi, – deb pichirladi.

Xo‘jayin birdan zarda qilib:

– Nega bo‘lmas ekan, nega? – dedi.

Qiz yig‘lab yubordi.

– Bo‘lmaydi, – dedi.

U qizga tik qarab turdi-da, birdan uning yuziga:

– Demak xushtoring bor ekan-da? – dedi.

Qiz uyaganidan titrab ketdi va:

– Ha, shundaydir-da, – dedi.

Xo‘jayin sallaguldek qizarib ketdi va g‘azabidan entikib:

– Ha-ha, hali sen rasvoning shunaqa xushtoring bor ekan-da. Kim ekan u betayin? Bir nochor, nasli-nasabi beta-yin bir yalangoyoqdir-da? Kim o‘zi, gapir-chi!

Qiz javob bermagani uchun u davom qildi:

– Aytmaysanmi?.. Bo‘lmasa o‘zim aytaman: Jan Bodyu.

Qiz qichqirib:

– Yo‘q, yo‘q, u emas, – dedi.

– Ha, bo‘lmasa Per Martenmi?

– Yo‘q, yo‘q xo‘jayin.

Xo‘jayin tutoqqanicha okrugdagi barcha yigitlarni sanab chiqdi. Qiz esa yer bilan yakson bo‘lib, ko‘zyoshlarini ko‘k fartugiga arta-arta inkor qilardi. U bo‘lsa berahmlik bilan qo‘yarda-qo‘ymay, ba’zi vaqtlarda inida yotgan jonivorni bilib qolganda uni tutib olish uchun ertadan kechgacha yer qazib yotadigan ovchi it singari, qizning ko‘nglini kovlab uning yurak sirlarini bilib olishga urinardi. To‘satdan u:

– Ha, jin urgur, haligi Jak emasmi, bulturgi xizmatchimiz, seni o‘sha bilan yuradi deyishardi, u seni olmoqchi ham bo‘lgan ekan, – dedi baqirib.

Rozaning dami ichiga tushib ketdi; qoni yuziga tepdi, ko‘zyoshlari birdan to‘xtab qizigan temir ustida qolgan suv tomchisiday yuzida qurib qoldi.

– Yo‘q, u emas, u emas! – dedi.

– Yo‘qmikin-a, rost aytayapsanmi? – dedi fermer haqi-qatga yetganini payqaganday bo‘lib.

Qiz shoshib javob berdi:

– Ont ich desangiz ont ichaman, hozir desangiz ham...

Qiz aziz-avliyolarni og‘ziga olishga botinolmay, nima deb qasam ichishini bilmay qoldi. U qizning so‘zini bo‘lib:

– Ha, u seni burchak-burchakda qisib yurardi-ku, ovqat vaqtida ham sendan ko‘zini uzmas edi. Sen unga so‘z bergansan. Berganmiding, ayt?

Bu gal qiz xo‘jayinning yuziga to‘g‘ri qaradi va:

– Yo‘q, so‘z bergenim yo‘q, so‘z bergenim yo‘q, Xudo haqi, rost, mana shu bugun sovchi qo‘ysin-chi, tegmay-man, – dedi.

Qiz shunchalik chin ko‘ngildan so‘zlardiki, xo‘jayin ik-kilanib qoldi, o‘z-o‘ziga savol berayotganday qilib:

– Unda kim bo‘ladi? Biron yomon ish qilganing yo‘q, agar unday bo‘lganda hamma bilardi, hech gap bo‘lmagan bo‘lsa nechuk xizmatchi qiz xo‘jayiniga tegmasin? Har qalay bu yerda bir gap bor, – dedi.

Alami bo‘g‘ziga tiqilib qiz ortiq javob bermadi.

Xo‘jayin yana bir qayta:

– Xohlaysanmi? – deb so‘radi.

Qiz xo‘rsinib:

– Yo‘q, bo‘lmaydi xo‘jayin, – dedi.

Xo‘jayin chiqib ketdi.

Qiz endi qutuldim degan qarorga keldi va ancha xotirjam bo‘ldi, lekin xuddi qari oq ot o‘rniga xirmon toshga qo‘silib ertadan kechgacha g‘alla yanchganday ezilib, tinkasi qu‘rib qoldi.

U ishlaridan qutulishi bilanoq yotdi, o‘sha ondayoq ko‘zi uyquga ketdi.

Yarim kechada kimdir ikki qo‘li bilan uning ko‘rpasini paypaslayotganini bilib uyg‘onib ketdi; qo‘rqqanidan irg‘ib turdi, lekin tovushidan fermer ekanligini bildi.

— Qo‘rqma, Roza, men sen bilan so‘zlashgani keldim, dedi fermer.

Qiz avval hayron bo‘ldi, so‘ng, uning ko‘rpaga kirmoqchi bo‘layotganini ko‘rib, uning maqsadini angladi. Qorong‘i kechada, to‘sakda, yalang‘och va uyqusiragan holda o‘ziga qo‘l cho‘zayotgan erkak yonida himoyasizligini anglab butun vujudini titroq bosdi. Qiz albatta taslim bo‘lmaslikka tirishardi, lekin sodda odamlarda kuchliroq bo‘ladigan maylga berilib, bo‘shgina qarshilik ko‘rsatardi, chunki bu toifa – bo‘shang, o‘zini tutolmaydigan odamda kuchsiz bo‘ladigan iroda ularga yordam berolmaydi. Uning bo‘salaridan lablarini olib qochish uchun qiz boshini dam u yoqqa, dam bu yoqqa burardi, olishish orqasida uyg‘ongan vujudi ko‘rpa ostida to‘lg‘onardi. Xo‘jayin maylga berilib, dag‘alilik qila boshladi. Bir siltab, ko‘rpani sidirib tashladi. Shunda qiz ortiq qarshilik ko‘rsatishga holi yo‘qligini angladi. Qiz, tuyaqush boshini qanotlari ostiga yashirganday, uyanganidan qo‘llari bilan yuzini berkitdi va ortiq qarshilik ko‘rsatmadi.

Fermer butun kechani u bilan birga o‘tkazdi. Ertasiga yana keldi va har kun keladigan bo‘lib qoldi.

Ikkovi birga tura boshladi.

Bir kun ertalab fermer:

— Men kyurega aytdim, ma’lum qiladi, yangi oyda to‘y qilamiz, — dedi.

Qiz javob bermadi. Nima ham desin? Qarshi ham bo‘lmadi. Qo‘lidan nima kelardi?

IV

Qiz fermerga tegdi. Xayolida chiqib bo‘lmaydigan tubsiz chohga tushib ketganday bo‘ldi; baxtsizlik esa, yiqilay-yiqilay deb turgan katta qoya singari boshi ustida osilib turganday tuyulardi. U go‘yo erining bir narsasini o‘g‘irlab

olganday edi. Turgan gap eri ertami-kechmi buni payqab qoladiganday bo'lardi. Buning ustiga butun iztiroblarining manbayi va dunyoga kelib ko'rgan bor-yo'q baxt-saodati bo'lgan – bolasini o'yldardi.

U yiliga ikki marta bolasini ko'rgani qishloqqa borar va qaytib kelgach, avvalgidan ko'proq xafa bo'lib yurardi.

Keyin asta-sekin ko'nikib ketdi, qo'rquvlari bosilib, ko'ngli taskin topdi. Garchi ich-ichidan vahm bossa ham ancha dadil yashay boshladi.

Yillar o'tdi, bola besh yoshdan oshdi. Qiz endigina o'zini baxtli his qilayotgan edi. Lekin to'satdan eri diqqat bo'la boshladi.

U ikki-uch yildan beri tinchini yo'qotganday ko'rinar, nimagadir qayg'urar, undagi ruhiy ezilish oshib borardi. U ovqatdan keyin anchagacha stoldan turmay, boshini qo'llari orasiga olganicha iztirob chekib o'tirardi. Xotiniga tez-tez o'shqirib, dag'al gapiradigan bo'lib qoldi. Ba'zan juda ham qo'rslik qilardi. Xuddi xotinidan xafaday ko'rinaridi. Chunki ba'zi-ba'zida uni jahl bilan siltab tashlardi.

Bir kuni qo'shnisining o'g'li tuxum so'rab chiqqan edi, xotini uy ishlari bilan band bo'lgani uchun haligi bolaga durustroq muomala qilmadi. Buning ustiga kelib qolgan eri xotiniga achchiqqina qilib:

– Agar shu bola o'z o'g'ling bo'lganda bundaqa muomala qilmas eding, – dedi.

Xotin hayron bo'lib, nima deyishini ham bilmay qoldi va barcha xavflari qaytadan uyg'ondi.

Ovqat mahalida eri u bilan so'zlashmas, qaramas, xuddi xotinini yoqtirmaganday, undan jirkanaxayotganday, biror narsani payqaganday ko'rinaridi.

Roza butunlay o'zini yo'qotib qo'ydi. Eri bilan yolg'iz qolishga yuragi betlamadi va ovqatdan keyin uydan chiqdi-yu, butxonaga qarab yugurdi.

Qorong'i tushmoqda edi. Tor ibodatxonaning ichi qop-qorong'i, qayerdandir, kliros yonida, kimningdir sal-

moqli, sekin-sekin qadam tashlab yurgani eshitildi. Bu – sanamlar oldidagi sham chiroqlarni yoqib yurgan qorovul edi. Roza so‘nggi umid shunda deganday, ravoqlar orasida miltillab turgan alangachaga ilinj bog‘ladi va undan ko‘zini uzmay tiz cho‘kdi.

Zanjir shirillab, shamchiroq yuqori ko‘tarildi. Tezda bir maromda qadam bosib yurgan yog‘och kavushlik oyoq tovushi keldi, uning orqasidan taxta-taxta qilib terilgan tosh ustida sudralayotgan arqonning shitirlashi eshitildi; quyuqlashib borayotgan shom qorong‘iligidagi butxona qo‘ng‘iroq‘i sado berdi. Qorovul ketayotgan edi. Roza unga yetib oldi va:

- Kyure janoblari uydalarmi? – dedi.
- Ha, uydalar, men kechki ibodatga qo‘ng‘iroq chalayotgan vaqtimda u kishi ovqatlanayotgan bo‘ladilar, – dedi qorovul.

Shundan keyin xotin, titroq bosgancha, butxona hovlisingning kichkina eshigini itardi.

Kyure endi stol yoniga o‘tirayotgan edi. U darhol xotinni ham o‘tqazdi va:

- Eshiddim, eshiddim, eringiz menga aytuvdi, nima uchun kelganingizni bilaman, – dedi.

Sho‘rlik xotin qotib qoldi. Xudojo‘y davom etib:

- Nachora, qizim! – dedi.

Kyure shoshib-pishib qoshiqni ketma-ket og‘ziga olib borar, kiyimining kattakon qornidagi yog‘ bosgan joyiga sho‘rva tomib turardi.

Endi xotin na so‘zlashga jur’at eta oldi, na o‘tinishga na yolvorishga, o‘rnidan turdi. Kyure unga:

- Ko‘p umidsizlanmang... – dedi.

Xotin chiqib ketdi.

U fermaga qandoq qilib qaytib kelganini bilolmadi; u kelgunicha xizmatkorlar ham ketib qolishibdi, eri uni kutib o‘tirardi. Xotin erining oyog‘iga yiqlidi, ko‘zlaridan yosh oqqan holda oh tortib:

– Nega mendan koyinyapsan? – dedi.

Eri jahl bilan:

– Nima uchun bo‘lardi? Bolam yo‘qligi uchun! Nima, umr bo‘yi ikki kishi qo‘qqayib o‘tishlik uchun uylangan edimmi? Shunga achchig‘lanayotirman. Sigir tug‘masa, ishdan chiqqan bo‘ladi. Tug‘maganidan keyin xotin kishi ham ishdan chiqqan bo‘ladi-da.

Xotin o‘pkasini tutolmay yig‘larkan:

– Menda nima ayb, nima ayb, – der edi.

Shunda erining biroz ko‘ngli yumshab:

– Men ham seni ayblaganim yo‘q, har qalay kishining g‘ashiga tegar ekan, – dedi.

V

Shu kundan boshlab uning fikr-yodi bola tug‘ish, yana bitta bola tug‘ish bo‘lib qoldi; ko‘ringanga o‘z dardini aytadigan bo‘ldi.

Qo‘snilaridan bir xotin unga, har kun kechqurun bir piyola suvga bir chimdim kul solib eriga ichirishni buyurdi. Fermer jon deb ko‘ndi, lekin bu narsa foyda bermadi.

Ular: „Balki, biron maxfiy chorasi bordir“, deb o‘ylashdi va daraklay boshlashdi.

Fermadan o‘n chaqirim narida yashaydigan cho‘ponning daragini aytishdi. Vallen amaki otga minib haligidan maslahat so‘ragani ketdi. Cho‘pon unga qandaydir ko‘kat qo‘sib pishirilgan nonning yuziga chiziqlar chizib berdi va er-xotin yotar oldidan va turgandan keyin bir burdadan yesinlar, deb buyurdi.

Nonni ushoqlarigacha qo‘ymay yeyishdi, bu ham foyda bermadi.

Bir muallim ularga qishloqliklar bilmaydigan, lekin al-batta naf qiladigan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdi. Bo‘lmadi.

Kyure ularga Fekan ziyoratgohiga borib „toza qon“ga sig‘inishlarini maslahat berdi.

Roza bir to‘da ziyyoratchilar bilan birga rohiblar ostonasi-ga bosh qo‘ydi, o‘z oh-zorini sig‘inayotgan barcha dehqon-larning yuragidan chiqqan sof iltijosiga qo‘shti va hamma sig‘inadigan joyga menga bir farzand ber deb yozdi. Hammasi behuda bo‘ldi. Shunda Roza, bu mening birinchi gu-nohim uchun berilayotgan jazo bo‘lsa kerak, deb o‘yladi va umidini uzdi.

Xotin hasrat-nadomatdan so‘la boshladi, eri ham behuda umidlar orqasida ancha ozib, qarib qoldi. Hamma qo‘snilar: „Tajanglik buning bor qonini so‘rib oldi“, deyishardi.

Shunday qilib er-xotin orasida dushmanlik o‘ti yondi. U xotinini urishar va urar, kunbo‘yi xotinining jig‘iga tegib, tunbo‘yi to‘sakda g‘azabiga chidolmay haqorat qilardi.

Bir kuni kechasi, qandoq qilib xotinining joniga qat-tiqroq tegishni bilmay, xotiniga o‘rnidan turib, tong otgun-chha hovlida, yomg‘irda turishni buyurdi.

Xotin qulqoq solmadi. U xotinining tomog‘idan bo‘g‘ib, yuziga bir musht soldi. Xotin qimirlamay jim turdi. Er esa, o‘zida yo‘q, quturib, tishlarini g‘ijirlatib, tizzasini xotinining qorniga bosganicha o‘iasi qilib ura boshladi. Shunda, joniga tekkan xotinining g‘azabi keldi, bir siltab erini devorga otib tashladi; o‘zi o‘rnidan turdi va o‘zgargan, bo‘g‘iq ovoz bilan:

– Mening bolam bor, bor, Jak bilan yurib tuqqanman. U meni olaman degan edi, ketib qoldi, – dedi.

Eri angrayganicha qotib qoldi; xotinidan ko‘ra ko‘proq hayajonlangan holda pichirlab:

– Nima deding? Nima? – dedi.

Xotin o‘kirib yig‘lab yubordi va achchiq-achchiq yosh to‘kkanicha davom qildi:

– Shuning uchun ham senga tegmayman degan edim, shuning uchun-da. Senga qandoq aytardim. Sen meni hay-dab yuborading, bolam bilan meni bir parcha nondan mah-

rum qilarding. Befarzand bo‘lganiningdan keyin, sen bolaning nima ekanligini bilmaysan, bilmaysan! – dedi.

Erining borgan sari hayrati oshib, beixtiyor:

– Bolang bor, bolang bor? – deb takrorladi.

Xotin o‘pkasini tutolmay:

– Sen meni zo‘rlab olgansan, to‘g‘rimi, o‘zing ham bilsan, senga tegaqolay degan emas edim, – dedi.

Fermer o‘rnidan turdi, sham yoqdi va qo‘lini orqasiga qilib, uyning u boshidan bu boshiga yura boshladi. Xotin o‘zini karavotga tashlaganicha hamon yig‘lamoqda edi. Birdan eri uning oldiga kelib to‘xtadi.

– Demak, bolamiz bo‘lmasligiga men aybdor ekanman-da? – dedi.

Xotin javob bermadi. U yana yura boshladi, keyin yana to‘xtab:

– Bolang necha yoshga kirdi? – deb so‘radi.

Xotin pichirlab:

– Yaqinda oltiga kiradi, – dedi.

U yana:

– Nega shu mahalgacha menga aytmading? – dedi.

Xotin oh tortib:

– Aytishga menda had bormidi? – dedi.

U tippa-tik tura-tura, keyin:

– Xo‘p, qani tur, – dedi.

Xotin zo‘rg‘a qo‘zg‘aldi; so‘ng, devorni ushlab o‘rnidan turdi. Eri burungiday qah-qah urib kulib yubordi. Xotini es-hushini yig‘ishtirib ololmay turganini ko‘rib:

– Xo‘sh qani endi, o‘zimizda bola bo‘lmanidan keyin, borib uni, sening bolangni olib kelaylik – dedi.

Xotinning yuragi yorilib ketdi, agar holi yetganda albatta qochib ketardi. Fermer bo‘lsa qo‘llarini bir-biriga ishqar va o‘zicha:

– Men bironta bola asrab olsammikin, deb yurgan edim, mana o‘zi topilib qoldi, o‘zi topildi. Men Kyuredan bironta

ko‘zlab yurgan yetim bolang yo‘qmi deb so‘ragan edim, – dedi.

Shundan keyin u hamon kularkan, yig‘idan bo‘rtgan va jinni bo‘layotgan xotinini o‘pa boshladi; so‘ng, xotinining qulog‘iga xuddi u karday qichqirib:

– Qani, onasi, bor qara-chi: yeydigan biron narsang qolganmikin?! Bo‘lsa hozir bir tovoq ovqat yeymen, – dedi.

Xotin yubkasini kiydi, ikkovi pastga tushdi, xotini cho‘kkalab o‘choqdagi olovni puflayotganida u oshxonada u yoqdan bu yoqqa yurar va sevinchi ichiga sig‘may, qayta-qayta:

– Xudo haqi, xursandman, to‘g‘risi, juda xursand bo‘ldim, juda xursandman, – derdi.

PORTDA

I

„Shamol malagi“ degan uch machtalik yelkanli kema 1882-yil 3-mayda Gavrdan chiqib, Xitoy dengizlariga qarab yo‘l oldi va to‘rt yillik safardan so‘ng 1886-yil 8-avgustda Marsel portiga kirdi. O‘zining birinchi yukini Xitoy portiga topshirgach, darhol kiraga yuk ortib, Buenos-Ayresga ketdi, u yerdan mol ortib, Braziliyaga jo‘nadi.

Butun yukxonasini tunuka bankalik amerika konservalariiga liq to‘latib Marselga qaytib kelayotgan uch machtalik Normand paroxodining ko‘p vaqtlar vatandan uzoq qolib ketishiga yangi yo‘llar, halokatlar, tuzatishlar, ko‘p oylab suzishlar, yo‘ldan adashtirib yuboradigan dengiz bo‘ronlari – xullas, dengizda bo‘ladigan barcha baxtsiz hodisalar sabab bo‘lgan edi.

Safarga chiqar chog‘ida paroxodda kapitan va uning yordamchisidan tashqari o‘n to‘rtta matros bo‘lib, ularning sakkiztasi normandiyalik va oltiasi britaniyalik edi. Paroxod

qaytib kelganida beshta britaniyalik bilan to‘rtta normandiyalik matros qoldi, xolos. Britaniyalik matroslardan biri yo‘lda o‘ldi, turli sharoitda kemani tashlab ketgan to‘rtta normandiyalik matrosning o‘rniga bir kun kechqurun Singapurning mayxonalaridan birida uchragan ikkita amerikalik, bitta negr va bitta norvegiyalik matros olindi.

Katta paroxod paruslarini yig‘ishtirib, yelkan iladigan yog‘ochlarini machtasiga ko‘ndalang qilib, shamol tinib asta-sekin yo‘qolib borayotgan mayda to‘lqin ustida Marselning pishillab borayotgan yordamchi kemasining orqasidan kelmoqda edi; paroxod If qal’asidan o‘tdi, ko‘rfazning ikki tomonida shafaqning qizil shu’lasiga chulg‘anib, devorga o‘xshab turgan surrang qoyalar orasidan borib, eski portga kirdi; portning ikki tomonida butun mamlakatlarning turli shakl va uskunalik paroxodlari qatorlashib, bir-biriga ishqalanib, sassiq suvga to‘la tor havzada uymalashib, xuddi paroxodning ziravor qo‘shilgan shirasida o‘ldirilgani qo‘yilganga o‘xshab turardi.

„Shamol malagi“ borib, yangi o‘rtog‘iga joy berish uchun yo‘l bergen ikki machtali italyan kemasi bilan uch machtalik ingliz kemasi o‘rtasida to‘xtadi. Boj olish va port rasmiyatlar tamom bo‘lgach, kapitan paroxod xodimlarining ko‘pchiligidagi kechani qirg‘oqda o‘tkazishga ruxsat berdi.

Kech kirdi. Marselda chiroqlar yoqildi. Shahar shov-qin-suron, qichqiriqlar, taraq-turuq, janubliklarga xos xushchaqchaq sadolarga to‘lgan yoz oqshomining dim havosida sarimsoq solib pishirilgan noz-ne’matlarning hidi anqib turardi.

Necha oylab dengiz o‘z to‘lqinlari ustida olib yurgan o‘nta matros sohilga tushishlari bilan o‘rganib qolgan muhitlaridan ayrilgan, shaharda yurishni esidan chiqargan odamlardek alanglab, asta-asta yo‘lga tushishdi. Ular xuddi bir marosim bilan ketayotgan odamlardek ikkitadan bo‘lib, chayqalib qadam tashlashar, shaharni ko‘zdan kechirishar va

limanga tushiladigan tor ko‘chalarga betoqatlik bilan qara-shardi; so‘nggi ikki oylik suzishdan keyin ular ishq-muhab-batga anchagina chanqagan edilar.

Oldinda normandiyaliklar, ular har gal portga tushgan-larida boshliq bo‘ladigan baland bo‘yli, baquvvat, ziyrak Selestend Dyuklo degan bir yigitning orqasidan borishmoqda edi. U yigit ishratxonalarini topishga usta, yulduzni benarvon uradigan, portlarda matroslar o‘rtasida tez-tez bo‘lib turadi-gan urush-janjallarga aralashishni yoqtirmaydigan, lekin aralashguday bo‘lsa hech kimdan tap tortmaydigan odam edi.

Iflos suvlar oqadigan quvur singari dengizga tushadi-gan, fohishaxonalarining hidi urib qolgan badbo‘y ko‘challa-nda nima qilishlarini bilmay sanqib yurganlaridan so‘ng Selestend ularni qing‘ir-qiyshiq tor bir ko‘chaga boshladi. U ko‘chada uylarning eshiklari oldidagi fonarlarning rangdor, jilosiz oynalariga katta-katta raqamlar yozib qo‘yilgan edi. Tor yo‘lklarda oqsochlarga o‘xshash fartuk tutgan xotinlar stulda o‘tirishardi; yaqinlashib kelayotgan matroslarni ko‘rib xotinlar o‘rnidan turishar, ko‘chani ikkiga bo‘lib turgan ariq bo‘yiga kelishar va bu fohishaxona – qamoqxonalarga yaqinlashganliklari uchun qizishib, ashula aytib, kulishib, galalashib kelayotgan erkaklarning yo‘lini to‘sishar edi.

Ba’zan bexosdan ochilib ketgan, sirtiga sariq charm si-rilgan eshik orqasida, dahlizda yarim-yalang‘och semiz xo-tin ko‘rinardi; uning yo‘g‘on soni va semiz boldiri dag‘al, oq triko kiyimi tagidan bilinib turardi; qisqa yubkasi enlik belbog‘ga o‘xshar, bo‘shashgan ko‘kragi, bilak va yelkala-ri chetiga oltin jiyak taqilgan qora duxoba ichkiyim tagidan pushtirang dog‘ga o‘xshab ko‘rinardi. Xotin uzoqdan turib: „Bu yoqqa marhamat qilinglar, yaxshi yigitlar“, deb chaqirar, ba’zan o‘zi yugurib chiqib, matroslardan bittasiga mah-kam yopishib olib, o‘zidan katta pashshani tortib ketayotgan o‘rgimchakday, kuchining boricha uyga sudrardi. Xotin ki-

shining qo'li tegib ixtiyorini yo'qotgan erkak sustgina qarshilik qilar, hamrohlari bo'lsa to'xtab, o'rtog'ining orqasidan kirishni ham, bu ajoyib sayrni yana uzoqroq cho'zishni ham bilmay qarab turishardi. Lekin zo'r berib tortish natijasida xotin uning orqasidan butun ulfatlari ham kirishi kerak bo'lgan matrosni ostonagacha sudrab borguday bo'lsa, bunday uylarning ma'nisiga tushunadigan Selestend Dyuklo to'satdan baqirib:

— Kirma bu yerga, Marshan, bu biz aytgan yer emas, — der edi.

Shunda matros Selestennenning gapiga kirib, bir silkinib xotinning qo'lidan chiqar, do'stlar yana galalashib ketishardi, ularning orasidan g'azablangan fohishaning shaloq haqoratlari eshitilar, bu orada shovqin-suronni eshitib, boshqa eshiklarning hammasidan matroslarning yo'liga xotinlar chiqishar va g'ala-g'ovur qilib, bo'g'iq tovush bilan ularni chaqirishardi.

Matroslar oldilaridan chiqayotgan buzuq xotinlarning al-dab, yo'ldan urishlaridan, iltifot qilmay qoldirib ketishgan xotinlarning iflos qarg'ishlaridan tobora qizishganlaricha yo'lda davom etishar edi. Goh-gohda ular o'zlariga o'xshab, galalashib yurgan, yarog'-aslahalarini sharaqlatib borayotgan soldatlarga, boshqa paroxodning matroslariga yoki yolg'iz izg'ib yurgan shaharliklarga, gumashtalarga duch kelishardi. Ularga borgan sari shubhali fonarlar yoritib turgan yangi-yangi tor ko'chalar uchrayveradi. Ular buzuq xotinlarga to'la uylar, ikki devor orasidagi ariqchalardan sassisq suv jildirib turgan, fohishaxonalardan iborat ko'chaning shilpillab turgan tosh yo'lidan ancha yurishdi.

Nihoyat, Dyuklo ko'rinishi durustgina bir uy oldida to'xtadi va ulfatlarini boshlab, shu uyga kirdi.

II

Ko‘p kayf-safo qilishdi. Matroslar to‘rt soat davomida vinoga, muhabbatga qonishdi. Yarim yillik oylikdan hech narsa qolmadidi.

Ular o‘z uylarida o‘tirgandek katta uyga bemalol joylashib olishdi; yosh qizlar yoki kafe-shantanlarda ashula aytadigan xotinlardek kiyinib olgan bo‘sh fohisha xotinlar, xizmatlarini qilayotgan va yonlariga borib o‘tirayotgan, bur-chak-burchakda o‘tirgan shu uyning eski mijozlariga xo‘m-rayib qarashar edi.

Har bir matros kirishi bilanoq bittadan xotinni o‘ziniki qilib oldi va butun kechani o‘sha bilan o‘tkazdi. To‘pori odam hadeb yangilik izlayvermaydi. Uch stolni surib, bitta qilib qo‘yishdi va bir stakandan ichgandan keyin har qaysisi bittadan xotinni qo‘ltiqlab zinadan chiqqa boshladidi. Uylarning kichik eshiklari juft-juft bo‘lib olgan bu oshiq-ma’shuqlarni to o‘z ichiga olguncha, ularning zinadan chiqayotgan oyoq tovushi eshitilib turdi. Keyin hamma yana vino ichgani katta uyga tushdi, keyin yana chiqishdi, keyin yana tushishdi.

Qattiq mast bo‘lgan matroslar zo‘r berib baqirishar, ko‘zlariga qon to‘lib ma’shuqlarini tizzaga olib o‘tirishar, ashula aytishar, mushtlari bilan stolni urishar va halqumlariga vino quyishardi. Ular insondagi hayvonlik boshvog‘ini qo‘yib yuborishgan edi. To‘polon qilayotgan o‘rtoqlari orasida Selestend Dyuklo, tizzasida o‘tirgan ikki yuzi qip-qizil, barvasta juvonni quchoqlab o‘tirar va unga tikilib-tikilib qarardi. Garchi boshqalar bilan baravar ichgan bo‘lsa ham, o‘rtoqlaridan ko‘ra hushyorroq bo‘lgan Selestend esini yo‘qotmagan edi, ko‘ngli biroz yumshab, so‘zlashgisi keldi. Lekin xayoli tutqich bermas, esi kirarlik-chiqarlik bo‘lib turar va nima demoqchi bo‘lganini xotiriga keltira olmas edi.

U kular ekan:

– Ha, ha... bu yerda ko‘pdan beri turasanmi? – dedi.

– Yarim yil bo‘ldi, – deb javob berdi juvon.
U, go‘yo bu qisqa muddat xotinning axloqi hali uncha
buzilmaganini ko‘rsatganday, bosh irg‘itib qo‘ydi va davom
etib:

– Shunaqa hayot kechirish o‘zingga yoqadimi? – dedi.

Juvon biroz tutilib qolib, keyin muloyimlik bilan:

– Odam har narsaga ham ko‘nikar ekan. Bu kasb boshqa
kasbdan qolishmaydi. Oqsochlik nima-yu fohishalik nima –
ikkalasi ham bir, – dedi.

Aftidan, Selesteng bu haqiqatga ham qo‘shildi.

– Shu yerlikmisan?

Juvon javob o‘rniga bosh chayqab qo‘ya qoldi.

– Uzoqdan kelganmisan?

Juvon yana jimgina bosh irg‘itdi.

– Qayerliksan?

Qiz go‘yo eslayotganday o‘ylanib qoldi, so‘ng astagina:

– Perpinyanlikman, – dedi.

Matros yana xursand bo‘lib:

– Shunaqa degin! – dedi.

Qiz ham undan:

– Sen-chi, dengizchimisan? – deb so‘radi.

– Ha, go‘zalim.

– Uzoqdan keldingmi?

– Ha. Ko‘p portlarni, ko‘p yurtlarni ko‘rdim.

– Butun dunyoni aylanib chiqqandirsan?

– Bo‘lmasam-chi! Tag‘in bir necha marta degin.

Qiz go‘yo allaqachonlar xotiridan ko‘tarilgan bir narsani
eslayotganday, yana o‘ylanib qoldi, keyin jiddiyroq bir
ohangda:

– Suzib yurgan chog‘ingda ko‘p kemalarни ham uchrat-
gandirsan? – dedi.

– Bo‘lmasam-chi, go‘zalim!

– „Shamol malagi“ degan kemani uchratmadingmi?

Yigit kulimsiradi.

- Albatta, o'tgan haftagini ko'rgan edim, – dedi.
Qiz oppoq bo'lib, rangi o'chib ketdi.
- Rostmi? To'g'ri aytyapsanmi?
- Rost aytyapman.
- Yolg'on aytmayapsanmi?
Yigit qo'llarini ko'kka ko'tardi:
- Xudo haqqi, – dedi.
- Xabaring bo'lmadimi, unda Selestend Dyuklo hali ham bormikin?

Yigit hayron bo'ldi va bezovtalandi; javob berishdan oldin bu gapning tagida nima borligini bilib olmoqchi bo'ldi.

- Tanirmiding uni?
- Endi qiz ehtiyot bo'ldi.
- Yo'q, shu yerda uni bir xotin taniydi.
- Shu uydamli?
- Yo'q, boshqa uyda.
- Shu ko'chadami?
- Yo'q, narigi ko'chada.
- Qanday xotin ekan?
- Ha, bir xotin-da... Menga o'xshagan.
- Xotinning unda nima ishi bor ekan?
- Men qayoqdan bilay? Ehtimol, hamshahardir.
- Ular orada hozir bir dilsiyohlik bo'lishini payqab, bir-birlariga qattiq tikilib qolishdi.
- O'sha xotinni ko'rishning iloji yo'qmi? – dedi matros.
- Ko'rib nima qilasan?
- Nima qillardim. Selestend Dyukloni ko'rdim deyman-da.
- Qalay u, sog'-salomatmi?
- Sen bilan mendan qolishmaydi, juda baquvvat yigit.

Qiz xayolini yig'ib olish uchun yana jimb qoldi, keyin shoshilmasdan:

- „Shamol malagi“ qay tomonga ketayotgan edi? – dedi.
- Shu yerga, Marselga kelayotgan edi, – dedi yigit.

Qiz beixtiyor seskanib ketdi.

– Rostmi?

– Rost.

– Sen Dyukloni taniysanmi?

– Ha, taniyman.

Qiz yana o'ylanib qoldi, keyin astagina:

– Shunaqami... shunaqami... – dedi.

– Senga uning nima keragi bor?

– Menga qara, unga aytginki... yo'q, qo'y.

Selestən tobora hayron bo'lib, qizga tikilmoqda edi, nihoyat butun sirni bilmoqchi bo'ldi.

– Uni sen ham taniysammi? – dedi.

– Yo'q, – deb javob berdi qiz.

– Unday bo'lsa, senga uning nima keragi bor?

To'satdan bir qarorga kelgan qiz irg'ib turdi va yugurib, orqadagi bekach ko'z-qulqoq bo'lib o'tirgan stol yoniga bordi, undan bitta limon olib kesdi-da, suvini stakanga siqdi, ustiga suv quydi va matrosga berib:

– Ma, ich, – dedi.

– Nega?

– Kayfing tarqasin. Keyin senga bir gap aytaman.

Yigit ichdi, keyin qo'li bilan lablarini artib:

– Mana, ichdim! Aytaver, – dedi.

– Meni ko'rganligingni va mendan eshitgan so'zlarining kimdan eshitganligingni unga aytmashlikka va'da ber. Qasam ich!

Yigit qo'llarini ko'tardi va kulib qo'ydi-da:

– Mana, qasam ichaman, – dedi.

– Xudo ursinmi?

– Xudo ursin.

– Xo'p, bo'lmasa unga aytginki, otang ham o'lipti, onang ham o'lipti, ukang ham o'lipti, bundan uch yarim yil oldin, 1883-yilda bir oyning ichida tif kasali bilan uchchalasi ham o'lipti, degin.

Yigitning yurak-bag‘ri uzilib ketganday bo‘ldi. Uning shunday kayfi uchib ketdiki, boshda nima deyishini ham bilmay qoldi, keyin shubhaga tushib:

- Aniq bilasanmi? – dedi.
- Aniq.
- Kimdan eshitding?

Qiz qo‘llarini yigitning yelkasiga tashladi va ko‘zlariga tikilib turib:

- Hech kimga aytmaysanmi? Qasam ich, – dedi.
- Xudo ursin.
- Men uning singlisi bo‘laman, – dedi.

Beixtiyor yigitning og‘zidan qizning nomi chiqib ketdi:

- Fransuaza! – deb yubordi.

Qiz unga tikilib qarab turgach, benihoya qo‘rquv ichida dahshatdan o‘zini yo‘qotguday bo‘lib, lablarini ham ochmasdan eshitilar-eshilmash:

- Ooh!.. Selesteng, senmiding? – dedi pichirlab.

Ular bir-birlarining ko‘zlariga tikilganlaricha qotib qolishdi. Ularning atrofida Selestening o‘rtoqlari hamon hayqirishmoqda edi. Bir-biriga urilayotgan qadahlarning tovushi ashulaga jo‘r bo‘lib stolga urishlar, yer tepishlar va xotinlarning chinqirishlari har kim o‘z holicha aytayotgan ashulaga qo‘shilib turardi.

Selesteng o‘zining yonida his qilgan, issiqliqqa bo‘lib, qutio‘chgan bir holda uning bag‘riga kirib olgan qiz – singlisi. Selesteng boshqalar eshitib qolishidan qo‘rqib astagina, shu qadar asta, hatto qiz ham zo‘rg‘a eshitadigan qilib.

- Oh! Nima ish qilib qo‘ydim! – dedi.
- Qizning ko‘zlarini yoshga to‘ldi va pichirlab:
- Menda nima ayb? – dedi.
- Bexosdan Selesteng:
- Demak, ular o‘ldimi? – dedi.
- O‘lishdi.
- Otam ham, onam ham, ukam hammi?

— Aytdim-ku, uchchalasi ham bir oyning ichida deb. Men yolg'iz qoldim, latta-puttadan boshqa hech narsa yo'q edi, axir men aptekachilardan, doktordan qarzdor bo'lib qoldim-da. Uchta o'likni ko'mish uchun butun uy-ro'zg'orlarimni sotdim. Shundan keyin Kashe janoblariga oqsochlikka kirdim, esingdami, haligi cho'loq bor edi-ku? Xuddi o'n beshga to'lgan edim, sen ketayotganingda hali o'n to'rtga ham kirmagan edim-da. U bilan rasvolik qilib qo'ydim. Yoshligimizda hammamiz ham ahmoq bo'lamiz. Keyin notariusga oqsoch bo'lib kirdim. U ham meni yo'ldan urdi. Gavrdan uy ijara olib berdi. Ko'p o'tmay o'zi ham kelmay qo'ydi. Uch kungacha och o'tirdim, qilay desang ish topilmaydi, so'ng shunaqa uyga kirishga to'g'ri keldi. Axir, bu-naqa ishni yolg'iz men qilayotganim yo'q-ku, men ham juda ko'p joylarni ko'rdim. Yana qanaqangi yaramas joylarni degin: Ruan, Evre, Lel-Bordo, Perpinyan, Nitss, mana endi Marselga keldim.

Qizning ko'zlaridan, burnidan yoshlari oqib yuzini yuvar, og'ziga oqib tushardi.

— Men seni o'lib ketgansan deb yurardim, Selesteng, sho'rlik akam.

— Men-ku, seni tanimasligim mumkin edi. U vaqtida sen yosh bola eding, endi qara, kap-katta bo'lib qolibsan! Sen nega meni tanimading? — dedi Selesteng.

Qiz qo'l siltab:

— Shuncha ko'p erkaklarni ko'ramanki, nazarimda ham masining afti bir xilga o'xshaydi, — dedi.

Selesteng, shu qadar kuchli bir hayajon-la uning ko'zlariga tikilarkan, xuddi birov urayotgan boladay qichqirgisi kelardi. U tizzasida o'tirgan qizni hali ham quchoqlab, yelkasiga qo'lini tashlab o'tirardi. Tikila-tikila nihoyat uni ota-onasi va ukasi bilan vatanida qoldirib ketgan, Selesteng dengizlarni kezib yurganida ota-onasini yer bag'riga uzatib kelgan singlisini tanidi.

To'satdan, topib olgan singlisining boshini katta qo'llari bilan ushlab, qattiq-qattiq o'pa boshladi. Kishi faqat jigariniga shunday o'pa oladi. So'ng ko'kragidan dengiz to'lqinidek og'ir, mast kishining hiqichog'iga o'xshash, er kishiga xos alamli bir yig'i otlib chiqqdi.

U o'ksib-o'ksib yig'larkan:

– Senmisan, shu senmisan, Fransuaza, mening go'dagim! – derdi.

U irg'ib o'midan turdi, mushti bilan stolga shunday urdiki, stakanlar ag'darilib tushib, mayda-mayda bo'ldi. U tovushining boricha so'ka boshladi, bir necha qadam yurib borib, gandiraklab qo'llarini cho'zdi, bor bo'yi bilan o'zini yerga tashlab yubordi. U polda yumalab jon talvasasiga tushgan odamday ingrab tepina boshladi.

O'rtoqlari unga qarab qattiq kulishardi, bittasi:

– O'lguncha ichipti-da, – deb qo'ydi.
– Yotqizib qo'yish kerak, – dedi yana bittasi, – agar shu ahvolda ko'chaga chiqsa qamab qo'yishadi.

Cho'ntagida puli borligi uchun uy bekasi karavot bermoqchi bo'ldi, zo'rg'a tik bosib turgan mast o'rtoqlari uni ko'tarishib, tor zinadan hozirgina uni qabul qilgan singlisining uyiga olib kirishdi. Singlisi ham la'nati to'shak yonida kursiga o'tirib, Selestenga o'xshab achchiq-achchiq yig'lab tong ottirdi.

MUNDARIJA

Do'ndiq	5
Asirlar	53
Mademuazel Fifi	66
Darbadar.....	81
Oqsoch qiz sarguzashti	94
Portda	116

24150

Gi de Mopassan.

M 74 **Novellalar.** [Matn]: roman / Gi de Mopassan; tarjimon: Zumrad Orifjonova – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 128 b.

ISBN 978-9943-8369-1-4

UO'K 821.133.1-3
KBK 84(4Fra)

Adabiy-badiiy nashr

GI DE MOPASSAN

NOVELLALAR

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir	<i>Malika Kamolova</i>
Badiiy muharrir	<i>Bahodir Ibragimov</i>
Musahhih	<i>Zikrilla Mamatov</i>
Sahifalovchi	<i>O'g'iloy Qurbanova</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
08.08.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84×108^{1/32},
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 10,92. Adadi 1000 nusxa. Shartnoma № 3-22.
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodi“ bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodi“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, 60-uy.

CLÉ DE MORPASAN NOVELLAR



ZIYO NASHR



fb.com/zoyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-8369-1-4

9 789943 836914